

KIRISH

Jahon iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatgan global moliyaviy inqiroz xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar iqtisodiyotining jahon inqiroziga nisbatan turg'un emasligi va bu turdagi iqtisodiy o'sishning beqarorligini namoyon etdi.

Mazkur vaziyatdan chiqib ketishning yagona yo'li xomashyo eksporti modelidan chekingan holda iqtisodiyotda jadal, kuchli tuzilma-
viy diversifikatsiyani amalga oshirish bilan iqtisodiy o'sishning inno-
vatsion modeliga o'tishni taqozo etadi. Har qanday mamlakat ham
agarda innovatsion taraqqiyot yo'liga kirmas ekan, jahon iqtisodiyoti-
ning teng huquqli ishtirokchisiga aylana olmaydi.

Hozirgi kunda bir qator mamlakatlar jahon xo'jaligida egallagan o'rini yanada yaxshilashga, jahon savdosi, xalqaro mehnat taqsimoti-
dagi o'z ixtisoslashuvini o'zgartirish va maqbullashtirish orqali iqtiso-
diyotni tarmoq yoki hududiy jihatdan modernizatsiyalash, takomillashti-
rish asosida yanada mustahkamlashga intilmoqdalar. Buning uchun xalq-
qaro, mintaqaviy va milliy salohiyatdan foydalangan holda, milliy ikti-
sodiyotning ilmiy va texnik tashkil etuvchisini faollashtirish lozim.

Iqtisodiyotni modernizatsiya hamda diversifikatsiyalash faoliyati davlatlarning nafaqat raqobatchilik holatini, balki uning milliy xavf-
sizligini ham mustahkamlash uchun strategik qurol bo'lib hisoblanadi. Bularning barchasi innovatsion taraqqiyot zaruriyati, yangiliklarni joriy etish qobiliyati zamonamizning – XXI asrning eng muhim talabi ekanidan darak beradi. Zamonaviy raqobat kurashida so'z, birinchi navbatda, resurslar, moddiy boyliklarga egalik to'g'risida emas, balki yangiliklarni joriy eta olish qobiliyati to'g'risida boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov innovatsion taraqqiyotning muhimligi to'g'risida bir necha bor ta'kidlagan va bugungi kunda O'zbekiston intellektual salohiyatni kengaytirish va undan samarali foydalanish, ilmiy-texnologik, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy sohani muntazam yangilab va takomillashtirib borish asosida innovatsion rivojlanishning zamonaviy modeliga o'tish uchun barcha zarur resurslarga, shart-sharoitlarga ega ekanligini alohida uqdirib o'tgan. Bu esa mamlakatning iqtisodiy va industrial rivojlangan mam-
lakatlar qatoridan o'rin egallashi uchun zaruriy shart va mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Innovatsion industriyalashtirish to'g'risida so'z borganda, biz o'tgan asr boshlarida jahonning barcha davlatlari-

dagi industriyalashtirishni nazarda tutganimiz yo‘q. Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlab beruvchi omil sifatidagi yangi innovatsion-industrial modelning shakllanishi jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi ukladiga muvofiq kelishi lozim. Jahon xo‘jalik tizimiga qo‘shilish uchun kuchli texnologik ildamlikka ega bo‘lish zarur. O‘zbekiston bunday ulkan vazifalar yechimini topishning barcha imkoniyatlariga ega hamda bizning mamlakatimiz oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishi uchun to‘siq bo‘ladigan hech qanday jiddiy sabablar mavjud emas.

Rivojlangan mamlakatlardagi retsessiya sharoitida iqtisodiy o‘shishning yangi uzun to‘lqinlarida jahon iqtisodiyotining yangi markazlari – Xitoy va Hindiston shakllanmoqda. Jahon moliyaviy tizimi polivalyutali bo‘lib bormoqda, globallashuv esa globalizatsiya, ya‘ni jahon iqtisodiyotida Osiyo–Tinch okean mintaqasining tutgan o‘rni kuchayib borayotgan yirik mintaqaviy iqtisodiy ittifoqlarning shakllanishi bilan o‘rin almashmoqda.

Har qanday mamlakat, shu jumladan O‘zbekiston uchun ham, iqtisodiy salohiyatni saqlashga qaratilgan va yangi ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlarni jadal sur‘atlarda shakllantirishni ko‘zda tutuvchi o‘z strategiyasining mavjudligi inqirozdan keyingi taraqqiyotning zarur sharti bo‘lib sanaladi. Bu strategik aktivlar va ichki bozorni xorijiy chayqov kapitalidan himoya qilish hamda iqtisodiy o‘shishning istiqbolli innovatsion yo‘nalishlarida raqobatbardosh korxonalarni shakllantirish bo‘yicha faol tarkibiy va ilmiy-texnik siyosatni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyodagi Yangi industrial mamlakatlar hozirgi davrda ichki va tashqi siyosiy va iqtisodiy hayotda ulkan yutuqlarga erishdilar.

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o‘zining iqtisodiy rivojlanishida ulkan yutuqlarga erishgan holda, tashqi iqtisodiy faoliyatini ham ahamiyatli darajada faollashtirdi. Ularning hozirgi kundagi jahon hamjamiyatidagi o‘rni yetarli darajada yuqoridir. Taraqqiyotdagi bu mamlakatlarning roli va o‘rni kundan kunga o‘shib bormoqda.

Yuqoridagilarga bog‘liq holda, mazkur o‘quv qo‘llanmaning maqsadi o‘rganilayotgan mintaq mamlakatlari modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlari qay tarzda amalga oshirilayotganligi, ularning maqsad va vazifalari, xususiyatlarini muhim jihatlarini o‘rganib chiqishdan iboratdir.

Mazkur maqsadga erishish uchun o'quv qo'llanmaning **vazifalari** quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- Modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonining nazariy asoslarini o'rganib chiqish;

- mazkur jarayonning asosiy omillari, yonalishlarini batafsil ko'rib chiqish;

- ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish;

- korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik qayta jihozlash hamda restrukturizatsiyalash muammolarini aniqlash;

- o'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida iqtisodiy islohotlar jarayonini tahlil etish;

- o'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida (Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari) modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarining xususiyatlarini o'rganib chiqishdan iborat.

Mazkur o'quv qo'llanma 5231000 - XMI va mamlakatshunoslik yo'nalishidagi bakalavr bosqichining 4-kurs talabalari uchun mo'ljallangan.

I BO'LIM: MODERNIZATSIYA VA DIVERSIFIKATSIYA JARAYONINING NAZARIY ASOSLARI

1-BOB. FANNING PREDMETI, UNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Darsning maqsadi: "O'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlari" fanining predmeti va uning maqsad va vazifalarini bilish, mazkur jarayonlarning mohiyatini tushinib yetish.

Kalit so'zlar: *modernizatsiya, diversifikatsiya, diversifikatsiya strategiyasi, korxonalar, mahsulotlar, bozorlar, ishlab chiqarish, tijorat faoliyati, raqobatbardoshlik, qo'shma korxonalar, sotib olish, xizmatlar assortimenti.*

1.1. Modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonining mohiyati

O'zbekistonda bozor islohotlarining barcha bosqichlarida respublika milliy iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar muammosi muhim o'rin egallaydi. Prezident I.A.Karimov bir necha bor ta'kidlaganidek, mamlakat raqobatdoshligini oshirishni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish siyosati davlat iqtisodiy dasturini amalga oshirishning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lishi lozim.

Milliy xo'jalik tarkibini takomillashtirish ishlari uning barcha sohalari va tarmoqlari bo'yicha, alohida mintaqalar bo'yicha milliy mahsulot, milliy daromad, investitsiyalar, mehnat resurslarining taqsimlanishini tartibga solish, shuningdek, muvofiq texnikaviy, tashqi iqtisodiy siyosat olib borish va h.k. yo'llar bilan amalga oshirilmoqda. Natijada, ijtimoiy talab yuqori bo'lgan faoliyat, mahsulot va xizmat turklarini boshqalaridan ko'proq rivojlantirishga erishilmoqda.

Takror ishlab chiqarishning ijtimoiy, tarmoq, hududiy va texnologik nisbatlaridagi siljishlar majmui tarkibiy o'zgarishlarning mazmunini tashkil etadi. Tarkibiy o'zgarishlar milliy mahsulot va milliy daromadning natural, qiymat va funksional tarkibi, shuningdek, milliy xo'jalikning turli tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'zgarishlarida namoyon bo'ladi.

Milliy xo'jalik tuzilmasining qaror topishida, bu jarayonni belgilab beruvchi quyidagi muhim omillarning ta'siri seziladi: mulkchilik shakllari va xo'jalik yuritish sharoitlarining rivojlanishi; boshqaruv tizimi; iqtisodiy rivojlanish darajasi va unga muvofiq ijtimoiy ehtiyojlar tizimi; fan, texnika va texnologiyalar taraqqiyoti hamda ulardan ishlab chiqarishda foydalanish; mehnat resurslarining miqdor va sifat xususiyatlari; ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi; tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi va jahon bozorida ayirboshlash shartlari; resurs bazasining mavjudligi va rivojlanish darajasi; tabiiy-iqlim sharoitlari va boshqalar.

YaIMning makroko'rsatkichlari milliy iqtisodiyotning tarmoq tarkibi va uning rivojlanishini aks ettiradi. Misol uchun, 1990 va 2000-yillarda mos ravishda ishlab chiqarilgan YaIMda sanoatning ulushi 22,8% dan 13,8%gacha pasaygan. Biroq 2000-yildan boshlab respublika YaIM shakllanishida sanoat tarmog'i hissasining o'sib borishi kuzatilmoqda, xususan, bu tarmoqning ulushi 2010-yilda 24,0%ni tashkil etdi, bu esa respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgartirishlar, modernizatsiya siyosati va eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarish tarmoqlarini rag'batlantirish hisobiga sanoat ishlab chiqarishining o'sishi natijasi hisoblanadi.

Fanining predmeti mana shu modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlari bo'lib, uning asosiy maqsadi – mazkur jarayonlarning mohiyati, mamlakat iqtisodiyotidagi ularning o'rni va rolini aniqlashdan iboratdir. Maqsadga erishish uchun esa, quyidagi vazifalarni hal etmoq lozim:

- Modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarining mohiyatini aniqlash;
- Ishlab chiqarishni qanday modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash yonalishlarini bilish;
- O'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida iqtisodiy islohotlar jarayonini chuqur o'rganib chiqish;
- Yaponiya va Xitoy iqtisodiyotida modernizatsiya va diversifikatsiya masalalarini o'rganish;
- Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish xususiyatlarini tahlil etish;
- Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida industriyalashtirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarini o'rganish;

- O'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarini iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

1.2. Modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarining asosiy omillari, yonalishlari

Modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini mohiyatiga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, avval mazkur jarayonlar nimalarni anglatishini bilish darkor, ya'ni, **Modernizatsiya** – bu obyektning takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish demakdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, qo'lga kiritilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarning asosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonining o'rni ahamiyatli hisoblanadi. Shunga ko'ra, hozirda modernizatsiya jarayonining nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Eng avvalo, modernizatsiya atamasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, odatda uni texnika, texnologiyaga oid tushuncha deb qaraladi. Jumladan, iqtisodiyotga oid aksariyat lug'atlarda unga quyidagi mazmundagi ta'rif beriladi: «Modernizatsiya – obyektning yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me'yorlarga, texnik shartlarga, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirish. Asosan mashina, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlar modernizatsiyalanadi»¹. Fikrimizcha, bu modernizatsiyaga tor ma'nodagi yondashuv bo'lib, bugungi kunda uning keng ma'nodagi mazmuni tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Modernizatsiya – an'anaviy jamiyatning ilg'or, industrial jihatdan taraqqiy etgan jamiyatga aylanishini ta'minlovchi ijtimoiy-tarixiy jarayon.

Modernizatsiyaning keng ma'nodagi mazmunini tushunishda iqtisodchi olim R.Nureyev uning neoklassik va keynscha talqinlarini farqlaydi. Jumladan, neoklassiklar tomonidan modernizatsiyaga xususiy mulkchilik va demokratiyani mustahkamlash sifatida yondashilsa, keynschilar tomonidan, eng avvalo, xo'jalikning asosiy tarmoqlarini qamrab oluvchi tarkibiy o'zgarishlar sifatida tushuniladi. Dastlabki

¹ <http://ekonomic.doco.ru/?id=797665467>.

o'ringa texnik-iqtisodiy muammolar qo'yiladi. Xo'jalikning zamona-viy tarmoqlarining mavjud bo'lmashligi taraqqiyotning asosiy to'sqinlik kuchi sifatida qabul qilinadi².

Umuman olganda, modernizatsiya an'anaviy jamiyatdan industriallashtirilgan, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga hamda ijtimoiy jarayonlarni qonunlarga tayangan holda oqilona boshqarishga asoslangan jamiyatga o'tish jarayonlarini namoyon etadi. Nazariyada modernizatsiya deganda, «an'anaviy tarzda yopiq jamiyat»ga qarama-qarshi o'laroq, «zamonaviy ochiq tarzda jamiyat»ni shakllantirishga olib keluvchi industriallashtirish, sekulyarlashtirish, urbanizatsiya, umumiy ta'lim, vakolatli siyosiy hokimiyat tizimlarining qaror topishi, hududiy va ijtimoiy safarbarlikning kuchayishi kabi jarayonlarning majmui tushuniladi.

Bundan ko'rinadiki, modernizatsiya juda keng tushuncha bo'lib, bugungi kunda uni jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o'zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg'or andozalar tomon yo'naltirish va takomillashtirish jarayonlarining majmui sifatida ifodalash mumkin.

1.3. Modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlariga xos bo'lgan umumiylik

Zero, milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali amal qilishini ta'minlash, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari taraqqiyoti darajasiga olib chiqish, turli siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, jahon bozori konyunkturasidagi tebranishlar, inqiroz holatlariga nisbatan «chidamliligi», mustaqil rivojlana olish imkoniyat va salohiyatlari aynan iqtisodiyotning turli darajalaridagi ishlab chiqarish jarayonlaridagi tub islohotlar va ularning natijalariga bog'liqdir.

Biroq, shu bilan birga, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash ijtimoiy-iqtisodiy hayotning boshqa sohalaridagi o'zgarishlarga chambarchas bog'liq. Ya'ni, barcha soha va jabhalar o'rtasida jadal islohetish va modernizatsiyalash jarayonlarining amalga oshirilishida izchillik va mantiqiy muvozanatni ta'minlashga harakat qilish lozim. Shu o'rinda modernizatsiyalash jarayonining jamiyat har bir a'zosining ongliligi va mustaqilligini oshirishdagi o'rniga alohida e'tibor

² Нуреев Р. Модернизация экономики: концепции и средства. — <http://www.soob.ru/n/2005/10/c/6>.

qaratish lozim deb hisoblaymiz. Chunki, iqtisodiyot hamda mamlakat hayotining boshqa sohalarini modernizatsiyalash eng avvalo ushbu jarayonlarda ishtirok etuvchi, ularni amalga oshiruvchi va doimiy ravishda takomillashtirib boruvchi jamiyat a'zolari dunyoqarashi, tafakkurining o'zgarishi, ularning demokratik va tub islohot jarayonlaridagi faolligi oshishiga bevosita bog'liqdir.

Industriyalashtirish – mamlakat iqtisodiyotini sanoatlashgan asosga o'tkazish, iqtisodiyotda sanoat ishlab chiqarishi ulushini ahamiyatli darajada ko'paytirish, butun iqtisodiyot yoki uning alohida tarmoqlarida yirik mashinalashgan ishlab chiqarishni barpo etish jarayoni.

Hozirgi zamon jahon xo'jaligi, uning rivojlanishi va iqtisodiy o'sish milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini belgilab beruvchi innovatsion rivojlanish va asosiy ishlab chiqarish omillarining o'sib borayotgan intellektuallashuvi bilan tavsiflanadi. Rivojlangan mamlakatlarda yangi texnologiyalar, uskunalar va ishlab chiqarishni tashkil etishda mujassam bo'ladigan yangi bilimlar ulushi yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish ko'rsatkichlarining 70%dan 85%gachasini tashkil etadi.

Rivojlangan mamlakatlar YaIMning ortib borishida innovatsion tarkibning qo'shayotgan hissasi jadal o'smoqda, masalan, u AQSHda 1999-yildagi 31% dan 2009-yilga kelib 34,6% ga oshdi; Yaponiyada ushbu yillar davomida 30,6%dan 42,3% ga; Yevropada 45,5% dan 50% gacha oshdi. Rivojlangan mamlakatlarda jahon ilmiy salohiyatining 90% dan ziyodi to'plangan va hajmi 2,5-3 trln. dollar deb baholalanayotgan yuqori texnologiyalar global bozorining 80% ni aynan mana shu davlatlar nazorat qiladilar. 2015–2020-yillarga kelib uning 4 trln. dollarga yetishi kutilmoqda. Fan sig'imi yuqori bo'lgan texnologik mahsulotlarni sotishdan katta daromad olinadi. Masalan, mazkur mahsulotni eksport qilishdan har yili AQSH taxminan 700 mlrd. doll., Germaniya – 530 mlrd., Yaponiya – 400 mlrd. dollar daromad oladi. Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda fan sig'imi yuqori salohiyatga "katta yettilik" mamlakatlari egadirlar, ular keyingi 10–15 yil davomida to'rtinchi texnologik ukkladni tugatib, ayni vaqtda yangi texnologik ukkladni yaratish va joriy etishga kirishdilar.

Janubiy va Shimoli-Sharqiy Osiyodagi bir qator industrial mamlakatlar eksportga yo'naltirilgan industrilashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirmoqdalar. Hozirgi vaqtda fan sig'imi yuqori mahsulotlar bo'yicha jahon eksportida ularning ulushi 15%ni tashkil etadi. So'nggi o'n yillikda Xitoy yuqori texnologiyalarni rivojlantirish va joriy etish

hisobiga sezilarli iqtisodiy o'sishga erishdi. Bu davrda ularning yalpi sanoat mahsulotidagi hissasi 8,1% dan 35,4% ga o'sdi. Xitoy har yili yuqori texnologik mahsulotlar eksportini 20% dan ziyodga oshirib bormoqda. Misol uchun, Xitoyda eng zamonaviy texnologiyalar tarmoqlari mahsulotlari hajmi oxirgi o'n yilda 27 barobar o'sdi, yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi esa 35,4%ga oshdi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish – zamon talabidir. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qatorida munosib o'rin egallash, milliy mahsulotlarimizning jahon bozorlaridagi raqobatdoshligini ta'minlash, shu asosda eksport hajmini sezilarli darajada oshirish mavjud soha va tarmoqlarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash asosida modernizatsiyalashni taqozo etadi. Ayni paytda, jahon bozoridagi ehtiyoj va talabning o'zgarishini hisobga olgan holda iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilmasini takomillashtirib borish, bu maqsadda yangi, zamonaviy tarmoqlarni barpo etish va jadal rivojlantirish lozim bo'ladi.

Mana shu modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlariga xos bo'lgan umumiylikka kelsak, unda diversifikatsiya jarayoni tushunchasi torroq doirada, modernizatsiya esa kengroq ma'noni berish bilan birgalikda, har ikkisinin asosida yangilanish ma'nosi mavjuddir.

O'zbekistonning Inqirozga qarshi choralar dasturining ustuvor yo'nalishlari budjet, moliya-bank va kredit tizimlarini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, ichki va tashqi bozorlarda mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilashdan iborat.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Modernizatsiya va diversifikatsiya tushunchalari nimalarni o'z ichiga oladi?*
2. *Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari va vositalari nimadan iborat?*
3. *Industriyalashtirish jarayonining mohiyatini tushuntirib bering.*
4. *Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash deganda nimani tushunasiz?*
5. *Milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini belgilab beruvchi omillarni sanab bering.*
6. *Modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlariga xos bo'lgan umumiylik nimalardan iborat?*

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini bog'liqligini mamlakatlar misolida asoslab bering.
2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiya jarayonlari bo'yicha test savollarini tuzing.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari», –T., "O'zbekiston", 2009.
2. O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot, O'z.R FA Iqtisodiyot instituti. –Toshkent, 2006.
3. Нуреев Р. Модернизация экономики: концепции и средства. –М., 2005.
4. Саидова Г. Модернизация, техническое обновление и диверсификация производства, широкое внедрение инновационных технологий – необходимое условие выхода Узбекистана на новые рубежи на мировом рынке / «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanidagi taqdimot materiallari. –T.: TDIU, 2009-yil 5-may.
5. <http://economic.doco.ru/?id=797665467>.
6. <http://www.soob.ru/n/2005/10/c/6>.

2-BOB. ISHLAB CHIQRISHNI MODERNIZATSIYALASH VA DIVERSIFIKATSIYALASH

Darsning maqsadi: ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarini to'liq o'rganib chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: *ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, texnologiyalar, jihozlar, texnologik qayta tuzish, sirategiya, mahalliy resurslar, eskirgan asbob-uskunalar, innovatsion texnologiyalar.*

2.1. Ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish chora-tadbirlari

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – bu ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Quyidagilar ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalish va vositalari bo'lib hisoblanadi: korxonalaridan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarib, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan almashtirish; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalarni anglatadi. \

) **Diversifikatsiya** jarayoni esa, (lotinchadan *diversus* – har xil va *facere* –qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohaslarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish demakdir.)

) **Diversifikatsiya strategiyasi** – korxonada faoliyatini mavjud mahsulotlar va bozorlar turini kengaytirish orqali rivojlantirish strategiyasi. Diversifikatsiya strategiyasi korxonalarining ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini rivojlantirishning eng yetakchi zamonaviy tendensiyalaridan biri hisoblanib, u orqali korxonalarni bozor sharoitida vujudga keladigan turli qaltisliklarga bo'lgan raqobatbardoshligini oshiradi. Diversifikatsiya strategiyasi – korxonalarda yangi mahsulotlar liniyalarini ishga

tushirish, qo'shma korxonalar tuzish, boshqa korxonalarni sotib olish va boshqa turli uslublarda amalga oshirishi mumkinligini bildiradi. Mazkur jarayonlardan farqli o'laroq, hozirgi zamonda dolzarb bo'lib turgan **innovatsiya jarayoni esa** – yangilik g'oyasini rivojlantirishdan uning pirovard iste'molchi tomonidan iste'mol qilinishigacha bo'lgan mantiqiy izchillikda harakatlanuvchi jarayon. Bu yangilikning ilmiy-texnik, ishlab chiqarish-iqtisodiy va ijtimoiy-tashkiliy salohiyatini yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish jarayonidir. Innovatsiya jarayonining quyidagi bosqichlari mavjud – yangilikni yaratish, uni o'zlashtirish, tarqatish va takomillashtirish. /

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, resurslarni tejash va mahsulot tannarxini pasaytirish hisobidan real sektor korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun soliq yukini maksimal darajada kamaytirish bo'yicha tadbirlar qabul qilindi. Mahalliy eksporter-korxonalariga mislsiz darajada yordam ko'rsatildi, ularning barqaror faoliyati natijasida eksport mahsulotlari hajmi 2009-yilda sezilarli o'sdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratildi – bugungi kunda mazkur tarmoq mamlakat YaIMning 50%ni yetkazib beradi.

2008-yildan boshlab Inqirozga qarshi choralar dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi jahon inqirozining salbiy oqibatlarini kamaytirdi va kam sonli mamlakatlar qatorida O'zbekistonga iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga va aholining real daromadini oshirishga imkon berdi. Jumladan, YaIM ning o'sishi 2010-yilda 8,5%ni tashkil etdi


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "...Biz inqirozdan keyingi davrda taraqqiy etishimiz, iqtisodiyotimizning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash, O'zbekistonning yangi marralarni egallashiga kuchli turtki bo'luvchi, mamlakatimizning jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlab beruvchi zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha chuqur o'ylangan uzoq muddatli maqsadli loyihalar Dasturini ishlab chiqish to'g'risida o'ylashimiz lozim"³.

³ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –Toshkent: "O'zbekiston", 2009. 36-37-betlar.

U.S. Top Sy...

2.1.1.-rasm

Mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishining turlari



Shunday ekan, barcha sanoat tarmoqlari korxonalari oldida aynan bir xil muammolar turibdi: yangidan yangi faoliyat sohalarini qamrab olayotgan globallashuv sharoitlarida raqobat nafaqat milliy, balki jahon bozorlari miqyoslarida keskinlashib bormoqda. Shuning uchun ham, mahalliy korxonalar mahsulotlarining sifati va texnologik darajasi bo'yicha ustunlikka ega xorijiy kompaniyalar bilan yanada jadal-roq va keskinroq kurash olib borishiga to'g'ri keladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, jahon xo'jalik munosabatlari globallashtirib borayotgan bir sharoitda innovatsion va investitsion faollikning kuchayib borishi, shuningdek, mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlab bera oladigan ilmiy-texnik salohiyatini qo'llab-quvvatlash vazifalari iqtisodiy rivojlanishning eng dolzarb muammolariga aylanib bormoqda.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning intellektual salohiyatni rivojlantirish, ilmiy-texnik loyihalarni shakllantirish, eng yangi texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan aynan innovatsion omillari mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotiga samarali kirib borishini ta'minlab beradi.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish vazifasi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda doimo diqqatimiz markazida bo'lib, iqtisodiy rivojlanish borasida erishgan yutuqlarimizning muhim omili hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida kechayotgan murakkab jarayonlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish uchun uning tarkibiy tuzilishini muttasil takomillashtirib borish zaruratini yanada kuchaytirdi. Mamlakatning raqobatbardoshligi eng avvalo uning iqtisodiyoti raqobatbardoshligi orqali ifodalanadi.

Mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish jarayonlarini chuqurlashtirish siyosatini davom ettirish 2013- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturni amalga oshirishning muhim ustuvor yo'nalishiga aylanishi lozim.

) **Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi** – mamlakatning o'rta va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyati.

) **Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi** – iqtisodiyotning to'lovga qodir talabga mos keluvchi, iqtisodiy o'sish va turmush sifatini oshirishni ta'minlaydigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va ichki hamda tashqi bozorlarda sotish qobiliyati.

Ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshlik o'zaro jiddiy farq qilishi mumkin. Bu bozorlarda ichki va tashqi muhitni tashkil etuvchi omillarning turlicha ekanligi, ya'ni to'lovga qodir talab hajmi, ichki va tashqi bozordagi narxlar o'rtasidagi farq, olib borilayotgan tashqi savdo siyosati va h.k.lar bilan belgilanadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasi uning tabiiy resurs salohiyati, mehnat resurslarining soni va sifati (malaka darajasi), ishlab chiqarishning texnik-texnologik modernizatsiyalashganlik

darajasi, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining takomillashganligi, davlatning iqtisodiy rivojlanish hamda islohotlar strategiyasi qay darajada ilmiy asoslanganligi va o'zgarishlar jarayonlarini hisobga olganligi hamda boshqa bir qancha omillarga bog'liq.

Fransuz iqtisodchisi F.Perruning ta'rifiga ko'ra, iqtisodiy birlikning tarkibi ayni sharoitda va shu lahzada uni tavsiflaydigan proporsiyalar va nisbatlar majmuidir.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi – iqtisodiyotning turli qism va bo'laklari o'rtasidagi proporsiyalar va o'zaro nisbatlar.

Murakkab tizim sifatida iqtisodiyotning barcha elementlari orasidagi shakllangan va o'zgarib boradigan proporsiyalar va o'zaro nisbatlar tarkibiy o'zgarishlarni tavsiflaydi.

Milliy xo'jalikning maqbul tarkibi, alohida turdagi ishlab chiqarishlarning rivojlanganligi va balanslashganligi, ularning o'zaro mutanosibliigi har qanday davlat rivojlanishining pirovard maqsadi – aholi turmush farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

Qaysi belgiga ko'ra bo'lak yoki qismlarga ajratilishiga qarab mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishining turlari o'zaro farqlanadi (2.1-rasm).

Mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi shakllanishida uning tabiiy resurs salohiyati, geografik joylashuvi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi kabi omillar muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, uni o'zgartirish va takomillashtirishda davlatning tarkibiy siyosati hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tarkibiy o'zgarishlar siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida tarkibiy o'zgarishlar siyosati:

- mamlakat iqtisodiyotining diversifikasiyalashuv darajasini ko'tarish, ya'ni ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasini kengaytirish, YaIM, eksport kabi ko'rsatkichlarda alohida tarmoq mahsuloti yoki mahsulot guruhining ustunlik qilishiga barham berish;

- tashqi bozorlardagi konyunktura o'zgarishlariga kam ta'sirchan bo'lgan tarmoqlar va sohalarning YaIM va bandlikdagi ulushining yuqori bo'lishini ta'minlash;

- tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi, shuningdek eksport qiluvchi korxonalar va tarmoqlarning xomashyo va butlovchi qismlar bilan ta'minlanishida mahalliy korxonalar ulushining ustunligiga erishish;

- yuqori texnologiyalar va zamonaviy texnika bilan bilan qurolangan, arzon va sifatli, tashqi bozorda bemalol raqobatga kirisha oladigan sanoat tarmoqlarining sanoat ishlab chiqarishi ko'rsatkichlaridagi ulushini oshirish;

- konyunktura o'zgarishlariga tez moslashuvchan, kapital sig'imi past bo'lgan soha va tarmoqlarning yalpi iqtisodiy ko'rsatkichlardagi salmog'ini oshirishga erishish yo'nalishlarida olib borilmoqda.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirib borish, chuqur qayta ishlangan, tayyor, qo'shilgan qiymat hissasi yuqori bo'lgan mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni jadal rivojlantirish va ularning YaIM hamda mamlakat eksportidagi ulushini ko'paytirish muhim ahamiyatga ega.)


Ma'lumki, mehnat taqsimoti va unga bog'liq ravishda mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashish mehnat unumdorligini o'stirish, tayyorlanayotgan mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini kamaytirish uchun imkoniyat yaratadi. Ayni paytda, u yoki bu mahsulot turiga ixtisoslashish ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun xomashyo, butlovchi qismlarni boshqa ixtisoslashgan korxonalaridan sotib olish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Shu tariqa korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini o'rnatishga zarurat yuzaga keladi.

Bugungi kunda kooperatsiya aloqalarining xomashyo yetkazib berishdan iborat oddiy ko'rinishidan tortib to franchayzing tizimini qo'llash kabi murakkab turlarigacha mavjud.

Korxonalar o'rtasida barqaror kooperatsiya aloqalarini o'rnatish va ularni kengaytirish bo'yicha boshlangan ishlarni davom ettirish, bu jarayonga kichik biznes va xususiy tadirkorlik subyektlarini keng jalb etish zarur. Respublika sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi ishini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish lozim.

(**Kooperatsiya aloqalari** – mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha bir yoki bir necha korxonaning hamkorligi.

Korxonalarning bozorlarda qaysi mahsulot yoki xomashyoga ehtiyoj borligini bilishlari, uni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishlari uchun zarur bo'lgan materiallar va xomashyoni qaysi korxonalaridan olishlari mumkinligi to'g'risida axborotga ega bo'lishlari ularning rivojlanishi, umuman mamlakat iqtisodiyotining yuksalishida muhim omil hisoblanadi.



Bunday axborotlarning yetarli emasligi va ularni olishdagi qiyinchiliklar mavjudligi sababli mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yoki ishlab chiqarish imkoniyati mavjud bo'lgan xomashyo, butlovchi qismlar, materiallar yoki tayyor mahsulotlarni valyuta evaziga, ko'pincha qimmat narxlarda xorijdan olib kelish hollari mavjud. Bunga barham berish maqsadida mamlakatimizda tarmoq, tarmoq ichidagi va xalqaro sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda.


Masalan, mamlakatimiz korxonalarining kooperatsion aloqalarini kengaytirish bir necha vazifalarni hal etish imkonini beradi.

2.2. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yoʻnalish va vositalari

Bugungi kunda modernizatsiyalash jarayonlari mamlakatimiz hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan. Ayniqsa, mazkur yoʻnalishlar orasida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash muhim oʻrin tutadi (2.2.1-rasm).

2.2.1-rasm

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashni amalga oshirishning asosiy yoʻnalishlari va vositalari⁴



⁴ Manba: Саидова Г. Модернизация, техническое обновление и диверсификация производства, широкое внедрение инновационных технологий – необходимое условие выхода Узбекистана на новые рубежи на мировом рынке/ «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralar» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanidagi taqdimot materiallari. – T.: TDIU, 2009 yil 5 may.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *lishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash deganda nimalarni tushunasiz?*
2. *lishlab chiqarishni ma'naviy jihatdan yangilashning mazmun-mohiyatini ochib bering.*
3. *lishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish chora-tadbirlari nima maqsadni ko'zlaydi?*
4. *Mahalliy resurslarga nimalar kiradi?*
5. *Chiqitsiz va ekologik sof texnologiyalarni joriy etish qaysi mamlakatlarda amalga oshirilgan?*
6. *Kooperatsiya aloqalari nima uchun kerak?*

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. lishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash masalalarini real korxonaga yoki firma misolida ko'rib chiqing.
2. Korxonani texnik qayta qurollantirish uchun zaruriy omillarni tahlil qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari», –T.: “O'zbekiston”, 2009.
2. O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot, O'zR FA Iqtisodiyot instituti, –Toshkent, 2006.
3. Нуреев Р. Модернизация экономики: концепции и средства. –М., 2005.
4. Саидова Г. Модернизация, техническое обновление и диверсификация производства, широкое внедрение инновационных технологий – необходимое условие выхода Узбекистана на новые рубежи на мировом рынке / «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanidagi taqdimot materiallari. –T.: TDIU, 2009-yil 5-may.
5. <http://economic.doco.ru/?id=797665467>.
6. <http://www.soob.ru/n/2005/10/c/6>.

3-BOB: KORXONALARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA TEKNOLOGIK QAYTA JIHOZLASH HAMDA RESTRUKTURIZATSIYALASH MUAMMOLARI

Darsning maqsadi: korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik qayta jihozlash, ularni restrukturizatsiyalashning ilmiy-uslubiy asoslari va muammolarini o'rganib chiqish.

Kalit so'zlar: *modernizatsiya qilish, texnologik qayta jihozlash, restrukturizatsiyalash, ilmiy-uslubiy asoslar, bankrot korxonalar, iqtisodiyotning barqarorligi, investitsiyalar, mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, budjet, moliya-bank, kredit tizimi, ichki va tashqi bozorlar, mahsulot raqobatbardoshligi.*

3.1. Korxonalarni restrukturizatsiyalashning ilmiy-uslubiy asoslari

Bozor tizimining to'laqonli subyekti bo'lish sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlovchi zamonaviy texnika va texnologiyalar sotib olish uchun mustaqil investitsiyalar izlab topish, xizmat ko'rsatish bozorlaridagi konyunkturaviy o'zgarishlarni tahlil qilib borish, xomashyo va butlovchi qismlar yetkazib beruvchilar bilan mustahkam va barqaror aloqalar o'rnatish kabi chora-tadbirlarni doimiy tarzda amalga oshirishni taqozo etadi. Bunday vazifalarni bajarish uchun esa korxonaga xo'jalik yuritishning yangi sharoitlariga moslashishi talab etiladi.

Bozor munosabatlari sharoitida sanoat korxonalarining samarali faoliyati, eng avvalo, korxonaga ichki tuzilishini bozor talablariga muvofiq tashkil etish, fan-texnika taraqqiyoti natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish kabi masalalarning qay darajada muvaffaqiyatli hal etilishi bilan bog'liq.

"Restrukturizatsiyalash" atamasi bozor sharoitlariga moslashishni ta'minlovchi chora-tadbirlar majmuini o'zida aks ettiruvchi tushuncha sifatida kirib keldi.

Restrukturizatsiya ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayon. Uning namoyon bo'lish shakllari turlicha bo'lib, ular bir-birlaridan amalga oshirilish mexanizmi va usullari bo'yicha farq qiladi. Ana shu tafovutlar restrukturizatsiyaning iqtisodiy mazmunini yoritib beruvchi yagona ta'rif berishni qiyinlashtiradi. Shunday bo'lsa-da, restrukturi-

zatsiya jarayonining tub mohiyati bir xildir. Restrukturizatsiya natijasida korxonalar boshqaruv va moliyaviy jihatdan bozor munosabatlari talablariga, raqobat muhitiga moslashadi va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish va moliyaviy natijalarning yaxshilanishida, ishlab chiqarish samaradorligining o'sishida o'z aksini topadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi muhit o'zgaruvchan bo'lganligi tufayli restrukturizatsiya jarayoni doimiy ravishda amalga oshirilishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, restrukturizatsiya oldindan qo'yilgan maqsad emas, balki korxonaning bozor munosabatlari sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun obyektiv ravishda amalga oshiriladigan jarayondir.

Sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalashning mohiyati, usullari va mexanizmi, uning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga ta'siri, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalashning zaruriyati va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi-olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng o'rganilgan.

Bozor munosabatlari sharoitida sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalashning asosiy yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlari, bu jarayonni amalga oshirishning konseptual asoslari va ilmiy-amaliy jihatlari xorijiy iqtisodchilar – Andersen R., Braun D., Vodachek L., Gerxard P., Djankov S., Myurrel P., Stark D., Fridman R. va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

"Restrukturizatsiya" lotincha so'zdan olingan bo'lib, "qayta tashkil etish", "qayta tuzish", "tarkibni o'zgartirish" kabi ma'nolarni anglatadi. U bir tarkibiy tuzilmani ikkinchisiga almashtirish, yangi tarkib shakllantirish, tarkibni yangilash sifatida izohlanadi.

"Restrukturizatsiya" atamasiga iqtisodchi olimlar tomonidan ko'plab ta'riflar berilgan. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarini tadqiq etgan P.Gerxard va R.Andersenlar fikriga ko'ra, "restrukturizatsiya -- bu sanoat korxonasining mulkiy, ishlab chiqarish, xo'jalik, tovar va moliyaviy tarkibini o'zgartirish, yangilash, qayta shakllantirishdir". Ular fikricha, restrukturizatsiyalash, eng avvalo, xususiylashtirish jarayonini amalga oshirishni taqozo etadi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida xususiylashtirish jarayonining sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalashdagi ahamiyatini inkor etmagan holda? shuni ta'kidlash

lozimki, mazkur jarayon doimiy ravishda, korxonada xususiyashtirilgandan keyin ham amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, restrukturizatsiya bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish usuli hisoblanadi. Shu sababli restrukturizatsiya jarayoni nafaqat moliyaviy va iqtisodiy jihatdan nochor sanoat korxonalarida, balki keskin raqobat sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda ham amalga oshiriladi.

Restrukturizatsiyaga rentabellikni oshirish usullaridan biri sifatida qarash uning mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Albatta, korxonaning bozor muhitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishida rentabellikning oshishi muhim o'rin tutadi. Ammo faqat rentabellikning yuqori bo'lishi korxonada ishlab chiqarish samaradorligining yuqoriligi va uning raqobat sharoitida muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritayotganligidan dalolat bermaydi. Zero, asosiy fondlar qiymatini pasaytirish yoki ishchilar ish haqini minimallashtirish evaziga ham rentabellikning yuqori bo'lishiga erishish mumkin.

Restrukturizatsiya jarayonida korxonaning boshqaruv resurslari, shu jumladan, mehnat resurslari, texnik salohiyat, ishlab chiqarish quvvati, xizmat ko'rsatish qobiliyatidan qanday foydalanish lozimligi to'g'risida qarorlar qabul qilinadi. Bunday qarorlar qabul qilishda korxonada faollik ko'rsatayotgan sharoitlar – bozor holati, huquqiy tizim, mijozlar ish faolligi, did va manfaatlarining o'zgarishi, milliy va xalqaro darajada raqobatchi korxonalar faoliyati hisobga olinadi.

Restrukturizatsiya – korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, keskin raqobat muhitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishni ta'minlash maqsadida muayyan rivojlanish strategiyasini tanlash va ushbu strategiyani amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar majmuidan iborat bo'lib, korxonaning ichki tarkibini qayta tashkil etish asosida bozor sharoitlariga moslashish jarayonini o'zida aks ettiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, restrukturizatsiyalash nafaqat yangi tashkiliy tuzilmalarni barpo etish, balki u yangi boshqaruv madaniyati, rahbarlar va mutaxassislarining yangicha fikrlashi, boshqacha qilib aytganda, yangi yondoshuvlar va g'oyalarni amalga oshirishni ta'minlovchi jarayon ham hisoblanadi.

Restrukturizatsiyalash korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, korxonada va u tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar raqobatbardoshligini mustahkamlash, shuningdek, korxonaning investitsion jozibadorligini yaxshilashga qaratiladi. Ko'p hollarda restrukturizatsiya

zatsiya korxonaning tashkiliy tuzilmasi va boshqarish funksiyalarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash, moliyaviy-iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xarajatlarini pasaytirish, moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, zamonaviy axborot tizimini barpo etishdan iborat chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Restrukturizatsiya korxonaning xo'jalik yuritish usullarini tashqi muhit o'zgarishlariga moslashtiradi. Uni amalga oshirish imkoniyatlari korxonadan ishlab chiqilgan raqobat strategiyasini amaliyotga joriy etish natijalariga ta'sir ko'rsatadi. Ayni vaqtda, ishlab chiqarish va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga bo'lgan talab restrukturizatsiyaning mohiyati, uni amalga oshirish bosqichlari va muddatlarini belgilab beradi. Raqobatbardoshlikka erishish maqsadlari va usullaridagi bunday mushtaraklik korxonada tarkibini birlamchi qayta tuzish va keyinchalik uni operativ ravishda qo'llab-quvvatlab turishning samarali mexanizmini barpo etish imkoniyatini beradi. Albatta, korxonani restrukturizatsiyalash muayyan darajada tavakkalchilikni taqozo etadi. Shu bilan birga, restrukturizatsiyalash jarayonining muvaffaqiyatsizlikka yuz tutishi ko'p jihatdan uni amalga oshirish texnologiyasida yo'l qo'yilgan kamchiliklarga bog'liq. Har bir sanoat korxonasida restrukturizatsiyani amalga oshirish uchun aniq sharoitdan kelib chiqib, tegishli chora-tadbirlar belgilanadi va amalga oshiriladi. Masalan, mehnat unumdorligini oshirish maqsadida korxonada band bo'lgan ishchilar sonini qisqartirish, ish haqini barqarorlashtirish, korxonaning aktivlari tarkibini takomillashtirish (korxonada tasarrufidagi ijtimoiy obyektlarni, keraksiz texnika, materiallar, xomashyo va boshqalarni sotish orqali), yangi, to'lovga qobillik darajasi yuqori bozorlarni ochish (bozor ekspansiyasi) va yangi mahsulotlar inshab chiqarish va mavjudlarining sifatini yaxshilash shular jumlasidandir.

Amalga oshirish usuliga qarab restrukturizatsiyalashning quyidagi o'zaro bog'liq yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Korxonaning hajmini o'zgartirish, ya'ni kengaytirish yoki qisqartirish yo'li bilan restrukturizatsiyalash jarayonini amalga oshirish. Bunday restrukturizatsiyalashda korxonada turdosh korxonadan bilan qo'shilib ketishi yoki turdosh korxonani qo'shib olishi mumkin. Shuningdek, korxonani bo'lish yoki korxonadan ajralib chiqish orqali ham korxonada hajmini o'zgartirish mumkin.

2. Mulk va korporativ boshqaruvga ta'sir ko'rsatish yo'li bilan restrukturizatsiyalash. Bunday restrukturizatsiyalash natijasida korxonada mulkiy jihatdan qayta tashkil etiladi.

3. Nizom jamg'armasini restrukturtatsiyalash. Korxonada yangi aksiyalarni emissiya qilish, aksiyalarni sotish yoki sotib olish, aksiya yoki o'z ulushini konvertatsiya qilish orqali Nizom jamgarmasini restrukturizatsiyalashi mumkin.

4. Kreditorlik qarzlarni restrukturizatsiyalash. Korxonada kreditorlik qarzlarni to'lash, undan kechib yuborish, kredit muddatini uzaytirish yoki sotib yuborish orqali kreditorlik qarzlarni restrukturizatsiyalashni amalga oshiradi.

5. Korxonada faoliyatining ichki tuzilishini restrukturizatsiyalash. Korxonada yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda boshqaruv xizmatlari mas'uliyatlarini qayta taqsimlash, funksiyalari va vazifalarini o'zgartirish yo'li bilan o'z faoliyatining ichki tuzilishini o'zgartirishi mumkin.

6. Ishlab chiqarish tarkibini o'zgartirish yo'li bilan restrukturizatsiyalashni amalga oshirish. Bunday restrukturizatsiyalashda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, mas'uliyat markazlarini barpo etish yoki boshqa ichki xazinalarni aniqlash va ulardan foydalanish orqali korxonaning ishlab chiqarish tarkibi o'zgartiriladi. Restrukturizatsiyalash jarayoni uni amalga oshirishga tashqi manbalarni jalb etish yoki etmasligiga qarab aktiv va passiv bo'lishi mumkin. Sanoat korxonalarini passiv restrukturizatsiyalash mavjud uskunalardan oqilona foydalanish, boshqarish shakllari va usullarini takomillashtirish, marketing faoliyatini rivojlantirish hisobiga qo'shimcha moliyaviy mablag'larni jalb etmasdan amalga oshiriladi. Odatda, bunday restrukturizatsiyalash qisqa muddatlarda, xususiylashtirishgacha bo'lgan davrda amalga oshiriladi.

Sanoat korxonalarini aktiv restrukturizatsiyalash esa strategik investor mablag'lari hisobiga xususiylashtirishdan keyingi davrda amalga oshiriladi va uzoq muddatga mo'ljallanadi.

Restrukturizatsiya jarayoniga strategik investorlarni jalb etishning sabablari turlichadir. Ular sanoat korxonasini restrukturizatsiyalashda o'z pul mablag'lari, texnologiyasi, boshqaruv tajribasi bilan qatnashishi mumkin. Bu sanoat korxonasining qaysi resursga ehtiyoji ko'pligi bilan belgilanadi.

Sanoat korxonalarini restrukturizatsiya qilish unda qatnashuvchi sheriklar soniga, mulk shakliga va korxonaning hajmiga ko'ra ham

farqlanadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda sanoat korxonasini restrukturizatsiyalash, odatda, xususiy korxonalar va xususiy moliyaviy muassasa (bank, kredit uyushmasi, moliya-sanoat guruhi va h.k.) ishtirokida amalga oshiriladi. O'tish davri mamlakatlarida moliyaviy muassasa o'rnida ko'pincha davlat faoliyat ko'rsatadi. Yirik korxonalar uch va undan ortiq strategik sheriklarning hamkorligida restrukturizatsiya qilinadi. Kichik va o'rta korxonalarini restrukturizatsiyalash uchun bir yoki ikki hamkorning sa'y-harakati yetarli hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalashni amalga oshirishdan ko'zlangan pirovard maqsad – bu korxonaning uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanishni ta'minlashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun korxonalar restrukturizatsiya natijasida tovar aylanmasini, foyda me'yorini va raqobatbardoshligini oshirishi zarur bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, sanoat korxonasini restrukturizatsiyalash amalga oshirish muddatiga ko'ra qisqa (joriy reja) va uzoq muddatli (strategik reja) tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi.

Korxonaning strategik rejasiga muvofiq restrukturizatsiya bo'yicha quyidagi vazifalar bajariladi:

- korporativ rejalashtirish va boshqarish tizimini takomillashtirish; korxonalar ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatining barcha sohalarini qamrab oluvchi strategik boshqaruv tizimiga o'tish. Bu tizim korxonaning xomashyoni tayyorlash, mahsulotlar ishlab chiqarish, texnik va investitsiya siyosati, marketing va tovarni sotish siyosati, moliyaviy resurslar va xodimlarni boshqarish hamda ijtimoiy siyosatlarni to'liq qamrab olishi kerak;

- mahsulot ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga (zamonaviylashtirishga) qaratilgan investitsion dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish, samarali ta'minot tizimini barpo etish. Shuningdek, uzoq muddatli moliyalashtirish va kapital tuzilishiining optimal sxemasini aniqlab olish;

- ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyoni ta'minot sohasini kengaytirish hisobidan oshirish; xomashyo yetkazib beruvchilarning iqtisodiy manfaatdorligini oshirish; tayyorlov va xomashyo hamda material yetkazib beruvchilar bilan tijorat aloqalarini o'rnatish;

- korxonaning mahsulot tarkibini diversifikatsiyalash; bunda asosiy mahsulot turlari bilan yonma-yon xalq iste'moli tovarlarini bir necha turda ishlab chiqarishni o'zlashtirishga asosiy e'tibor qaratilishi lozim. Masalan, nodir metall yoki prokat ishlab chiqaruvchi korxonada zeb-

ziyatlar, yarimo'tkazgichlar, texnika va asbob-uskunalar hamda turli mexanizmlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilishi mumkin;

- korxonaning eksport loyiha va dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, tashqi bozorda yangi bozor segmentlarini o'zlashtirish; eksport hajmini oshirish, eksportning tovar tarkibini takomillashtirish; unda yuqori sifatli, ilmtalab tovarlar eksportining ulushini oshirish;

- korxonada mahsuloti sifatini doimiy ravishda yaxshilab borishning samarali tizimini yaratish, 180 9001 standartiga mos keluvchi sifatni boshqarish tizimini sertifikatlash;

- korxonada moliyasini boshqarishni takomillashtirish; bunda moliyaviy rejalashtirish va nazorat konsepsiyasini ishlab chiqish muhim rol o'ynaydi;

- zamonaviy talablarga javob beruvchi hisob siyosati yuritish, narxni shakllantirishning maqsadga muvofiqligini ta'minlash; aktivlar va bo'sh pul mablag'larni boshqarishning samarali siyosatini shakllantirish.

Qisqa muddatli tadbirlar asosan, korxonaning xodimlarini o'qitish, malakasini oshirish, boshqaruv tashkiliy tuzilishi va tizimini isloh qilish (xususan, korporativ moliyani boshqarish tizimini), 180 9001 ga muvofiq keluvchi jarayonlarni tatbiq etish, korxonada marketing faoliyat konsepsiyasini ishlab chiqish (xususan, korxonada mahsulot tarkibini optimalashtirish bo'yicha asosiy yondoshuvlarni aniqlash), narx shakllanishining samarali mexanizmini barpo qilish kabilarni o'z ichiga oladi.

1-chizma.

Sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalash, uning ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari⁵

Restrukturizatsiyalashning maqsadi: korxonaning uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanishni ta'minlash		
Vazifalari:	Yo'nalishlari:	Modellari:
1. Korporativ rejalashtirish va boshqarish tizimini takomillashtirish	1. Korxonaning hajmini o'zgartirish yo'li bilan restrukturizatsiyalash	1. "Majburiy rekonstruktivatsiyalash" modeli
2. Mahsulot ishlab	jarayonini amalga	2. "Klaster modeli" 3. "Ishlab

⁵ J. Boboxonov. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalash muammolari. - T.: O'z. Milliy ensiklopediyasi, 2011.

<p>chiqarishni modernizatsiyalash</p> <p>3. Samarali ta'minot tizimini barpo etish</p> <p>4. Mahsulot tarkibini diversifikatsiyalash</p> <p>5. Eksport hajmini oshirish</p> <p>6. Korxonada moliyasini boshqarishni takomillash tirish</p> <p>7. Aktivlar va bo'sh pul mablag'larni boshqarishning samarali siyosatini shakllantirish</p> <p>8. Ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlash</p>	<p>oshirish</p> <p>2. Mulk va korporativ boshqaruvga ta'sir ko'rsatish yo'li bilan restrukturizatsiyalash</p> <p>3. Nizom jamg'armasini restrukturizatsiyalash</p> <p>4. Kreditorlik qarzlarni restrukturizatsiyalash</p> <p>5. Korxonada faoliyatining ichki tuzilishini restrukturizatsiyalash</p> <p>6. Ishlab chiqarish tarkibini restrukturizatsiyalash</p>	<p>chiqarishni diversifikatsiyalash" modeli</p> <p>4. "Tayanch kompetensiyalar" modeli</p> <p>5. "Autsorsing" modeli</p>
---	--	--

Sanoat korxonalarini rekonstruktivatsiyalashning ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini

<i>Iqtisodiy jihatlar</i>	<i>Ijtimoiy jihatlar</i>
<p>. Korxonaning boshqaruv tizimi takomillashadi.</p> <p>. Ishlab chiqarish tarkibi diversifikatsiyalashadi.</p> <p>. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko'payadi.</p> <p>. Ishlab chiqarishning texnik va texnologik jihozlanishi yaxshilanadi.</p> <p>. Mahsulot tannarxi pasayadi.</p> <p>. Eksport hajmi oshadi.</p> <p>. Aktivlar va pul mablag'larini boshqarish tizimi takomillashadi.</p>	<p>1. Korxonada ishlovchilarning oylik ish haqlarini oshirish imkoniyati yuzaga keladi.</p> <p>2. Korxonada ishlovchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi oshadi.</p> <p>3. Yo'lovchilarni ijtimoiy himoyalash imkoniyatlari ko'payadi.</p> <p>4. Korxonada ijobiy ijtimoiy muhit shakllanadi.</p> <p>5. Ishlab chiqarish natijalari va ishlovchilar daromadlari o'rtasida bevosita aloqadorlik ta'minlanadi.</p> <p>6. Korxonada xodimlarining ertangi kunga ishonchlari ortadi.</p>

<ul style="list-style-type: none"> . Zamonaviy boshqaruv turlari joriy etiladi. . Mahsulotning ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligi oshadi. . Korxonaning rentabellik darajasi o'sadi va foyda miqdori ko'payadi. 	
--	--

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, restrukturizatsiyalash jarayonida qo'llaniladigan davlat ta'sir vositalari zamonaviy va eng yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq. Davlat sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalash uchun qulay mikroiqtisodiy shart-sharoitlarni barpo etishi, tegishli institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishi, maqsadga muvofiq dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish asosida samarasiz korxonalarni tugatish va restrukturizatsiya qilish bilan bog'liq jarayonlarning ijtimoiy oqibatlarini yumshatishga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Shunday qilib, yuqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashtirish natijasida shunday xulosa chiqarish mumkinki, sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalash natijasida ikki xil samaradorlikka erishiladi: iqtisodiy va ijtimoiy (1-chizma).

3.2. Sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalash muammolari

Jahon xo'jalik tizimida globallashtirish jarayonlarining chuqurlashishi va buning natijasida raqobat kurashining keskinlashib borishi sharoitida sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalash nafaqat ularning raqobatbardoshligini oshirish, balki hayotiylikini ta'minlovchi obyektiv zaruriyatga aylanmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi o'n yillikda jahonning biror bir yetakchi korporatsiyasi tavakkalchilikka asoslangan tub restrukturizatsiya jarayonlarini chetlab o'tgan emas. Restrukturizatsiya jarayonlarini sust olib borgan yoki korxonada jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirmagan jahonning eng yetakchi 500 korporatsiyasining har to'rtasidan biri o'z faoliyatini to'xtatganligi ham restrukturizatsiyalash jarayonining muhim ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Bizning fikrimizcha, sanoat korxonalarini restrukturalizatsiyalashning obyektiv zaruriyat ekanligi quyidagi shart-sharoitlar bilan izohlanadi:

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalari o'z faoliyatlarini doimo to'g'ridan to'g'ri bozor konyunkturasi o'zgarishlariga mo'ljallab tashkil qiladilar. Bozor konyunkturasi esa, xoh u xalqaro miqyosda bo'lsin, xoh milliy davlat doirasyda, uzluksiz o'zgarib turadi. Bu korxonaning ishlab chiqarish va tovar tarkibini qisqa davr ichida restrukturalizatsiya qilishni taqozo etadi;

- hozirgi globallashtirish sharoitida investitsion tovarlar tez ma'naviy eskirish xususiyatiga ega bo'lib, ilg'or texnologiyalar almashinuvining operativ tus olib borishi bu jarayonni yanada jadallashtiradi, ma'naviy eskirish moddiy eskirish sur'atlarini "quvib o'tadi". Mazkur hodisa bugungi kunda tendensiya xarakteriga ega bo'lmoqda. Demak, sanoat korxonasini restrukturalizatsiyalashga bo'lgan ehtiyoj ham doimiy mohiyat kasb etadi;

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida talabning tabaqalashuvi (differentsiatsiyasi) va iste'molning individuallashtirish darajasi kuchaydi. Bunday sharoitda iste'molchilarning did va talablariga muvofiq tovar va xizmatlar taklif etish, bir tomondan, chuqur marketing tadbirlarini amalga oshirishni, ikkinchi tomondan, korxonaning texnik va texnologik uskunalarini yangilab turishni, boshqaruvning ilg'or usullarini ishlab chiqarishga keng joriy etishni taqozo etadi;

- iqtisodiyot rivojlanishining yangi bosqichida iste'molchilar miqdoriy ko'rsatkichlarga nisbatan mahsulot, xizmat, yangilik bilan tavsiflanuvchi sifat ko'rsatkichlarini afzal bila boshladilar. Bunday sharoitda bozor muhitiga tez moslasha oladigan sanoat korxonalari iste'molchilar ehtiyojlariga mos tovarlarni ko'plab ishlab chiqarishlari va shunga muvofiq ravishda o'z faoliyatlarini samarali tashkil etishlari mumkin.

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlari amalga oshirilayotgan mamlakatlarda, xususan, O'zbekistonda sanoat korxonalarini restrukturalizatsiyalash yanada dolzarb ahamiyatga ega. Bu esa quyidagi shart-sharoitlar bilan izohlanadi:

1. Milliy iqtisodiyot transformatsiyasini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda bozor munosabatlarini rivojlantirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish muammolari mavjud bo'lib, bu muammolarni hal qilish korxonalarini, eng avvalo, sanoat korxonalarini restrukturalizatsiyalash jarayoniga chambarchas bog'liq.

2. Mazkur mamlakatlarning aksariyatida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari davom etmoqda. Korxonalarda mulkiy munosabatlar yetarli darajada takomillashmagan. Bu o'z navbatida, korxopalarni boshqarish tizimida, strategik rejalar tizimida, investitsiya faoliyatini jadallashtirishda muammolarni keltirib chiqarmoqda, ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanishga aks ta'sir ko'rsatmoqda.

3. Bu guruh mamlakatlarida sanoat korxonalarining texnik-texnologik jihozlanish darajasi past, asosiy vositalarning jismoniy va ma'naviy eskirishi yuqori darajada bo'lib, bu sifatlil, foyda me'yori yuqori mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini bermaydi.

4. Bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar jahon xo'jaligiga yetarli darajada integratsiyalashmagan bo'lib, eksportbop, tashqi bozorda raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashmagan, mazkur mamlakatlar eksportining tovar tarkibi va geografiyasi takomillashmagan.

5. Aksariyat bozor munosabatlari rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarishning xomashyo qazib olish (neft-gaz, ko'mir va h.k.) va birlamchi qayta ishlash (paxta tolasi, metall-prokat) sohalari rivojlangan. Tayyor iste'mol mahsulotlari va investitsion tovarlar ishlab chiqarish darajasi past hisoblanadi.

Demak, bozor transformatsiyasini amalga oshirayotgan mamlakatlarda sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish globallasuv sharoitida yashovchanlikni saqlab qolishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. AQSh ipotekali kreditlash tizimidan boshlanib, keyinchalik butun jahonni qamrab olgan moliyaviy inqiroz esa sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalashni bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biriga aylantirdi. Gap shundaki, sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalashda uning ichki va tashqi omillari alohida o'ringa ega.

Agar korxonani restrukturizatsiyalashning ichki omillariga korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holati, boshqaruv tuzilmasi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turlari va tarkibi, infratuzilmasi va boshqalar kirsas, tashqi omillar korxonaga faoliyatining ichki va tashqi bozor muhitidan iborat bo'ladi.

Ichki bozor muhiti korxonaga faoliyat yuritayotgan mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy holat, umumiy iqtisodiy vaziyat, huquqiy asos, tayyorlov va mahsulot sotish shart-sharoitlari, korxonaga tomonidan ishlab

chiqarilayotgan mahsulotga bo'lgan ichki talab va boshqalarni o'zida aks ettiradi.

Tashqi bozor muhiti esa jahon bozorida konyunkturaviy o'zgarishlar, korxonalar tomonidan sotib olinadigan xomashyo va ishlab chiqariladigan mahsulotlarga bo'lgan jahon narxlarining o'zgarishi, mahsulotning raqobatbardoshlik darajasi kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Agar tashqi bozorda sanoat korxonasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlar narxlari o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa, bu holat sanoat korxonasini restrukturizatsiyalash uchun qulay shart-sharoitni yuzaga keltiradi, chunki sanoat korxonasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yuqori narxlarda sotilishi ularning moliyaviy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa korxonani restrukturizatsiyalash uchun qo'shimcha mablag'lar ajratish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda metallurgiya, shu jumladan, rangli metallurgiya sanoatidagi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Bu inqirozning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u global xarakterga ega bo'lib, jahonning barcha mamlakatlarini, shu jumladan, jahon rangli metallurgiya sanoatida salmoqli o'ringa ega bo'lgan Xitoyni ham qamrab oldi. Bugungi kunda jahon rangli metallurgiya mahsulotlarining 40 foizga yaqinini ishlab chiqarayotgan Xitoyda yuz berayotgan har qanday o'zgarishlar, albatta, jahon rangli metallurgiya sanoati va metall mahsulotlari bozoriga u yoki bu yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi. Hozirga vaqtda Xitoy uzoq yillar davomidagi o'sishdan so'ng birinchi marta jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmokdiki, bu global metallurgiya inqiroziga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Tarmoqda kechayotgan inqirozning yana bir o'ziga xos xususiyati uning ko'lami bilan bog'liq. Xususan, 2007-yilga qadar ikkilamchi rangli metallarni qayta ishlash korxonalarini restrukturizatsiyalash uchun tashqi bozor muhiti nihoyatda qulay bo'ldi. Bu, eng avvalo, jahon bozorida rangli metallarga bo'lgan narxlarning muttasil o'sib borganligi bilan bog'liq.

Rangli metallar iste'molchisi bo'lgan tarmoqlar – elektrotexnika, axborot texnologiyalari, mashinasozlik, asbobsozlik, samolyotsozlik va kosmonavtika kabi ilg'or qayta ishlash sanoati sohalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi natijasida rangli metallarga bo'lgan talabning oshishi

ularga bo'lgan narxlarning o'sishida o'z aksini topdi. Agar XX asrning boshida hammasi bo'lib 2 mln. tonna rangli metall ishlab chiqarilgan bo'lsa, asrning oxirida bu ko'rsatkich 56 mln. tonnaga yetdi.

Rangli metallarga bo'lgan narxlarning o'sishi, ayniqsa, 2002-yildan boshlab jadal sur'atlarda kechdi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2002–2007- yillar davomida 1 tonna aluminiyning narxi 1350 dollardan 2638 dollargacha (qariyb 2 marta), misning narxi 1559 dollardan 6646 dollargacha (4,3 marta), nikelning narxi 6775 dollardan 37230 dollargacha (5,5 marta), qo'rg'oshinning narxi 452 dollardan 2430 dollargacha (5,4 marta), ruxning narxi 779 dollardan 3243 dollargacha (4,2 marta) o'sdi.

2-jadval

London Metall birjasida rangli metallarga bo'lgan narxlarning o'zgarishi, tonna/dollar⁶

	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009 (yanv.- fev.)
Aluminiy	1444	1350	1431	1715	1898	2569	2638	2573	1372
Mis	1578	1559	1779	2865	3679	6743	6646	6956	3268
Nikel	5948	6775	9633	13827	14744	24265	37230	21111	10858
Qo'rg'oshin	476	452	515	887	976	1293	2430	2090	1117
Rux	886	779	827	1048	1382	3283	3243	1874	1150

Bu esa ikkilamchi rangli metallarni qayta ishlash korxonalarini restrukturizatsiyalash uchun qulay shart-sharoitni yuzaga keltirdi. Ammo 2008- yilning oxirgi choragidan jahon moliyaviy inqirozining boshlanishi natijasida rangli metallarga bo'lgan narxlar keskin pasaya boshladi. Xususan, 2009-yilning yanvar va fevral oylaridagi o'rtacha narxni 2007-yil ma'lumotlari bilan solishtirish natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu davr oralig'ida 1 tonna aluminiyning narxi qariyb 2 barobarga, misning narxi 2 barobardan ziyodroqqa, nikelning narxi 3 barobardan ko'proqqa, qo'rg'oshinning narxi 2 barobardan ko'proqqa, ruxning narxi qariyb 3 barobarga pasaydi.

Ko'rinib turibdiki, jahon moliyaviy inqirozi ikkilamchi rangli metallarni qayta ishlash korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birga ularni restrukturizatsiyalash imkoniyatlarini keskin cheklab qo'ydi. Shu munosabat bilan, sanoat

⁶ Manba: World Metal Statistics, 2009.

korxonalari faoliyatining tashqi bozor muhitidagi o'zgarishlarni doimiy tarzda kuzatib borish taqozo etiladi. Shu o'rinda 2010-yilda jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi tendensiyalar to'g'risida xalqaro ekspertlarning ba'zi umumiy xulosalari to'g'risida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Ko'plab xalqaro ekspertlar fikricha, 2010-yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining jahon mamlakatlari iqtisodiyotiga salbiy ta'siri pasayib boradi. Ayni vaqtda xalqaro bozorning rivojlanishidagi beqarorlik, ko'plab mamlakatlarda tovarlarga ichki talabning pasayishda davom etayotgani iqtisodiyotning real sektori rivojlanishiga mustahkam asos yaratish imkonini bermayapti.

Bank tizimida ipoteka va iste'mol kreditlari bo'yicha qaytarilgan kreditlar hajmining o'sishi oqibatida bankrotlikning yangi to'lqini vujudga kelish xavfi saqlanib qolmoqda. Fond, xomashyo va moliya bozorlarida katta spekulyativ o'yinlar davom etayotgani, real qiymatga ega bo'lmagan pul hajmining ko'payishi, boshqacha qilib aytganda, yangi moliyaviy "ko'piklar" xavfining avj olayotgani yana moliyaviy inqirozlarga olib kelish xavfini tug'dirmoqda.

Shu munosabat bilan yuqoridagi tendensiyalarni hisobga olgan holda sanoat korxonalarining restrukturizatsiyalash taktikasi va strategiyasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish lozim bo'ladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalash taktikasi va strategiyasini tanlash uchun bu inqiroz korxonalar faoliyatiga qanday yo'nalishda ta'sir ko'rsatishini aniqlab olish lozim bo'ladi.

Bugungi kunda global inqirozning O'zbekiston ikkilamchi rangli metallarni qayta ishlash sanoati rivojlanishiga ta'siri turli yo'nalishda bo'lib, u ishlab chiqarishning pasayishi, ishchi xodimlarning qisqarishi va investitsiya imkoniyatlarining torayishi shaklida namoyon bo'lmoqda. Xususan, 2008-yilda asosiy turdagi rangli metallarning bir nshta guruhini tayyorlashda pasayish holatlari kuzatildi. Shu munosabat bilan mazkur inqirozning davomiylik muddatini aniqlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning yaqin kelajakda jahon metallurgiyasida, shu jumladan, O'zbekiston ikkilamchi rangli metallarni qayta ishlash sanoatida qanday rivojlanishini oldindan bilish nihoyatda murakkab va u qator omillarga bog'liq.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston ikkilamchi rangli metallarni qayta ishlash sanoatini barqaror rivojlashirish uchun bugungi kunda tashqi omillar muhim rol o'ynaydi. Bunday omillar jumlasiga jahon

iqtisodiyotining jonlanishi, uning asosiy moliyaviy institutlarining samarali qayta tashkil etilishi, rangli metallar bozorida narx konyunkturasi yaxshilanishi kabilarni kiritish mumkin.

Jahon bozorida narxlarning o'sishi yuz bermasdan va eksport hajmini muttasil oshirmasdan, ikkilamchi rangli metallarni qayta ishlash sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirish, ushbu korxonalarda chuqur restrukturizatsiya jarayonlarini amalga oshirish ancha mushkul. Bugungi kunda shakllangan obyektiv reallik shundan iboratki, O'zbekiston ikkilamchi rangli metallarni qayta ishlash korxonalarining bundan keyingi rivoji eksport hajmi va ko'lamiga chambarchas bog'liq. Shuni ham qayd etish lozimki, aynan tashqi bozor tufayli mustaqillik yillarida ushbu korxonada turgunlik holatiga barham berishga va salmoqli modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirishga erishildi. Hozirgi inqiroz bu ijobiy tendensiyaga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

3.3. Iqtisodiyotning barqarorligi va jadal taraqqiy etishida iqtisodiyotga sarflanadigan investitsiyalarning o'rni

Sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalashda investitsiyalarning o'sish sur'atlari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki investitsiya sur'atlarining o'sishi natijasida ishlab chiqarishning texnik va texnologik ta'minoti yaxshilanadi, yangi ishlab chiqarish turlari o'zlashtiriladi, iqtisodiy o'sish sur'atlari faollashadi.

Sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalashga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan yana biri davlat tomonidan olib borilayotgan tashqi iqtisodiy siyosat hisoblanadi. Jahon xo'jaligida ro'y berayotgan globalashuv jarayonlari korxonalarining faol tashqi iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishlarini taqozo etib, ayni vaqtda tashqi iqtisodiy faoliyat, ayniqsa, eksport salohiyatini muttasil oshirib borish korxonalar samarali faoliyat yuritishining asosiy sharti hisoblanadi.

Restrukturizatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun unga mantiqiy jihatdan o'zaro bog'liq chora-tadbirlarning yaxlit tizimi sifatida qarash lozim. Bu esa restrukturizatsiyalash dasturini ishlab chiqishni va uni izchillik bilan amalga oshirishni taqozo etadi. Restrukturizatsiyalash dasturi – bu ushbu jarayonni amalga oshirish algoritmi hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, restrukturizatsiya dasturi uning har bir yo'nalishi bo'yicha hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarni o'zida aks ettiruvchi quyi dasturlardan iborat bo'li-

shi maqsadga muvofiq. Har bir quyi dasturda restrukturizatsiyalashning muayyan yo'nalish bo'yicha ko'zda tutilgan maqsadga erishish usullari, uni amalga oshirish muddati va samarasi, har bir chora-tadbirni bajarish uchun zarur mablag' manbalari va uni amalga oshiruvchi mas'ul shaxslar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Odatda, restrukturizatsiya dasturini amalga oshirish uch bosqichdan iborat bo'ladi: korxonani restrukturizatsiyalash salohiyatini aniqlashga yo'naltirilgan diagnostik tadqiqot, restrukturizatsiyalashning strategik rejasini ishlab chiqish, strategik rejani amalga oshirish va restrukturizatsiya dasturi samaradorligini aniqlash. Bu uchta bosqich bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ulardan har birining muvaffaqiyatli hal etilishi dasturni samarali amalga oshirishning muhim omili hisoblanadi. Restrukturizatsiya korxonani diagnostik tadqiq etishdan boshlanib, u korxonaning ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, boshqaruv, moliya va boshqa faoliyat turlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Sanoat korxonalarini diagnostik tadqiq etishning birinchi bosqichida korxonaning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Bunda asosiy e'tibor korxonaning yalpi mahsuloti dinamikasi, unga ta'sir etuvchi omillar, yalpi mahsulot tarkibi, korxopada ishlab chiqariladigan asosiy tur mahsulotlar va ularning tannarxi dinamikasi, ushbu mahsulotlar narxlarining shakllanish xususiyatlari, mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda sotish, korxonaga mahsulotining raqobatbardoshlik masalalariga qaratiladi.

So'ngra ushbu tahlilning uzviy davomi sifatida korxonaning moliyaviy holati tahlil qilinadi. Korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilishda maxsus koeffitsientlardan foydalaniladi. Bu koeffitsientlarning umumiy soni, ayrim mutaxassislar fikricha, 50 tagachani¹⁹, boshqa mutaxassislar fikricha 80 tadan ortiqni²⁰ tashkil etib, ular qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda qo'llaniladi.

1. Likvidlik va to'lovga qobiliyatlilik koeffitsientlari.
2. Joriy aktivlar tarkibi koeffitsientlari
3. Moliyaviy barqarorlik koeffitsientlari
4. Ish faolligi koeffitsienti
5. Rentabellik koeffitsientlari.

Korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilishda likvidlik va to'lovga qobiliyatlilik koeffitsientlaridan keng foydalaniladi.

Joriy qarzlarni qoplash koeffitsienti joriy aktivlarni qisqa muddatli majburiyatlar summasiga bo'lish yordamida aniqlanadi. Bu ko'r-

satkich korxonaning qisqa muddatli qarzlarni qoplash imkoniyatiga baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko'rsatkichning tavsifa qilinadigan qiymati 1,0–3,0 ga teng, boshqacha qilib aytganda, korxonada joriy aktivlarning qiymati qisqa muddatli qarzlarning qiymatidan 1–3 marta yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq. Aynan shunday holat korxonaning barqaror faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat yaratadi.

Korxonalarni texnik qayta qurollantirish - alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash-tirish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunalarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha choratadbirlar majmuasi. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" deb nomlangan, jahonning yetakchi iqtisodchilari tomonidan e'tirof etilgan kitobida bayon qilingan 2009–2012-yillar uchun mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini chuqur tadrijiy islohotlar siyosatining mantiqiy davomi sifatida tavsiflash mumkin. O'zbekistonning Inqirozga qarshi choralar dasturining ustuvor yo'nalishlari budjet, moliya-bank va kredit tizimlarini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, ichki va tashqi bozorlarda mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilashdan iborat. Mazkur tadbirlarning amalga oshirilishi keyingi ikki yil ichida tijorat banklari umumiy kapitalini ikki barobar oshirishga imkon berdi, ularning yetarlilik darajasi Bazel qo'mitasi talablari asosida belgilangan xalqaro standartlardan taxminan uch marotaba ko'pdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Korxonalarni restrukturizatsiyalashning ilmiy-uslubiy asoslari nimalardan iborat?*
2. *Sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalash muammolarini sanab o'ling.*
3. *Iqtisodiyotning barqarorligi deganda nimani tushunasiz?*

4. *Iqtisodiyotning jadal taraqqiy etishida iqtisodiyotga sarflandigan investitsiyalarning o'ni nimalarda o'z aksini topadi?*
5. *Likvidlik va to'lovga qobiliyatlik koeffitsientlari nimalarni anglatadi?*
6. *Joriy aktivlar deganda nima tushuniladi?*
7. *Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti deb nimaga aytiladi?*
8. *Ish faolligi koeffitsientiga ta'rif bering.*
9. *Rentabellik koeffitsientini ta'riflang.*

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Muayyan korxonaning rentabellik darajasini aniqlang.
2. O'zbekiston sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalashdagi muammolarni tahlil qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. //I.A.Karimov. –T.: O'zbekiston, 2010. 80-b.*
2. *Karimov I.A.«Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari», –T.: "O'zbekiston", 2009.*
3. *O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot, O'z.R FA Iqtisodiyot instituti, – Toshkent, 2006.*
4. *Баев И.А., Кожин С.В. Новый подход к реструктуризации компании. //Финанси. 2001.-№12. –С.11-16.*
5. *Гинзбург А.И. Экономический анализ. –СПб: Питер, 2007. – С.208.*
6. *Конкурентоспособность и модернизация экономики: В 2-х кн. /Отв.ред. Е.Г.Ясин. Кн.1. –М.: Издательский дом ГУ ВШЭ, 2004, –С. 456.*
7. *Нуреев Р. Модернизация экономики: концепции и средства. –М., 2005.*
8. *<http://www.soob.ru/n/2005/10/c/6>.*

4-BOB. O'RGANILAYOTGAN MINTAQA MAMLAKATLARIDA IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONI

Darsning maqsadi: o'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida iqtisodiy islohotlar jarayonlarining asosiy maqsad va yonalishlarini o'rganib chiqish.

Kalit so'zlar: *iqtisodiy islohotlar, yangi iqtisodiy tizim, huquqiy negizlar, davlatchilikni shakllantirish va mustahkamlash, eskicha fikrlash tarzi, bozor iqtisodiyoti, ko'p ukladli iqtisodiyot, iqtisodiy erkinliklar, ma'muriy-buyruqbozlik.*

4.1. Iqtisodiy islohotlar mazmuni va asosiy yo'nalishlari

O'tish davrining birinchi bosqichi isloh qilish jarayonining qiyinchiliklarini, ayni vaqtda, tabiiy iqtisodiy munosabatlarni tiklashga yondashishlar bir xil andazada va odatiy emasligini ko'rsatdi.

Birinchi bosqich butunlay yangi iqtisodiy tizimning huquqiy negizlarini yaratishga, davlatchilikni shakllantirish va mustahkamlashga, eskicha fikrlash tarzlarini ongimizdan chiqarib tashlashga qaratilgan edi. Bu bosqichda yangi tuzum uchun ishonchli poydevor yaratish vazifasi qo'yildi va hal qilindi.

Barcha rivojlanayotgan mamlakatlar o'z iqtisodiyotida islohotlar olib borar ekan, ular oldida turgan asosiy maqsad – bu mamlakatda istiqomat qilayotgan aholining yashash darajasini ko'tarish, ular farovonligini oshirishdan iborat bo'ldi.

Butun isloh qilish jarayonining boshlang'ich nuqtasi strategiyani tanlab olishdan iboratdir. Bu – g'oyat mas'uliyatli va murakkab jihat. Umumiy strategiyaga ega bo'lmay, pirovard maqsadni ko'rmay turib, iqtisodiy isloh qilishning ta'sirchan chora-tadbirlarini belgilab bo'lmaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olish hozirgi isloh qilish strategiyasining boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Bunda biz markazlashtirilgan, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish – eski xo'jalik yuritish mexanizmini shunchaki yangilash yoki takomillashtirish emas, balki bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tish ekanligini aytib o'tish joizdir. Bu bir iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalarining boshqa iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalari bilan almashinuvidir.

Masalan, O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligiga erishish, milliy davlatchiligimizni barpo etish, buning uchun mustahkam moddiy negiz yaratish manfaatlarini ko'zlab quyidagilar iqtisodiyotni isloh qilish sohasida strategik maqsadlar qilib belgilandi.

1. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, qudratli va tinimsiz rivojlanib boradigan, milliy boylikning ortishini, kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish.

2. Ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, insonning mulkdan mahrum bo'lishiga barham berish, tashabbuskorlik va uddaburonlikni butun choralar bilan rivojlantirish negizi bo'lgan xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash.

3. Korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini bartaraf etish, iqtisodiy omillar va rag'batlantirish vositalaridan keng foydalanish.

4. Iqtisodiyotda moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan chuqur strukturaviy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish.

5. Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini berish.

Bunda islohotlar inson manfaatlariga mos kelgan, uning talab va ehtiyojlarini qondirishga yordam bergan, turmush darajasini oshirishga qaratilgan taqdirdagina ahamiyatli bo'lishini hamisha yodda tutmog'imiz lozim.

4.2. Iqtisodiy islohotlarning maqsad va vazifalari

Strategik maqsadlarga izchillik bilan erishib borish isloh qilishning birinchi bosqichidagi asosiy ustuvor yo'nalishlarni aniq ajratib olish zaruratini keltirib chiqardi. Bunda g'oyat keskin muammolarni yaqin fursatlarda hal etishga yordam beradigan asosiy bo'g'inlarni topish muhim edi.

Iqtisodiy islohotni amalga oshirishning asosiy nuqtalaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iboratdir. Avval

boshdanoq biz o'zimiz uchun muhim saboq chiqarib oldik – zarur huquqiy omilni shakllantirmasdan turib, tegishli qonunlar va me'yoriy hujjatlarni qabul qilmasdan turib, islohotlarni amalga oshirishning ishonchli kafolatini, islohotlar ortga chekinmasligining kafolatini amalda yaratib bo'lmaydi.

Mustahkam huquqiy negiz bo'lgandagina o'zini oqlamagan eski tizimni to'la ishonch bilan qayta qurish, madaniy bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan yangi jamiyat qurish mumkin. Hozirgi mutlaqo yangi siyosiy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlarni aks ettiruvchi yangi qonunlar majmuigina biz barpo etayotgan yosh ijtimoiy binoga barqarorlik, demokratik xarakter baxsh etuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Respublikaning barcha aholisi manfaatlarini ta'minlashga, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar mavjud bo'lgandagina tub o'zgarishlarning kuchli ijtimoiy asoslari yaratiladi. O'zbekistonning yorqin kelajagiga ishonch uyg'otiladi.

Shu sababli birinchi bosqichda islohotlarning o'z huquqiy negizini yaratishga asosiy e'tibor qaratib kelindi.

Yangi qonunlar turkumini ishlab chiqish va qabul qilish bir qancha sabablar tufayli zarur bo'lib qoldi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligidagi islohot iqtisodiy o'zgarishlarning eng muhim bo'g'ini deb belgilandi.

Dehqonchilik sektorini rivojlantirish muammolari, masalan, O'zbekistonning bozorga o'tish strategiyasida hal qiluvchi muammolardandir. Shu sababli qishloq xo'jaligi doimo amalga oshiriladigan iqtisodiy islohotlar markazida turadi. Zero bu butun iqtisodiyotimizning asosidir. Barcha iqtisodiy o'zgarishlarning oqibati tub o'zgarishlar jarayoni dehqonchilik sektoriga qanchalik chuqur ta'sir etishiga, qishloqda islohotlar qanchalik uzoqqa borishiga ko'p jihatdan bog'liq ekanligini qayta-qayta ko'rsatib o'tgan edik.

Birinchi bosqichda qishloq xo'jaligini isloh qilish sohasidagi asosiy vazifalar:

- qishloqda xo'jalik yuritishning yangi shakllarini keng ko'lamda rivojlantirish, dehqonlar o'zlarini ishlanayotgan yerning, yetishtirilayotgan mahsulotning to'la huquqli xo'jayinlari deb aniq his qilishlariga imkon beradigan iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish;
- paxtadan va boshqa ekinlardan bo'shatib olinayotgan yer maydonlarini fermer (dehqon) xo'jaliklari tashkil etishga berish,

- shaxsiy tomorqa yerlarini kengaytirish, qishloq mehnatkashlariga yer maydonlarini meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanishga berib qo'yish yo'lini izchil olib borish;
- agrosanoat kompleksida ekin maydonlarining oqilona strukturasini yaratishga, paxta ekiladigan maydonlar salmog'ini kamaytirishga, oziq-ovqat ekinlari, eng avvalo, don yetishtirishni ko'paytirib borishga qaratilgan chuqur ijobiy siljishlarni amalga oshirish;
 - qayta ishlovchi korxonalarni qishloq xo'jalik xomashyosi yetishtiriladigan joyga mumkin qadar yaqinroq qurish, qishloqda icham sanoat korxonalari va sexlar bunyod etish, mehnatning kasanachilik shakllarini, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga xizmat ko'rsatadigan firmalar tarmog'ini keng rivojlantirish;
 - qishloqda ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasi tarmoqlarini faol shakllantirish, qishloq aholi punktlarini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlashdan iborat bo'ldi.

Aholini oziq-ovqat bilan uzluksiz ta'minlash iqtisodiyotni barqarorlashtirishning muhim bo'giniga aylanib bormoqda. Bu respublika qishloq xo'jaligida olib borilayotgan siyosatning umumiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chinakam iqtisodiy mustaqillikka erishish respublikada oziq-ovqat muammosini tubdan hal qilishni talab etadi. Hozirgi vaqtda respublikaga tashqaridan olib kelinayotgan don, kartoshka, chorvachilik mahsulotlari, shuningdek, shakar va boshqa mahsulotlar bilan o'zini o'zi ta'minlash darajasini oshirish juda muhim vazifadir.

Respublikamizning eksport quvvatini butun choralar bilan rivojlantirish va undan samarali foydalanish iqtisodiyotni mustahkamlashning g'oyat muhim shartiga aylanib bormoqda. Uzoq yillar mobaynida respublika amalda tashqi dunyodan ajratib qo'yilgan edi. Birinchi bosqichning asosiy vazifasi jahon hamjamiyatida qat'iy o'ringa ega bo'lishdan, ishonchli sherik ekanligimizni ko'rsatishdan, g'oyat keng tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatishdan iborat bo'ldi. Buning uchun esa:

- tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradigan ixtisoslashgan tashkiliy tuzilmalarni vujudga keltirish, tegishli kadrlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish bo'yicha aniq maqsadni ko'zlovchi siyosatni o'tkazish, chet ellik sheriklar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqalar o'rnatishda korxonalar va fuqarolarga ko'proq erkinlik berish;

- tovarlarni eksport va import qilishning imtiyozli tartibini joriy etish, kvota belgilash va litsenziya olinishi kerak bo'lgan tovarlar ro'yxatini bosqichma-bosqich qisqartirib borish;
- eksport va import tarkibini takomillashtirish. An'anaviy mahsulot turlari (paxta va undan olingan mahsulotlar, rangli metallar, mineral o'g'itlar va boshqalar)ni eksport qilish bilan bir qatorda chet elga texnik jihatdan murakkab tayyor tovarlar va buyumlarni yetkazib berishni kengaytirish, turli xizmatlar – transport, sayyohlik, valyuta-kredit xizmatlari ko'rsatish;
- imtiyozlar tizimini vujudga keltirish, qo'shma korxonalar tashkil etish, chet ellik investorlar huquqlari va manfaatlarining himoya qilinishini ta'minlash vositasida korxonalarining eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish sohasidagi investitsiya faoliyatini rag'batlantirish;
- chet eldan olinayotgan kreditlarni, birinchi navbatda, aholini oziq-ovqat mahsulotlarining eng muhim turlari, dori-darmon bilan ta'minlashga sarflash, chet el investitsiyalarini xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlariga – konchilik, yoqilg'i-energetika sanoatiga, qishloq xo'jalik xomashyosini sanoat usulida qayta ishlashga, shuningdek, iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmagan sektorini rivojlantirishga jalb qilish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat infratuzilmasini – tashqi aloqalarimizni rivojlantirish manfaatlari va shartlariga mos keladigan ixtisoslashtirilgan tashqi savdo, lizing, konsalting va sug'urta firmalari, transport, aloqa hamda kommunikatsiya tizimlarini barpo etish, chet elda o'z vakolatxonalarimizni ochish talab etildi.

Butun iqtisodiy islohotlarimiz dasturining yuqorida ko'rsatib o'tilgan asosiy ustuvor yo'nalishlari bilan bir qatorda, islohotni amalga oshirishning hamma bosqichlarida dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha umumiy ustuvorliklarni ham aniq ko'rsatib o'tish kerak. Ular jamiyatni yangilash jarayonining beistisno hamma yo'nalishlarini qamrab oladi.

Umumiy ustuvorliklar islohot bosqichlarining izchilligini, uning uzluksiz kechishini ta'minlaydi. Ko'zlangan o'zgarishlar muqarrar bo'lishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Islohotlar strategiyasini ro'yobga chiqarishda biz uchun umumiy ustuvorlik, eng avvalo, aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Ana shu chora-tadbirlar orasida quyidagilar alohida ahamiyatga ega:

- respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning, fuqarolar orasida tinchlik va millatlararo totuvlikning ishonchli kafolatlarini ta'minlash;
- ijtimoiy adolat qoidalarini yanada mustahkamlash, aholining eng muhtoj bo'lgan qatlamlari – keksalar, nogironlar, yetimlar, ko'p bolali oilalar va o'quvchi yoshlarni ijtimoiy himoyalashning kuchli vositasini yaratish;
- ijtimoiy yordamni unga muhtoj bo'lgan shaxslarga berish, bunday yordamning aniq maqsadga yo'naltirilganligini kuchaytirish, nafaqalar va boshqa to'lovlar tizimini aholining real daromadlari bilan bog'lagan holda uyg'unlashtirish hisobiga ijtimoiy yordamning ta'sirchanligini oshirish;
- aholining eng muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyalash muammolarini hal qilishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahalla qo'mitalari rolini oshirish, kam ta'minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi maxsus jamg'armalar faoliyatini kuchaytirish uchun sharoit yaratish;
- mehnat bozorini tartibga solish hamda ish bilan ta'minlash sohasida faol siyosat yuritish, respublikaning ish kuchi ortiqcha bo'lgan tumanlarida kichik va o'rta korxonalarni ustun darajada rivojlantirish hisobidan yangi ish joylarini yaratishni rag'batlantirish.

Yana boshqa umumiy ustuvorliklar ta'lim va madaniyatni rivojlantirish hamda isloh qilish, aqliy va ma'naviy salohiyatni mustahkamlashdan iboratdir.

4.3. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bosqichlari

Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarning bozor islohotlarini amalga oshirish dasturlari mazkur mamlakatlar uchun ustuvor bo'lgan vazifalarni bosqichma-bosqich hal qilishga asoslanadi.

Birinchi bosqich – totalitar o'tmishdan hozirgi, zamonaviy bozor munosabatlariga o'tishga qaratilgan chora-tadbirlar zanjiridagi boshlang'ich bo'g'indir. Mazkur davrning xususiyati ham, murakkabligi ham ana shunda.

Birinchi bosqichda ikkita hal qiluvchi vazifani birdaniga hal qilishga to'g'ri keldi. Bu vazifalar:

- ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;
- respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirishdan iborat.

Ushbu vazifalarni hal qilish uchun birinchi bosqichda iqtisodiyotni dastlabki isloh qilishning g'oyat muhim yo'nalishlarini belgilab bergan asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish talab qilindi.

Birinchidan, o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish. Davlat mustaqilligining va hozirgi iqtisodiy munosabatlarning huquqiy poydevori bo'lgan asosiy Qonun – O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasini qabul qilish bosh vazifa qilib qo'yildi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish, mahalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat korxonalarini, uy-joy fondini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, shuningdek, yengil sanoat, qurilish va transport sohasidagi ayrim korxonalarni aksiyadorlik asosida qayta qurish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyot negizlarini yaratish.

Xususiylashtirishni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, xususiylashtirishni himoya qilishning konstitutsiyaviy huquqlari va kafolatlarini ta'minlash. Davlat xo'jaliklarini jamoa xo'jaliklariga yoki mulkchilikning davlatga qarashli bo'lmagan boshqacha shakllariga aylantirish, fermer (dehqon) xo'jaliklarini, uncha katta bo'lmagan kooperativlarni, pudratchi va ijarachi oilaviy jamoalarni rivojlantirish hisobiga qishloqda ishlab chiqarishning chinakam shirkatchilik shakllarini qayta tiklash.

Uchinchidan, ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta'minlash iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarishning g'oyat muhim sharti bo'lmog'i kerak edi.

Iqtisodiyot barqaror amal qilib turgan taqdirdagina bozor munosabatlariga muvaffaqiyatli o'tish mumkin. Birinchi bosqichda vujudga kelayotgan vaziyat tanglikni bartaraf etish uchun, jadal, qattiq, ba'zan uncha odat bo'lmagan choralar ko'rishni, aholining turmush darajasi keskin yomonlashib ketishiga yo'l qo'ymaslikni talab qildi.

Birinchi bosqichda goyat muhim va birinchi darajali chora-tadbirlar hamda ustuvor yo'nalishlar sifatida quyidagilar ilgari surildi.

Moliya va soliq siyosati sohasida:

- qattiq moliyaviy siyosatni amalga oshirish, davlat budjeti defitsitini iloji boricha kamaytirish, budjetdan beriladigan dotatsiyalar va subsidiyalarning barcha turlarini bosqichma-bosqich qisqartirib borish;
- budjet mablag'lari daromad tushganidan keyingina taqsimlash-tiradigan yo'ldan og'ishmay borish, birinchi darajali, eng zarur umumdavlat ehtiyojlari uchungina budjetdan mablag ajratish;
- xalq xo'jaligi tarmoqlarini, ayrim korxonalarni rivojlantirish uchun budjetdan pul bilan qaytarmaydigan qilib ta'minlash amaliyotidan voz kechish. Ana shu maqsadlar uchun investitsiya kreditlaridan keng foydalanish;
- soliq tizimini takomillashtirish, budjet daromadlari barqaror suratda to'ldirib turilishini ta'minlaydigan, kichik va xususiy korxonalarining, chet el kapitali ishtirokidagi, qishloq xo'jalik mahsulotini qayta ishlaydigan va xalq iste'moli mollari ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalarining rivojlanishini rag'batlantiradigan pishiq-puxta soliq siyosatini olib borish.

Kredit-pul siyosati sohasida:

- Markaziy bank boshchiligida hamda keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklar ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish,
- respublika hududida yirik chet el banklarining bo'limlari va vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoitlar yaratish;
- barqaror pul muomalasini ta'minlash, kredit va naqd pul emis-siyasini, jami pul massasining asossiz o'sishini keskin cheklash;
- O'zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar hamda imko-niyatlarni yaratish.
- *Narx-navo bo'yicha va pulning qadrsizlanishiga qarshi siyosat sohasida:*
- narx belgilash tizimini yanada tartibga solish, bozorni tartibga solib turuvchi vosita sifatida narxning rolini mustahkamlash;
- narx-navoni erkin qo'yib yuborishning "esankiratadigan" me-xanizmi O'zbekiston uchun nomaqbul ekanligini qat'iyon e'ti-rof etgan holda, ulgurji va chakana narxlarni bosqichma bos-qich erkinlashtirish, erkin (kelishilgan) narxlarda sotiladigan tovarlar doirasini kengaytirish yo'lini izchil amalga oshirish;

- juda tor doiradagi hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlari, eng avvalo, un va nonning narxini davlat tomodidan boshqarib turish tartibini vaqtincha saqlab qolish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarining xarid narxlarini izchil suratda oshira borib, ularni jahon narxleri darajasiga yetkazish;
- monopoliyalarga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish, yuksak darajada monopollashgan tuzilmalarni ajratish hisobiga narx-navoning sun'iy ravishda oshirib yuborilishiga yo'l qo'y-maslik choralarini ko'rish, raqobatchilikni vujudga keltirish uchun sharoit yaratish.

Butun isloh qilish jarayonida amalga oshirilgan g'oyat muhim strategik ustuvor yo'nalish strukturaviy o'zgarishlarni amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Strategik ma'noda o'sishga erishish uchun ishlab chiqarish strukturasi o'zgartirish zarur. Shu sababli har bir bosqichda resurslar mavjudligiga qarab, eng avvalo, iqtisodiyotning ustun yo'nalishlarida strukturaviy o'zgarishlarni amalga oshirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilmog'i darkor.

Birinchi bosqichda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratildi:

- yoqilg'i-energetika kompleksining ildam sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash, neft va tabiiy gaz qazib chiqarish hamda ularni qayta ishlash hajmlarini oshirib borish, shuning hisobiga respublikaning energetika mustaqilligiga erishish;
- tovarlarni chetdan keltirish o'rniga ularni o'zimizda ishlab chiqaruvchi korxonalarni rivojlantirish asosida, boshqa mintaqalardan keltiriladigan xalq xo'jaligini va aholi turmushini ta'minlaydigan g'oyat muhim mahsulot turlariga respublikaning qaramligini kamaytirish choralarini ko'rish;
- qishloq xo'jalik xomashyosining eng muhim turlarini (paxta, ipak, meva-sabzavot va boshqa mahsulotlarni) yanada to'la qayta ishlash, yengil va mahalliy sanoatning tutash ishlab chiqarishlarini - to'qimachilik, ip yigirish, tikuvchilik va boshqa korxonalarni rivojlantirish;
- eng muhim iste'mol mollarini ishlab chiqaradigan tarmoqlarni jadal rivojlantirish, tayyorlanayotgan mahsulot xilini ko'paytirish, osh tuzi, spirt, gugurt va boshqa o'ta kamyob tovarlarni ishlab chiqaruvchi yangi korxonalarni bunyod etish.

Yuksak ma'lumotli, baquvvat, sog'lom, matonatli kishilargina yangilanish va taraqqiyot yo'lini bosib o'ta olgadi. Aynan shuning uchun ham ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda hukumat iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda uning mazmun-mohiyatini xalq

farovonligini oshirish bilan bevosita bog'laydilar va ushbu siyosatning to'g'riligini islohotlar natijalari ko'rsatmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Iqtisodiy islohotlarning mazmuni nimadan iborat?*
2. *Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo'lgan asosiy yonalishlar nimalardan iborat?*
3. *Iqtisodiy islohotlar qanday maqsadni ko'zlab amalga oshiriladi?*
4. *O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar oldidagi asosiy vazifalar nimalardan iborat?*
5. *XXR da amalga oshirilayotgan islohotlar qachon boshlandi?*
6. *O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish necha bosqichni o'z ichiga oladi?*

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. O'zbekiston va XXR dagi iqtisodiy islohotlar jarayonlarini o'xshash tomonlarini toping.
2. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bosqichidagi amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilib chiqing.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. /I.A.Karimov. – T.: O'zbekiston, 2010. 80-b.*
2. *Karimov I.A.«Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari», –T.: "O'zbekiston", 2009.*
3. *O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot, O'z.R FA Iqtisodiyot instituti. –Toshkent, 2006.*
4. *Баев И.А., Кожин С.В. Новий підхід к реструктуризації компанії. //Фінанси. 2001.-№12. –С.11-16.*
5. *Гинзбург А.И. Экономический анализ. –СПб: Питер, 2007. –С.208.*
6. *Конкурентоспособность и модернизация экономики: В 2-х кн. /Отв.ред. Е.Г.Ясин. Кн.1. –М.: Издательский дом ГУ ВШЭ, 2004, –С.456.*
7. *Мансуров О.Б. Бозор иqtисодиёти шароитида корпоратив бошқарув. –Т.: "Молия", 2008. –С.196.*
8. *http://www.soob.ru/n/2005/10/c/6.*

2-BO‘LIM. O‘RGANILAYOTGAN MINTAQA MAMLAKATLARIDA MODERNIZATSIYA VA DIVERSIFIKATSIYA JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI

5-BOB. YAPONIYA IQTISODIYOTIDA MODERNIZATSIYA VA DIVERSIFIKATSIYA MASALALARI

Darsning maqsadi: Yaponiya iqtisodiyotida modernizatsiya va diversifikatsiya masalalarining turli jihatlarini o‘rganib chiqish.

Kalit so‘zlar: *modernizatsiya, diversifikatsiya, xilma-xillik, ko‘p tarmoqli, majmua, assortiment, tovar, ilmiy-texnikaviy revolutsiya, daromad, iqtisodiyotni militarizatsiyalash, raqobatbardoshlik, texnik taraqqiyot (progress).*

5.1. Yaponiyada diversifikatsiya jarayoniga ta’sir etuvchi omillar

Yaponiyada iqtisodiyotni modernizatsiyalash avval sanoat korxonalaridan boshlanib, 1950-yillarni o‘z ichiga oladi. Keyinchalik esa, mazkur jarayon mamlakat iqtisodiyotining boshqa sohalariga ham chuqur kirib bordi. Yaponiyada ishlab chiqarish sanoatining 60%dan ziyodi mayda va o‘rta kompaniyalarning subpudrat munosabatlari domiga tortilgan. Ushbu amaliyotning o‘ziga xos tomoni uning uzoq muddatli aloqalarida bo‘lib, uning yagona tashkiliy tavsifini belgilab beradi. Bugungi kunda hech bir yirik sanoat kompaniyasi yagona yuridik shaxs sifatida chiqmaydi. Boshqa g‘arb mamlakatlarining “ikki qatlamli” (bozor–korxonalar) tuzilmalaridan farqli ravishda, yapon iqtisodiy tizimi uch pog‘ona (bozor–korxonalar guruhi–aynan korxonalar)dan iborat.

Ishlab chiqarish munosabatlaridan tashqari yetakchi kompaniyaning bo‘ysinuvchi kompaniyalar kapitalida ishtirok etishi, bosh kompaniyaning firmalar ma’muriyatiga o‘z vakillarini jo‘natishi, har turdagi xizmatlar ko‘rsatishi kabi boshqa munosabatlar ham guruh ruzilmasini mustahkamlab turadi. Ishlab chiqarish va boshqa aloqalarning jadalligiga bog‘liq ravishda har bir keyresu ko‘p pog‘onali, juda ham turli-tuman bo‘lishiga qaramay, ancha o‘zgaruvchan tuzilmaga ega va undagi bog‘lanishlar qat’iy ham, zaif ham bo‘lishi mumkin. Bog‘lanishlarning eng ko‘p tarqalgan shakli – vertikal bog‘liqlikdir. Yaponiya iqtisodiy modelining boshqa bir o‘ziga xos xususiyati moliya-sanoat guruhlari doirasida boshqarish tizimi hisoblanadi.

Yaponiyada urushdan keyin shakllangan "bosh banklar" tizimi kreditorlar bilan qarz oluvchilar o'rtasida loyihalanadigan moliyaviy bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlar nomutanosibligini yumshatishga xizmat qilgan. Yirik korxonalar ishtirokidagi ko'zlangan barcha moliyaviy bitimlarning mazmun va shartlari shahar banklari tomonidan nazorat qilingan. Aynan mana shunday, odatda, bilvosita moliyalashtirish tizimi sifatida tavsiflanadigan munosabatlar bir tarafdan mahalliy banklar, boshqa tomondan mayda va yirik korxonalar o'rtasida o'rnatilgan.

Yaponiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga jahon iqtisodiyotining globallashuvi ham alohida ta'sir ko'rsatdi. Xo'jalik faoliyati uchun davlat chegaralarining an'anaviy chekllovchilik rolining yo'qotilishi, yapon iqtisodiy institutlarining 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshlarida katta ahamiyat kasb etgan samaradorligining jadal yo'qotilishi uchun uning umumjahon masshtablarga ega bo'lishi muhim omil bo'ldi⁷.

Ishlab chiqarishning globallashuvi jarayonlariga bog'liq ravishda keyresu yirik kompaniyalari tarkibida yangi bo'g'inlarning yuzaga kelishi natijasida, ular ahamiyatli tashkiliy qayta qurish davrini boshidan kechirdi. Bu o'zgarishlar guruhning kompaniyalari o'rtasida erkin uyushgan firmalarining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlab bera oladigan, o'z xarakteriga ko'ra bozor munosabatlari uchun xos bo'lmagan, mumkin qadar optimal (maqbul) bo'lgan o'zaro munosabatlarining uyg'unligiga erishishni maqsad qilib qo'yadi. Keyresu shaklidagi vertikal ishlab chiqarish integratsiyasi, kapitalning chatishib ketishi moliyaviy-sanoat guruhlarini yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ular iqtisodiyotda yetakchilik rolini egalladilar.

Odatda, ular yirik banklar, universal savdo va sanoat kompaniyalari tomonidan boshqariladi. Keyresu konglomeratlari (monopolistik birlashmalari) ko'pincha boshqaruvda yetakchilik vazifasini bajaruvchi asosiy kompaniya atrofida guruhga birlashadi. Bunday kompaniya birlashgan savdo kompaniyasi yoki bank bo'lishi mumkin. Dastlab, keyresu bosh banklar atrofida va tarmoq belgisiga ko'ra ko'p sonli pudratchi korxonalarni qamrab olgan holda tashkil etilgan.

Ko'pchilik industrial mamlakatlar bilan solishtiradigan bo'lsak, Yaponiya ishlab chiqarish munosabatlari ixtiloflarning yo'qligi bilan tavsiflanadi. Bu holat ish tashlashlar foizining pastligi, firma ishchilari o'rtasida maqsadlarning muvofiq tarzda umumiylikida hamda kelishilgan munosabatlarda taqsimlanishida namoyon bo'ladi.

⁷ Cabinet Office, the Government of Japan // Monthly Economic Report, March -July 2008. www.cao.go.jp.

Yaponiyada diversifikatsiyalash jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Mamlakatdagi faoliyat ko'rsatayotgan firmalarning o'zi uchun yangi hisoblangan sohalar va tarmoqlarga kirib borishi;
2. Korxonalar yoki firmalarning ko'p tarmoqli majmualarga aylanib borishi;
3. Firmalar faoliyatida turli-tumanlik va xilma-xillik;
4. Ishlab chiqarilgan tovarlar assortimentini kengaytirish;
5. Firmalar, korxonalar faoliyatlaridagi o'zgarishlar.

Garchi ish haqini belgilashning yapon tizimi nazariy jihatdan markazlashtirilmagan bo'lsa-da, kuchli koordinatsiya elementlariga ega. Xalqaro mehnat tashkiloti davlatni – tadbirkorlar bilan ishchilar o'rtasidagi munosabatlarning bosh ishtirokchisi deb va u qonunlar hamda industrial siyosat olib borish orqali ta'minlanadi, deb hisoblaydi. Milliy koordinatsiyaning eng ahamiyatli shakli – shunto (shunto) – ish haqining miqdoriy natijasi yapon ishchilarining 25%ga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi har yili tashkil etiladigan muzokaralardir. Shuningdek, ushbu muzokaralar kichik va o'rta biznes korxonalarida ish haqini oshirish uchun yo'l-yo'riqlarni belgilab beradi.

Yaponiya iqtisodiy modelining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u madaniy an'analar, ya'ni korxonani kishilar jamoasi, o'ziga xos yagona "ishlab chiqaruvchilar oilasi" sifatida qabul qilishi asosida quriladi. Shunga bog'liq holda, ishchining korxonaga nisbatan munosabati ham ajralib turadi. Bunda u oddiy "yollanma ishchi" emas, balki "oila" a'zosi hisoblanadi, demak, uning javobgarligi va huquqlari asosiy mehnat majburiyatlari doirasidan ham tashqariga chiqadi. O'z navbatida, korporatsiyalar ham hayotining barcha jabhalarida ishchini qo'llab-quvvatlaydi: uy-joy sotib olishda yordam beradi, farzand tug'ilganda pul mablag'lari ajratadi, keyinroq ularni universitet va kollejlarda ta'lim olishiga ko'maklashadi, ishdan bo'shaganda va qarilik bo'yicha katta, korporativ nafaqalar tayinlaydi.

Ko'pincha yirik kompaniyalar ishlab chiqarish va taqsimot funksiyalari uyg'unlashib ketgan bir nechta guruhlardan iborat bo'ladi. Bunda savdo kompaniyalari bosh firma bilan chakana savdo do'konlari tarmog'i o'rtasida joylashadi. Odatda, ular sho'ba kompaniyalari hisoblanib, bosh kompaniya mahsulotlarini sotishni tashkillashtirish bilan shug'ullanadilar. Bosh firmalar do'konlarni savdo kompaniyalari orqali resurslar bilan ta'minlab turadilar va ularni bosh kompaniya mahsulotlari narxini ushlab turganliklari uchun rag'batlantiradilar. Shuningdek, keyresu AQSh dagi vertikal integratsiyalashgan kompa-

niyalardan farqli ravishda, qat'iy bog'lab qo'yilgan tashkilot emas, balki qat'iy va zaif o'zaro munosabatlar hamda markazga intiluvchi va markazdan qochuvchi an'analar majmuidan iborat ekani ularga tashqi muhit talablariga osonlik bilan moslashishiga yordam beradi. Bu yerda xavf darajasi, bitimlar bo'yicha xarajatlar ancha kamroq bo'ladi. Biznesning ijtimoiy javobgarlik tushunchasi xususiyatlari Yaponiyada barcha manfaatdor tomonlar bilan kelishish jarayonida qarorlar qabul qilish, mehnatga haq to'lashda va xizmat pog'onasidan ko'tarilishda "yosh bo'yicha (kattalik)", "umrbod yollash" maxsus institutlari orqali namoyon bo'ladi. Bu mexanizmlar qonuniy tarzda belgilab qo'yilmagan bo'lsa-da, ular amalda ijtimoiy qonun, talab sifatida ko'riladi va barcha yirik kompaniyalarda amalga oshiriladi.


Diversifikatsiyalash jarayoniga ta'sir etuvchi omillar:

1. Ilmiy-texnik inqilob;
2. Yuqori daromad olish uchun kurash;
3. O'z jamg'armalarini qo'yish uchun boshqa sohalarni axtarib topish zarurati;
4. Iqtisodiyotni militarizatsiyalash (harbiylashtirish);
5. Raqobat uchun kurash;
6. Texnika taraqqiyotidan orqada qolish xavfi.

5.2. Yaponiya iqtisodiyotini diversifikatsiyalash sabablari

Yaponiyada iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sabablari quyidagilardan iborat:

- Yaponiya iqtisodiyotida yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar;
- Milliy valyuta iena kursining o'sishi;
- Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari tomonidan raqobatning kuchayishi;
- Yaponiyada ishlab chiqarilgan an'anaviy mahsulotlarni sotish imkoniyatining qisqarishi.



5.3. Yaponiyada diversifikatsiya jarayoni xususiyatlari


Yaponiyada diversifikatsiyalash jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bolib, ular quyidagilardan iborat:

1. Turdosh sanoat ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi;
2. Chet el qimmatbaho qog'ozlarini sotib olishga qat'iy munosabat bildirish;
3. Uzoq muddatli investitsiyalar uchun ahamiyatli ulush qoldirishni mustahkamlab qo'yish;
4. Diversifikatsiyalash jarayoni firmalarning ichki rivojlanishi hisobidan amalga oshirilishi;
5. Diversifikatsiyalash mehnat va ishlab chiqarish resurslarini harakatlanishiga yonaltirilganligi.

Yaponiyadagi barcha korxonalarining filiallari, ular qaysi biznes bilan shug'ullanmasinlar, sifat jihatidan darajasi yuqori bo'lgan deyarli bir xil nufuzga egadir. Mazkur korxonalar mahsulotlarining sifati, buyuk brend deb qabul qilinadi. Ular o'z faoliyatlarini mustaqil ravishda amalga oshiradilar va o'zaro manfaatli sohalaridagina hamkorlik qiladilar.

Mana shular firmalarning muvaffaqiyatli bo'lishi va ulardagi mehnat unumdorligi darajasini oshirish uchun kalit hisoblanadi va ishchi kuchining bir sohadan ikkinchi sohaga aynan samarali harakatlanishi yordam beradi.

Yapon kompaniyalari diversifikatsiya jarayonidan sezilarli darajada katta foyda oladilar. Yaponiya savdo markasi bilan chiqarilgan mahsulotlar jahon savdosida taklif etilayotgan tovarlar tanlovining o'sib borishiga qaramasdan eng yaxshi mahsulot deb tan olinadi.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Yaponiyada diversifikatsiya jarayoniga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?*
2. *Yaponiya iqtisodiyotini diversifikatsiyalash sabablarini sanab o'ting.*
3. *Yaponiyada diversifikatsiya jarayoning xususiyatlari nimalarni o'z ichiga oladi?*
4. *Yapon kompaniyalari uchun diversifikatsiyalash jarayoni nima?*
5. *Yaponiyada modernizatsiyalash jarayoni qaysi davrdan boshlangan?*

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. *Yaponiya va AQSh ning diversifikatsiya jarayonlarini yillar bo'yicha taqqoslang.*
2. *Yaponiyada diversifikatsiya jarayoning natijalarini tahlil eting.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. /I.A.Karimov. –T.: O'zbekiston, 2010. 80-b.*
2. *Karimov I.A.«Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari», –T.: "O'zbekiston", 2009.*
3. *O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot, O'z.R FA Iqtisodiyot instituti, –Toshkent, 2006.*
4. *Баев И.А., Кожин С.В. Новий підхід к реструктуризації компанії. //Фінанси -2001.-№12. –С.11-16.*
5. *Гинзбург А.И. Экономический анализ. –СПб.: Питер, 2007. –С.208.*
6. *Конкуренетоспособность и модернизация экономики: В 2-х кн. /Отв.ред. Е.Г.Ясин. Кн.!. –М.: Издательский дом ГУ ВШЭ, 2004, –С.456.*
7. *Нуреев Р. Модернизация экономики: концепции и средства. –М., 2005.*
8. *<http://www.soob.ru/n/2005/10/c/6>.*

6-BOB. XITOIY IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYA QILISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Darsning maqsadi: Xitoy iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqish.

Kalit so'zlar: *iqtisodiy islohotlar, "To'rtlik modernizatsiyasi", disbalanslik, disproporsiya, iqtisodiy rivojlanish davriyligi, sanoatlashtirish, ijtimoiy modernizatsiya, iqtisodiy tizimni transformatsiyalash, narx indeksi, kapital qurilish.*

6.1. XXRda "To'rtlik modernizatsiyasi" dasturining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish Xitoy Xalq Respublikasi hukumati oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayni paytda, Xitoy YaIM ni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdoriga ko'ra (2005-y. – 3200 AQSh dollari) ko'pgina o'rtacha rivojlangan davlatlardan hanuzgacha ortda qolmoqda. Ayni shu orqada qolishni bartaraf etish, iqtisodiy salohiyat hamda texnika, texnologiya borasida ilg'or mamlakatlar qatoriga qo'shildi va shu kabi qator maqsadlar modernizatsiyalash dasturlarida nazarda tutilgan.

Bizga ma'lumki, Xitoy o'z vaqtida boshidan "Oltin davr"ni o'tkazgan davlat hisoblanadi. Taniqli iqtisodchi A.Maddisonning fikriga ko'ra, 1820-yillarda Xitoy jahon yalpi ichki mahsulotining uchdan birini ishlab chiqargan. Shu nuqtayi nazardan, Xitoy hukumati modernizatsiyalashni tarixan iqtisodiy vazifa deb qarab qolmay, balki uni "Xitoy millatini uyg'onishiga" xizmat qiluvchi dastak sifatida ta'kidlamoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash orqali sobiq hukumat rahbarlari va xorijiy bosqinchi davlatlar tomonidan 150–200 yilga kechiktirilgan Xitoyni jahondagi qonuniy rivojlanish o'rniga qaytishiga erishish mumkin. Modernizatsiyalashni amalga oshirishda uning kuchli tomonlari bilan birga nuqsonlari ham Xitoy tajribasida kuzatilgan. Xitoy xalqiga xos bo'lgan maqsadga intiluvchanlik, qat'iy iroda, milliy ruh, o'z mamlakatini rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Lekin davriy yakka hokimlik siyosati iqtisodiyotda ba'zida kuzatiladigan disbalanslik, disproporsiya, iqtisodiy rivojlanish davriyligini me'yoriy holatda bo'lmasligi kabi qator muammolarni keltirib chiqardi. Albatta, Xitoy juda ko'p sonli aholisi bilan birga o'ziga xos xususiyatga ega

davlat hisoblanadi. Qisqa muddatlar ichida shiddatli tarzda o'sish sur'atiga ega bo'lib bormoqda. Shu qisqa muddat ichida mazkur ulkan mamlakat bozor iqtisodiyotining muhim tarmoqlari sanoatlashtirish, ijtimoiy modernizatsiya, iqtisodiy tizimni transformatsiyalash kabi vazifalarni amalda ijrosini ta'minlay oldi va hozirda bu jarayon davom etmoqda. Vaholanki, mazkur vazifalar turli davlatlarda anchayin turli davrlarda amalga oshirilganligini dunyo tajribasida kuzatganmiz.

Yana tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Xitoyda bir ibora mavjud, ya'ni "yo'qotilgan yuz yillik". Mazkur iboraga chuqurroq yondashib o'tamiz, sabablari, natijalariga kengroq e'tiborni qaratamiz.

XX asrning dastlabki yarmida Xitoyda chet el sarmoyasini kirib kela boshlaganini ko'rishimiz mumkin. Mazkur sarmoyalar o'sha payt uchun takomillashgan sanoatni va infratuzilmani shakllanishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida ishlab chiqarish sezilarli darajaga ko'tarildi. Xitoyning Yaponiya nazoratida bo'lgan Shimoli-sharqiy qismida (1933–1944) ko'mir qazib olish 10,9 dan 26,5 mln. tonnaga, elektroenergiya 0,2 dan 4,5 mlrd. KV/soatga, po'lat eritish 20 dan 470 ming tonnaga oshdi. Bu esa, mazkur hududni Xitoyning ilg'or sanoatlashgan qismi bo'lishiga sabab bo'ldi. Albatta, chet el sarmoyasi tufayli erishilgan natijalar yaxshi, lekin mazkur davlatga o'z sarmoyalarini kiritgan xorijliklar avvalo o'z manfaatlarini ko'proq himoya qilishga urinishdi. Milliy ishlab chiqarish hamda milliy kapitalni siqib qo'ydilar. Natijada, 1936-yilga kelib sanoat mahsulotlarini import qilishda narx indeksi 150,4 ga (1926-yil mazkur ko'rsatkich 100 ga teng) oshdi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida narx indeksi esa 48,1 ga pasaydi. Shu nuqtayi nazardan, xitoylik olimlar imperialistlarni Xitoyda paydo bo'lishidan maqsadlari uni feodal davlatdan kapitalistik davlatga aylantirish emas. Balki, o'z kaloniyalaridan biri bo'lishni istashgan deb ta'kidlashadi.

XX asrning yetakchi Xitoy rahbarlaridan biri Sun Yatsen (uni hozir ham Xitoy va Tayvanda hurmat bilan tilga olishadi) 1894-yil-dayoq Xitoyni Yevropadan o'zib ketishi kerakligi masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Sun Yatsen "Davlat qurilish dasturi"da, xususan, "Sanoat rejasi" bo'limida (1919-yil) to'g'ridan to'g'ri g'arb ishbiarmon doira vakillarini o'z sanoat mahsulotlarini, kapitallarini Xitoy bozoriga olib kirishlariga chaqirdi. Bundan maqsad, o'sha paytdagi urushdan keyingi iqtisodiy tanazzulni bartaraf etish edi. Shuning bilan birga, anchayin rivojlangan g'arb texnika, texnologiyasini o'zlashtirish ham Sun Yatsenning istaklaridan biri edi.

Xitoyni 20 yildan ko'proq boshqargan Chan Kayshi mamlakatni tez sur'atlarda sanoatlashtirish asosiy iqtisodiy vazifalardan biri deb hisobladi. Chan Kayshi o'zining "Xitoy taqdiri" asarida (1943-yil) Xitoy rivojlanishining 10 ta asosiy yo'nalishini ko'rsatib berdi. Bunda nafaqat turli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni, balki transport, aloqa, tibbiyot sohalari rivojlantirish kerakligi bayonini ko'rishimiz mumkin. 1937–1945-yillarda Xitoyni Yaponiya bilan olib borgan urushlari hamda kommunistlar bilan o'zaro taxt talashuvlar Chan Kayshi g'oyalarini amalga oshirilishiga to'siq bo'ldi.

1949-yilda Chan Kayshini Tayvan oroliga qochib o'tishi va Xitoy Xalq Respublikasining tashkil topishi bilan yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1936-yil ko'rsatkichiga nisbatan 30%ga pasaydi, og'ir sanoat mahsulotlari 70%ga xususan, cho'yan va po'lat ishlab chiqarish 80%ga kamayib ketdi. 1949-yilda Xitoy 158 ming tonna po'lat (dunyoda 26-o'rinda), 4,3 mlrd. KV/soat elektroenergiya (25-o'rinda), 32,4 mln.tonna ko'mir (9-o'rinda) ishlab chiqardi. XXR tashkil topishidan oldin Xitoyda zamonaviy sanoatning yalpi sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlaridagi ulushi 10% edi. Vaholanki, 1913-yilda Rossiyada bu ko'rsatkich 42,1ni tashkil qilgan. XXR tashkil topgandan keyin mazkur davlat rahbari Mao Szedun bo'ldi. Uning bosh g'oyasi "Boy va kuchli Xitoy"ni barpo qilish edi. Mao Szedun boy va kuchli Xitoyni sanoatsiz qurib bo'lmasligini ta'kidladi. Bundan tashqari, u qat'iy ishonch bilan Xitoy iqtisodini qayta qurish juda tez fursatlarda amalga oshirilishi kerakligini ham e'tirof etdi. O'sha paytdagi Xitoy holati, uning iqtisodiy qoloqligi, demografik muammolari Maoni umuman xavotirga solmadi. Aksincha, 1949-yil sentabrda qilgan nutqidan u Xitoydagi ko'p sonli aholini yaxshi voqelik va ular soni qanchayin oshmasin ularni farovon yashashiga yo'l ishlab chiqarishni kengaytirish deb ta'rifladi. Bundan tashqari u, eng qimmatli narsa bu insondir, insonlar bilan kommunistik partiya rahnamolariga xohlagan mo'jizaga erishish mumkinligini ham bot-bot takrorladi.

Xitoyda XXR tashkil topgan kezlardanoq iqtisodiyotda nisbatan jonlanish alomatlarini sezila boshladi. 1952-yilda xalq xo'jaligi shakllantirildi. 1953-yildan mamlakat qo'shni bo'lgan Sovet Ittifoqi bilan hamkorlikda ijtimoiy sanoatlashtirishning boshlang'ich bazasini yaratish borasida besh yillik rejani qabul qildi. Sovetcha sanoatlashtirish modeli asosida Xitoy hukumati avvalo, Mao Szedunning tashabbusi bilan mamlakatda iqtisodni modernizatsiya qilishda asosiy qilinadigan

ish sifatida og'ir sanoatni, xususan, po'lat ishlab chiqarishni rivojlantirish hukumat darajasidagi maqsad qilib olindi. 1953–1957-yillarda og'ir sanoatning o'rtacha yillik o'sishi 25,4 %ni tashkil qildi hamda 2,1 barobarga oshdi. Bu ko'rsatkich iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ko'rsatkichidan ko'pdir. 1957- yilda Xitoyda 5,35 mln. tonna po'lat ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

6.2. Xitoyda iqtisodiyotini modernizatsiyalashni amalga oshirishning asosiy bosqichlari

XXR iqtisodiyotining dinamik rivojlanishi birinchi besh yillikda 2 ta natijani keltirib chiqardi.

1. Mamlakatni modernizatsiya qilishning yo'nalishi va muddatini belgilab berdi. Xitoy kommunistik partiyasining 1956-yildagi VIII yig'ilishida ijtimoiy sanoatlashtirish talablaridan kelib chiqqan holda yaqin o'rta besh yillikda yaxlit sanoat tizimini yaratish vazifasi qabul qilindi. Ilk qadam sifatida 1958–1962-yillar realizatsiyasi olindi. XXR hukumati bosh vaziri Chjou Enlaemning taklifiga ko'ra, ikkinchi besh yillikda po'lat eritishni 1962-yilda 10,5–12 mln. tonnaga, sanoatda ishlab chiqarish hajmini esa, 1957-yilga nisbatan 35% ga ko'tarish rejaga kiritildi.

2. Bu kabi shiddatli iqtisodiy o'sishga erishish oson emasdi. Oddiy xalq olib borajak islohotlarga yoppasiga safarbar qilinishi lozim edi. Bu holatga Xitoy aholisi ruhan tayyor emas edi.

Dastlab og'ir sanoatda po'lat eritish hajmini keskin oshirish va 8–10 yoki 10–15 besh yilliklarda AQSh dan o'zib ketish aytilgan bo'lsa, Mao Szedun bu maqsadga tezroq, ya'ni oz fursat ichida erishishni xohlardi. Bunga u Xitoyning ko'p sonli aholisi salohiyatiga tayanib qilish mumkinligini ta'kidlaydi. 1958-yilda mamlakatni sanoatlashtirish va uni moddiy-texnik bazasini rivojlantirish maqsadida “Katta sakrash” siyosati olib borildi. “Katta sakrash” ham Xitoy kommunistik partiyasining qabul qilgan qarorlaridan biri edi. Mazkur siyosat o'z oldiga qishloq va shaharlarda kommuna va kompartiyalarni tuzishni, bor kuchni bir joyga to'plab oldinga intilish, ko'proq, tezroq, yaxshiroq, tejamliroq tamoyillari asosida sotsializmni qurishni maqsad qilib olgan edi. Shu bilan birga Xitoy sanoatida po'lat ishlab chiqarish bo'yicha tez fursatda Buyuk Britaniyadan, keyin esa, AQSh dan o'zib ketish ham “Katta sakrash”ning natijasi bo'lganligini e'tirof etishdi.

1958-yil 28-avgustda Xitoy kommunistik partiyasi tomonidan tasdiqlangan 1958–1962-yillar rejasiga ko‘ra, 1956-yilda qabul qilingan mazkur besh yillik rejasidan farqli ravishda, 1962-yilda 750 mln. tonna don, 7,5 mln. tonna paxta, 900 mln. tonna ko‘mir ishlab chiqarish, kapital qurilishlariga ajratiladigan investitsiyalar miqdori 358 mlrd. yuanga oshirilishi, sanoatda o‘rtacha yillik o‘sishni 53 % ga, qishloq xo‘jaligida yillik o‘sishni 30 %ga ko‘tarish masalalari qo‘yilgan. Ko‘rinib turibdiki, bunday rejalar bilan (amalga ohsa) Xitoy tez orada ilg‘or mamlakatlar orasidan joy olishi mumkin edi. Lekin, mazkur reja o‘sha paytdagi Xitoyning real iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlarini hisobga olmagan tarzda ishlab chiqilgan edi. Po‘lat va cho‘yan eritishda ham hamon eski pechlardan foydalanar edi, yana bu uchun juda ko‘p ko‘mir va ishchi kuchi talab qilar edi. Shunday bo‘lsa-da, Xitoy hukumati hamma chora-tadbirlarni ishga solgan holda, reja bajari-lishini tezlatish bilan band bo‘ldi. Natijada, qishloq xo‘jaligida bandlar soni 38 mln. ishchi kuchiga kamaydi.

1959-yilda reja bo‘yicha eritilishi lozim bo‘lgan po‘lat hajmi 20 mln. tonna emas, balki amalda 12 mln. tonnaga pasaydi. Shuningdek, don ishlab chiqarish 525 mln. tonna emas 275 mln. tonnaga, paxta yetishtirish 5 mln. tonnadan 2,31 mln. tonnaga tushib ketdi. Bir so‘z bilan aytganda, “Katta sakrash” siyosati Xitoy iqtisodiyoti uchun dastlab qanday ijobiy ta‘sir o‘tkazgan bo‘lsa, keyinchalik shunday salbiy oqibatlariga olib keldi. Iqtisodiy qonunlarni majburiy tarzda buzilishi yomon oqibatlariga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, 1961–1962-yillarda XXR ishlab chiqarish pasayishining misli ko‘rilmagan holatiga duch keldi. Ular ta‘biricha bu holat “iqtisodiyotni muzlab qolishi” deb e‘tirof etildi.

“Katta sakrash siyosati” mamlakatni falokat yoqasiga keltirib qo‘ydi. Yana statistikaga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1960-yilda og‘ir sanoatni 2,3 marotabaga oshishi boshqa sohalarga jiddiy zarar yetkazdi. Xususan, o‘sha yili qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 22,7 % ga pasaydi. O‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keladigan don iste‘moli 1957-yilga qaraganda 19,4 % ga qisqardi, paxta tolasi (1961-yilda) 58,6 % ga tushib ketdi, shuningdek, 1957–1962-yillarni taqqoslaganda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yillik o‘rtacha iste‘mol don 203 kg dan 164,6 kg ga, o‘simlik yog‘i 2,4 kg dan 1,1 kg ga, cho‘chqa go‘shti 5,1 kg dan 2,2 kg ga, gazlama (mato) 6,8 metrdan 3,7 metrga pasayish tendensiyalarini ko‘rishimiz mumkin.

Demak, mamlakatni sanoatlashtirish va modernizatsiyalashda “Katta sakrash” g‘oyasi mohiyatan puch maqsadga aylanib qoldi. Mazkur g‘oyaga 1956-yildayoq qarshi bo‘lgan Chen Yun iqtisodiy siyosatda Mao Szedunning muxolifi edi. Uning fikricha, qishloq xo‘jaligi va bozor muammosi eng katta muammodir. Chunki, qishloq xo‘jaligi va bozor 500 millionlik qishloq aholisi va 100 millionlik shaharliklarning asosiy daromad manbayi hisoblanadi. Bu sohadagi muammolarni bartaraf etmay, boshqa sohalar rivoji haqidagi rejalar biz yuqorida kuzatgan holat singari tanazzulga yuz tutadi.

Iqtisodiy siyosatning o‘zgartirilganini 1962-yilning oxirlariga kelib vaziyatni birmuncha yaxshilanganligidan ko‘rish mumkin edi. 1963–1965-yillar Xitoy tarixida yaxshi davrlardan biri bo‘ldi. Buni ishlab chiqarishda ish samaradorligining oshishida kuzatish mumkin. 1960-yillar o‘rtalarida xo‘jalik takror ishlab chiqarishni me‘yoriy proporsiyalarga tiklanishiga erishildi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi ulushi 1960-yildagi 21,8 % dan 1966-yilda 37,3 % ga o‘sdi. XXR hukumati 1960-yillar o‘rtalariga kelib “katta sakrash” oqibatlarini bartaraf etish borasida ulkan chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Amalga oshirilgan ishlarni quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

-Butun xalq xo‘jaligida iqtisodiyotni barqarorlashtirish eng asosiy vazifalardan biri etib belgilandi;

-Yuzaga kelgan tanazzul holatini bartaraf etish davrida moliyaviy va moddiy resurslarni markazlashtirish “butun davlat – bitta shaxmat doskasi” siyosatini olib borish ta‘minlandi. Xususan, markazlashtirilgan va mahalliy moliyaviy xarajatlar proporsiyasi 48,1 : 51,9 dan (1958–1962), 59,7 : 40,3 ga (1963–1965) aylantirildi. Markazlashtirilgan moddiy resurslar taqsimlanishi 1959-yildagi 285 turdan 1964–1965-yillarda 592 tur (xil)ga ko‘paytirildi;

-Mamlakat siyosiy boshqaruvida konsensusga erishildi. Ya‘ni iqtisodni tartibga solishda 5 tamoyil – tushunishda yakkillik, siyosiy yakkillik, rejalashtirishda yakkillik, boshqaruv yakkilligi hamda harakat qilish yakkilliklari asosida faoliyat olib borishga erishildi;

-Iqtisodiyotni tartibiy qayta qurish hamda investitsiya sharoitini yaratish, bu borada og‘ir sanoatda ishlab chiqarishni pasaytirish va kapital qurilish ko‘lamini yuqori darajada qisqartirish masalalari yechim topdi;

1961–1962-yillarda keng qo‘llanilgan uslublar “yopiqlik, vaqtinchalik to‘xtash, qayta ixtisoslashish” ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarini

1960-yilgi 96 mingdan 1962-yilda 53 mingga qisqarishiga, shuningdek, metallurgiyada 70%ga kamaytirishga, o'zida 30 ming ishchi kuchini band qilgan 110 ta mashina ishlab chiqaruvchi korxonalar qishloq xo'jalik texnikalari ishlab chiqarishga yo'naltirilishiga sabab bo'ldi.

-Inqirozdan chiqish borasida qilingan sa'y-harakatlar, asosan, qishloq xo'jaligini jonlantirish va ko'tarishga yo'natirildi. Kollektiv fondlarga ajratiladigan mablag'larning qat'iy me'yorlari o'rnatildi. Yordamchi mayda hunarmandchilik, tomorqa maydonlari, kollektiv dehqon bozorlari qayta tiklandi va kengaytirildi. Donga bo'lgan davlat buyurtmasi kamaytirildi. 1960-yildagi 51 mln. tonnadan 1961-yili 40,5 mln. tonnaga, 1962-yilda esa 38 mln. tonnaga tushirildi.

-Iqtisodiyotni barqarorlashtirish maqsadida tashqi iqtisodiy aloqalar ham birmuncha tarkibiy o'zgartirildi. Ya'ni eksport tarkibida iste'mol mahsulotlari hajmi bo'yicha birinchi o'ringa, qurilish mahsulotlari ikkinchi o'ringa qo'yildi. 1961-1962-yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti teng yarmiga qisqardi. Chet el valyutasini jalb qilish maqsadida yengil va to'qimachilik sanoati mahsulotlari eksporti oshirildi.

-Iste'mol bozorida holatni yaxshilash maqsadida egiluvchan siyosat olib borildi. "Katta sakrash" mamlakatda, xususan, erkin bozorda narxni sun'iy ravishda oshirilishiga sabab bo'lgan edi. Natijada, ishchi xodimlar daromadi pasayib ketdi. 1961-yilda xalq ehtiyoji asosini ta'minlash maqsadida hukumat 18 xildagi iste'mol mahsulotlarini qat'iy narxda sotilishini ta'minlab berdi.

Iqtisodiyotni tartibga solish yillarida hukumatning asosiy strategik maqsadi - sanoatlashtirish va modernizatsiyalash yoddan ko'tarilmadi. XKP (Xitoy kommunistik partiyasi) Markaziy kengashining 1963-yil sentabrdagi yig'ilishida Xitoyni "ikki qadam"da modernizatsiyalashni amalga oshirish g'oyasi ilgari surildi. Modernizatsiyalashning "ikki qadami" quyidagicha:

1.Sanoat va xalq xo'jaligining mustaqil, nisbatan yaxlit tizimini yaratish va buning natijasida mamlakat sanoatini jahon darajasiga olib chiqish;

2.Bu bosqichda dunyoning yetakchi mamlakatlari bilan qishloq xo'jaligi, sanoat, mudofaa, ilm-fan, texnika sohalarini modernizatsiyalash borasida har tomonlama munosabatlarga kirishish nazarda tutilgan. 1964-yil dekabr oyida 3-chaqiriq "xalq vakillari" Umumxitoy yig'ilishining birinchi sessiyasida XXR davlat kengashi bosh vaziri Chjou Enlay o'z ma'ruzasida shuni ta'kidladi: "Qisqa vaqt ichida Xi-

toy zamonaviy qishloq xo'jaligi, sanoat, mudofaa, ilm-fan, texnika sohalarini modernizatsiyalash bilan dunyoning ilg'or mamlakatlari qatoriga qo'shiladi".

1963-yilning dekabr oyida ilm-fan, texnika sohasini rivojlantirishning 1963–1972-yillarga mo'ljallangan rejasi tasdiqlandi. Mazkur rejaga muvofiq ilm-fan, texnika mamlakat mudofaa ta'minotini takomillashtirishga qaratilishi belgilab olindi. Dunyo o'sha paytlarda ikki qutbga AQSH va Sobiq SSSR ga bo'lingan edi. Bu ikki tomon harbiy qurol-yaroq ishlab chiqarishda kim o'zarga o'ynashardi. Bulardan ortda qolishni istamagan XXR rahbari Mao Szedun ham mudofaani rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi.

1964-yildan so'ng mamlakat budjet hisobidan katta ulushni harbiy sohaga sarflashni boshladi. Bu paytga kelib, juda ko'p xalq xo'jaligi tarmoqlari mamlakat mudofaasini kuchaytirishga safarbar etila boshlandi. Xullas, mazkur siyosat ham iqtisodiyotni izdan chiqishiga olib keldi. Xususan, 1967-yilda sanoatda ishlab chiqarish 13,8 %ga, 1968-yilda esa, yana 5% ga qisqarib ketdi. Xatto davlat rejasi ham amalga oshmay qoldi. Odatdagidek, xo'jalik tartibsizligi moliyaviy jihatdan ham salbiy ta'sir o'tkazdi. 1967-yilda budjet daromadlari 25%ga, 1968-yilda esa, yana 13,9 %ga pasayib ketdi.

Boshqaruv Den Syaopen qo'liga o'tgandan so'ng, Xitoy o'z boshidan haqiqiy gullash davrini o'tkazdi. Xitoyni hozirgi darajaga kelishiga mazkur davlat arbobining hissasi juda katta. U boshlab bergan islohotlar natijasida bugunga kelib mamlakat deyarli barcha sohalarda yuqori sur'atlarda rivojlanayotganini ko'rib turibmiz. Den Syaopen har tomonlama yopiq siyosat olib boradigan XXR ni ochiq siyosat olib borishiga imkon yaratdi. U shuni tushundiki, mamlakatni sanoatlashtirish va modernizatsiyalashni yopiq siyosat bilan amalga oshirib bo'lmaydi.

Chet el investitsiyalarini hamda texnika-texnologiyalarini mamlakatga jalb qilibgina, maqsadga erishib bo'lishini yaqqol ko'rdi. Sotsialistik davlatlarga xos bo'lgan ko'pgina yomon illatlardan voz kechildi. Ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, kelajakda amalga oshiriladigan dasturlar ishlab chiqila boshlandi. Shu islohotlar natijasi o'laroq, 1970-yillar oxirlariga kelib Xitoy yetarlicha moddiy bazaga ega bo'ldi. Sanoatda o'rtacha o'sish sur'ati 1950–1977-yillarda 13%ni, qishloq xo'jaligida 4,2%ni, sanoat mahsulotlarining yalpi sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlardagi ulushi 30 % dan 71%ga ko'tarildi. 1978-yilda

davlat sanoat korxonalarining umumiy fondi 320 mlrd. yuanga yetdi. Sug'oriladigan yerlar umumiy yer maydonining 45 %ni tashkil etdi. Don hosildorligi 1949-yildagi 12,8 sentner/gektardan 1978-yilda 41,1 sentner/gektarga yetdi. 1978-yilda stanok parklarida 2,67 mln. stanok mavjud edi. O'sha yili ko'mir qazib olish bo'yicha dunyoda Xitoy uchinchi o'ringa, po'lat eritishda beshinchi o'ringa, paxtani qayta ishlash bo'yicha esa birinchi o'ringa chiqib oldi. Ta'lim sohasida Xitoy 1978- yildayoq kam daromadli mamlakatlar darajasidan o'rtacha rivojlangan mamlakatlar darajasiga erishdi.

So'nggi 25 yilda Xitoy iqtisodiyotini modernizatsiyalash konsepsiyasi evolutsiyasini shakllanishiga o'zaro uzviy bog'liq 3 ta omil sabab bo'ldi, desak xato bo'lmaydi.

-Birinchidan, modernizatsiyalashga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi, aynan shu darajada modernizatsiyalashning rasmiy maqsad, bosqich hamda ustuvor yo'nalishlarni shakllanishi va bular siyosiy-g'oyaviy qolipga solinishi jarayoni kuzatildi;

-Ikkinchidan, ilmiy-nazariy konsepsiyadan kelib chiqqan holda, modernizatsiyalash muammolari mamlakat olimlari tomonidan ko'rib chiqildi va tegishli takliflar berildi. Dastlabki davrda hukumat rahbarlari tomonidan ishlab chiqilgan modernizatsiyalash dasturlariga o'zgartirishlar, izohlar hamda aniqliklar kiritildi. Xitoy olimlari nafaqat modernizatsiya shiorini yetarlicha aniq, tarkiblashtirilgan dasturga kiritdilar, balki, hukumat boshqaruviga modernizatsiyalash konsepsiyasiga xizmat qiluvchi qator novatsiyalarni ko'rsatib berdilar. Xususan, modernizatsiyalashning "uchinchi qadam"ini 2000-yildan keyingi davrda amalga oshirilish kerakligini taklif qildilar;

-Uchinchidan, Xitoyning real xo'jalik tajribasi modernizatsiyalashni amalga oshirish muddati, sur'ati va metodlarini aniqlashga katta hissa qo'shdi.

Quyidagi bosqichlarda Xitoyda modernizatsiya konsepsiyasi evolutsiyasini rivojlanishi kuzatildi:

-1979-1980-yillar. Mamlakat modernizatsiyalashga qaratilgan oldingi harakatlarni to'g'rilash, Xitoyga xos bo'lgan modernizatsiyalashning mazmun- mohiyatini aniqlash hamda modernizatsiyalash maqsadlarini amalga oshirishda mavjud imkoniyatlarni topish kabi tadbirlarni mazkur yillar o'z ichiga qamrab olgan;

-1981-1983-yillar. Xitoyni modernizatsiyalashning aniq maqsadlari va yo'nalishlarini ishlab chiqish, mamlakat rivojlanish strategiyasi

muammolarini bartaraf etishga xizmat qiluvchi modernizatsiyalash konsepsiyasini ilmiy yo'lda ishlab chiqish kabi chora-tadbirlarni ko'rishimiz mumkin;

-1984–1988-yillar. Mazkur yillarda 2000-yilgacha chuqurlashgan ilmiy modernizatsiya dasturini ishlab chiqish hamda modernizatsiya konsepsiyasida iqtisodiy tizim islohotlariga e'tiborni qaratish kabilar amalga oshirildi.

-1989–1991-yillar. Ushbu yillarda siyosiy va iqtisodiy inqiroz bo'lib o'tdi. Qator mamlakatlarda sotsializmning qulashi sotsialistik davlat bo'lgan Xitoyga ham jiddiy ta'sir o'tkazdi. Shu sababdan modernizatsiyalash jarayoni rivojlanish sur'atini pasayganligini ko'rishimiz mumkin.

-1992–1996-yillar. Yangi o'n yillikda modernizatsiyalash konsepsiyasi qayta ko'rib chiqildi.

-1997–2002-yillar. Modernizatsiyalash muammolariga "ilm-fan, ta'lim" asosida qayta e'tibor berish, "iqtisodiy bilim" konsepsiyasini ishlab chiqish kabi tadbirlar.

-2003-yilda va hozirgi davrgacha. XXRsi yangi hukumati tomonidan "rivojlanishning ilmiy konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Bunga ko'ra iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish va mustahkamlash va kam resurs talab qiluvchanligini osbirish nazarda tutildi.

Xitoyni iqtisodiy jihatdan ravnaq topishi 1980-yillarda boshlangan bo'lib, bu hodisa g'arbni benihoya hayratga soldi. O'sha davrda kommunistik mafkurani saqlab qolgan bepayon XXR bozor tomonildam qadamlar bilan odimlar edi. 1979-yildan boshlabXXR mamlakat iqtisodiyotiga yangi dinamizm baxsh etish hamda boy ishchi kuchi va resurslar quvvatidan yanada samaraliroq foydalanish maqsadida o'z iqtisodiyotida turli xil bozor dastaklarini ishga solishga qaror qildi. Janubi-Sharqiy Osiyo mintqasining sanoati rivojlanganligini hisobga olgan holda, mamlakatni jahonga tanishish borasida dadil qadamlar qo'yildi. Xitoy Tinch Okean mintaqasi mamlakatlari va iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, qisqa muddatda turli xil erkin iqtisodiy hududlarni shakllantira boshladi, ya'ni mamlakatda 1980-yildan boshlab, 5 ta maxsus iqtisodiy hudud tashkil topdi. Bular quyidagilar:

1. Shenchjen erkin iqtisodiy zonasi;
2. Chjuxay erkin iqtisodiy zonasi;
3. Shantou erkin iqtisodiy zonasi;

4. Samen erkin iqtisodiy zonasi;
5. Xaynan erkin iqtisodiy zonasi.

1984-yilda Xitoy hukumati tashqi dunyoga 14 ta dengiz oldi shaharlarini ochib berib, ularni “erkin savdo shaharlari” deb e’lon qildi. Ular quyidagilar: Dalyan, Tyanszin, Sindao, Nantun, Ninbo, Guanchjou, Chanszyan, Sinxuandao, Yantay, Lyanyungan, Shanxay, Venchjou, Fuchjou, Boxay.

1985-yildan boshlab Yanszi va Chnuzsan deltalarida, Fuszyan provinsiyasining janubida, Shandun va Lyaodun yarimorollarida, Xebey provinsiyasi hamda Guansi – Chjuan avtonom rayonida yangi iqtisodiy zonalar ochila boshladi. Natijada, mamlakatning qirg’oq oldi erkin iqtisodiy zonolari vujudga keldi.

1992-yil XXR Davlat Kengashi qaroriga binoan bir qator chegara oldishaharlari va mamlakat ichkarisidagi provinsiyalar hamda muxtor rayonlarning barcha markazlari “tashqi dunyo uchun ochiqlik” maqomini oldi. Mamlakatning yirik va o’rta shaharlari bazasida 15 ta “boj solig’isiz” hududlar, 32 ta yangi texnik iqtisodiy o’zlashtirish zonolari, 53 ta davlat miqyosidagi yangi texnologiyalarni o’zlashtirish zonolari tashkil etildi. Yuqorida qayd etib o’tilgan 5 ta maxsus iqtisodiy hududlar butunlay tashqi bozorga yo’naltirilgan bo’lib, ularda asosan qayta ishlash sanoati rivojlantirilmoqda. 1980-yillarning boshida esa bu sohalar ayrim hududlarda umuman mavjud bo’lmagan. Qolganlari bo’lsa, sarmoyadorlarga qaytarib berilishi kerak bo’lgan. Zamonaviy qurilishlarga sarf-xarajatlar qilish lozim bo’lib, jiddiy ravishda qayta jihozlashni talab qilar edi. Biroq ushbu hududlarning joylashganligi va bojxona to’lovlaridan ozod qilinganligi, yaratilgan imtiyozli shartsharoitlar kutilmaganda “port operatsiyalarini” avj oldirib yubordi, yani chet el sarmoyadorlari eksport uchun mahsulotlarni ishlab chiqarib, shu joyning o’zida ularni eksport qilish imkoniyatlarini paydo qilishdi va u joylardagi portlarda tayyor mahsulotlarni jo’natish jarayonining to’xtab qolishiga va uning oqibatida esa mahsulotlarning to’planib qolishiga sabab bo’ldi. Bu holatlarga tayyor bo’lmagan Xitoy portlari turli-tuman mahsulotlarga to’lib ketdi. Ushbu hududlar nufuziga xalal beruvchi oqibatlar bilan birga, ularning bosh to’lovlaridan ozod etilgani va ko’plab boshqa to’lovlar to’lashi lozimligi tufayli ularning moliyaviy barqarorlikka erishishi ancha vaftgacha davom etdi. Shu munosabat bilan Xitoy hukumati port infratuzilmalarini tez modernizatsiyalashtirish bo’yicha bir qancha chora-tadbirlarni

ishlab chiqib, ularni qabul qildi, buning natijasida bo'xonalardan tashqari operatsiyalar amalda gullab-yashnadi, maxsus iqtisodiy zonalarini yanada ko'proq qurish maqsadida kerakli kapital qo'yilmalarni kelgusida ko'payishi uchun zamin yaratildi.

Soliq to'lash bo'yicha yaratilgan shart-sharoitlar, offshor zonalarda kapital qo'yimlarini jalb etilishiga imkon berdi. Sanoat ishlab chiqarish quvvatini aksiyadorlik korxonalarini rivojlantirish bo'yicha tajriba maydoni bo'lib xizmat qilishga qaratilgan Xitoyning to'rtta "maxsus hududlar" iga import qilinayotgan jihozlar va ishlab chiqarish vositalari import boj solig'idan to'liq ozod qilingan. Ochilayotgan chet el kompaniyalari va qo'shma korxonalar ham ular amalda ish boshlagan vaqtdan boshlab ikki yil davomida olingan foyda hisobidan soliq to'lashdan ozod etildi, keyingi 3 yil davomida esa, ular bu soliqning 50 %ni to'laydigan bo'ldi. Buning natijasida esa, foydani cheksiz repatriatsiya qilish imkoniyatlari yuzaga keldi. Bundan tashqari, chet el xodimlari oladigan maoshning yarmini o'z vataniga olib ketishi mumkin bo'ldi. Shular bilan bir qatorda, yana chet el firmalari Xitoy ishchilari bilan tuzilgan mehnat shartnomasining muddati tugamasdan va hech qanday imtiyozlar bermay turib, ishdan bo'shatish huquqiga ham ega bo'ldilar.

Maxsus iqtisodiy hududlarni tuzish va rivojlantirishda XRR rahbariyati ko'zlayotgan maqsadlar ko'p qirralidir. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- erkin hududlar yuqori texnologiyali chet el investitsiyalarini jalb etishi mumkin;

- texnologiya va nou-xauni chetdan keltirishi mumkin;

- industrial mamlakatlarga mahsulotlar chiqarish mumkin;

- turizmni rivojlantirish va unga bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish mumkin;

- boshqaruv va menedjmentning ilg'or usullarini o'rganib chiqishi va ularni amaliyotda qo'llash mumkin;

- mehnatga haq to'lashda tenglashtirish tamoyilidan voz kechishi;

- qo'shimcha ish joylari va kadrlarni tayyorlash tizimini vujudga keltirishi;

- mahalliy pudratchilikni rag'batlantirishi;

- jahon bozorlari institutlari bilan aloqa o'rnatish;

- Syanganni (Gankong) Xitoy milliy iqtisodiy tizimiga kirishiga tayyorlash.

Buning ustiga, Xitoy hukumati erkin zonalarda katta miqdordagi moliya mablag'laridan va ko'p millionli Xitoy ishbilanmonlarining bilimlaridan foydalanishni ko'zda tutgan edi. XXRda mintaqadagi boshqa rivojlangan mamlakatlardagiga qaraganda, ishchi kuchi ancha arzonidir. Masalan, Yaponiyada o'rtacha bir soatlik ish haqi – 14 dollarni, Gonkongda – 9 dollarni, Malayziyada – 3 dollarni tashkil etadi. Xitoyda esa bu ko'rsatkich 1 dollarga ham yetmaydi. Biroq, Xitoyda ishchilarning tayyorgarlik darajasi va ishlab chiqarish samaradorligi yuqorida sanab o'tilgan davlatlardagiga nisbatan past bo'lgan, ayniqsa bu holat erkin zonalarini tuzish davrida yaqqol sezilgan.

Hozirgi vaqtda mamlakatda AQSh dollarida ifodalangan ish haqi darajasi tobora ortib bormoqda, chunki, sanoatlashtirish jarayonini jaddallashtirish ijobiy natijalarga olib keladi. O'sib borayotgan korrupsiya bilan chayqovchilik bozori birgalikda bugungi kunda Xitoy erkin iqtisodiy zonalarida bundan o'n yil oldin kuzatilganidek, chet el investitsiyalarining shiddat bilan o'sishiga xalaqit bermoqda.

Yirik g'arb firmalari tomonidan ko'pincha litsenziyalar bitimlarsiz va mualliflik huquqlarini himoya qilmay turib, ishlab chiqarish quvvatlaridan soxta mahsulot ishlab chiqarish maqsadida noqonuniy ravishda foydalanilmoqda. Nihoyat, 1995-yil fevralida Xitoy bunday mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirdi, ya'ni litsenziyasiz chiqarilgan kompakt-disklarda bo'lganidek, bunday mahsulotni "buldozerlar" bilan yanchib yo'qotish choralari ko'rila boshlandi. Ularning barchasi mualliflik huquqiga rioya etilmayotganligidan jabr ko'rayotgan AQSh ning sa'y-harakatlari orqali amalga oshirilmoqda.

Xitoyning «ochiq portlar»ining rivojlanishiga kelsak, u mamlakatdagi mavjud sanoat bazasiga asoslanib rivojlanayotganligini qayd etish mumkin. «Ochiq portlar» turidagi erkin zonalar, asosan, sanoat ishlab chiqarish va mehmonxonalar xizmati sohalarida xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qilayotganliklarini anglatadi. Mazkur zonalarda soliq to'lashdan to'liq ozod qilinmaydi, lekin soliqlar umumxitoy soliqlar darajasidan 50% miqdorigacha kamaytirilgan. Loyihalarni imtiyozli soliqlar bo'yicha amalga oshirish uchun quyi chegaralar ham belgilangan. (Tyanszin va Shanxay uchun 30 mln. AQSh doll., Dalyan va Guanchjou uchun 10 mln. doll., qolgan 10 ta franko-zonalar uchun 5 mln. doll.). Shu yo'l bilan hukumat port infratuzilmasini texnik

jihatdan tubdan qayta jihozlash bo'yicha yirik loyihalarni ishlab chiqishni rag'batlantirmoqda.

1980-yil mazkur hudud tashkil etilgan vaqtdan boshlab, jami 2,8 mlrd. AQSh dollarlik 3700 tadan ortiq shartnoma tuzildi. Bu yerda kapital qurilish sohasi rivojlana boshladi. Ushbu sohada dastlab, 8 ming ishchi kuchi band bo'lsa, hozirgi kunda ular soni 100 mingdan oshib ketdi. Ayniqsa, Shenchjen bilan Syangan o'rtasidagi oltita nazorat va ruxsatnomalar bo'linmasi atrofida mayda savdo ishlari juda rivojlana boshladi. O'tgan vaqtlar davomida Sheku va Chivan portlari to'liq qayta rekonstruksiya qilindi. Nantu vertolyot aeroporti barpo etildi, shaharda turizm infratuzilmasi yaratildi. Xususan, 2 mln. kishini qabul qiladigan 200 ta mehmonxona qurilib ishga tushirildi. 1983-yilda Shenchjenda birinchi universitet ochilgan bo'lib, u makroiqtisodiyot, boshqaruv, menedjment, xalqaro savdo va turli xil ijtimoiy-gumanitar fanlarga ixtisoslashtirilib, mamlakatga kerakli kadrlarni yetishtirib kelmoqda. Shaharda chet el sarmoyalarining eng ko'p tarqalgan shakli, sarmoyani 50/50 % miqdorida taqsimlashga asoslangan qo'shma korxonalar faoliyat olib bormoqda.

Dastlab paydo bo'lgan birinchi qo'shma korxonalar Sanio elektron korporatsiyasi bo'ldi, keyin Pepsikola va boshqa kompaniyalar vujudga keldi. Tabiiyki, ular asosan, Yapon va Syangan qo'shma korxonalarini edi. U yerdagi eng yirik qo'shma korxonalar Luks firmasi (Syangan) bilan birgalikda tuzilgan bo'lib, u Shenchjenda bir kunda 100 mingdan ortiq televizorlarni yig'adi. 1990-yilda barcha ushbu hudud-dagi chet el firmalarining 90 % Syanganniki edi. Bunda yaponlar nisbatan kam ishtirok etmoqdalar.

Mamlakatga kirib kelayotgan sarmoyalar u yerdagi qurilish sur'atlaridan farqli ravishda birdaniga emas, faqat 1984-yildan boshlab ko'paya boshladi. Avvaliga bu oddiy yig'uv sexlari va kichik zavodlar bo'lgan bo'lsa, endilikda ular chiqarayotgan mahsulotlarning 35 % eksportga yo'naltirilmoqda. Shenchjen ma'muriyati o'zi uchun bu ko'rsatkichni kamida 70 %ga yetkazishni mo'ljallamoqda. Yig'uv operatsiyalaridan keyingi qilinajak ishlar bu pudratchilik asosida ish olib borish bo'ldi. Hozirda mazkur shaharda 250 dan ortiq sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatib, ularning umumiy aylanma mablag'lari 1 mlrd. dollardan oshib ketdi. Ularning 50% chet el firmalari va qo'shma korxonalaridir.

Pudun iqtisodiy zonasi. 1990-yillar boshida Shanxayda yangi Pudun erkin iqtisodiy rayoni tuzildi. 1992-yildan boshlab bu hudud ham xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Xitoy hukumati yangi Pudun iqtisodiy rayoniga boshqa maxsus iqtisodiy hududlarga nisbatan, kengroq imtiyozlar bergan bo'lib, xorijiy investorlar uchun juda qulay shart-sharoitlar yaratdi.

Pudun iqtisodiy rayonida barcha maxsus iqtisodiy hududlar hamda texnik iqtisodiy o'zlashtirish hududlari uchun belgilangan qonun va holatlar mavjud bo'libgina qolmay (masalan, qisman yoki to'liq boj solig'i va daromad solig'idan ozod qilinishi), balki shunday iqtisodiy imtiyozlar berilganki, ular faqatgina Pudun hududidagina qo'llaniladi. 1998-yilda Pudun iqtisodiy rayonida ishlab chiqarilgan yalpi sanoat mahsuloti 142,2 mlrd. yuanni tashkil etdi. Bu iqtisodiy ko'rsatkich Shanxayning qolgan butun qismida ishlab chiqarilgan yalpi sanoat mahsulot summasi bilan teng bo'lib, amalda "ikkinchi Shanxay" hududi yaratildi.

Bugungi kunda Pudun iqtisodiy rayonida sarmoyalar ishtirokida 72 ta xorijiy yirik moliyaviy muassasalar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 18 tasi xorijiy sarmoyalar ishtirokida tashkil etilgandir. Xitoyning 28 ta provinsiya, markazga bo'ysinuvchi shaharlar va muxtor rayonlar tadbirkorlari Pudunda o'zlarining savdo filial firmalarini ochishgan, mamlakatning 14 ta provinsiyasidan 35 ta eng yirik ishlab chiqarish va moliya birlashmalari o'z vakolatxonalarini hududda ro'yxatdan o'tkazishgan. Dunyoning 60 dan ortiq mamlakati sarmoyadorlari ishtirokidagi qurilgan obyektlar Pudun iqtisodiy rayoniga sezilarli darajada iqtisodiy samaralar bermoqda.

6.3. Modernizatsiya dasturining asosiy yonalishlari va ilk natijalari

XXR hukumati to'rt yo'nalish, ya'ni – sanoat, qishloq xo'jaligi, mudofaa hamda fan va texnika sohalarini modernizatsiyalash dasturini amalda ijrosini ta'minlab hozirgi kunda sezilarli darajada iqtisodiy o'sishga erishdi. Dastur asosida tayyorlangan mamlakat olimlarining 1983–1986-yillardagi "Xitoy – 2000-yilda" ilmiy ishlarida bashorat qilingan taxminlar keragidan ortiq ravishda ro'yobga chiqdi. Ular o'sha paytda modernizatsiyalashga kompleks yondashishni, ya'ni sohalar modernizatsiyalashuvida miqdor va sifat ko'rsatkichlarini o'zaro aloqadorlikda olib borish lozimligini hukumat rahbariyatiga taklif etdilar. Shuning natijasi o'laroq 2000-yilga kelib iqtisodiy rivoj-

lanishda sifat va miqdor ko'rsatkichlari taxmin qilingan bashoratlar-dan ham yaxshiroq ko'rinishga ega bo'ldi. Xususan, 2000-yilda 1980-yil bilan solishtirganda YaIM 6,4 martaga oshdi. Bashorat esa, 3,5 – 4,2 martaga ko'payishi taxmin qilingan edi. Sanoatni modernizatsiya-lash natijasida 2003-yilda po'lat ishlab chiqarish 1978-yildagi 31,78 mln. tonnadan 222,34 mln. tonnaga, avtomobil ishlab chiqarish 149 ming donadan 4,44 mln. taga, televizor 4 ming donadan 65,41 mln. taga, shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqarish 82000 dan (1990-y.) 32,16 mln. donaga, elektroenergiya ishlab chiqarish 256,6 dan 1910,8 mlrd. KVt/s ga o'sdi. Iqtisodiyotni bunday darajada o'sishi Xitoyda oqsayot-gan sohalari, xususan kredit-pul tizimi kabi sohalarni rivojlantirishga turtki bermoqda va jahon xo'jaligida Xitoy iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Aholini maishiy texnikalar bilan ta'min-lashda taxminlarga qaraganda ko'proq, yuqoriroq natijaga erishildi. Bashoratga ko'ra, har yuz kishiga 3,25 tadan telefon ta'minotiga erishish kerak edi, amalda esa bu ko'rsatkich 20 tani tashkil qilmoqda. Yuqori iqtisodiy o'sish bilan birga ba'zi ko'rsatkichlarda bashoratlardan past holatlar ham yuzaga keldi. Modernizatsiyalash dinamikasi shahar va qishloqlarda bir tekisda bo'lmadi. Xususan, qishloq aholisining o'rtacha daromadi 1980-yil narxlarida 2000-yilda 498 yuanni tashkil qildi. Bashorat esa, 667 yuan edi. Shahar aholisining o'rtacha daromadi 1563 yuan bo'ldi. Bashorat esa, 1380 yuan edi. Quyida 2000-yil uchun basho-rat qilingan ko'rsatkichlar jadvalni tahlil qilamiz.

6.3.1-jadval

2000-yil uchun bashorat qilingan ko'rsatkichlar⁸

Ko'rsatkichlar	Natija	Bashorat
1980-yilga nisbatan YaIM o'sishi, marta	6,4	3,5 – 4,2
YaIMning aholi jon boshiga ulushi, marta	5	3,5 – 4,2
YaIM bo'yicha Xitoyning jahondagi o'rni	6	5
YaIMning aholi jon boshiga ulushi bo'yicha jahonda tutgan o'rni	149	80 – 100
Elektroenergiya ishlab chiqarish, mlrd. KV/s	1355,6	1220
Telefonlashtirish, har yuz kishiga	20,1	3,25
Sovutkichlar ta'minoti, har yuz kishiga, dona		
Shaharda	25,6	0,6
Qishloqda	2,9	-
Don yetishtirish, mln. tonna	462,18	518 – 535

⁸ Manba: Ли Шангун "Китай в 2000 году".

Go'sht ishlab chiqarish, mln. tonna	61,25	27,8 – 36
Oliy o'quv yurtlarida talabalar soni, mln. kishi	5,56	3,9

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, ba'zi ko'rsatkichlar, xususan, YaIM ni va uni aholi jon boshiga ulushida, elektroenergiya ishlab chiqarishda, telefonlashtirish, sovtkichlar ta'minotida, go'sht ishlab chiqarish va talabalar soni ko'rsatkichlarida bashoratlarga qaraganda ijobiy yutuqlarga erishildi. Shu bilan birga, salbiy ko'rsatkichlar bo'lgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ma'lum ko'rsatkichlarda salbiy holatlarni yuzaga kelishida ba'zi omillar sabab bo'ldi.

Xitoyda modernizatsiyalash maqsadlari ijrosini ta'minlash vositasi sifatida xo'jalik tizimini isloh qilish bo'ldi. Xitoy bosqichma-bosqich, uzluksiz tarzda ma'muriy buyruqbozlikdan bozor iqtisodiga o'tishga erishdi. Hukumat kuchli nazorat qilish va mamlakat xususiyatlarini hisobga olgan holda, kuchli iqtisodiy islohotlar olib borib ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga erishdi. Xitoy muvaffaqiyatining sababi sifatida uning iqtisodiyotini tashqi dunyoga ochilishi va mamlakatning jahon xo'jaligi bilan aloqalarini chuqurlashishi bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Mazkur davlat xorijiy to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni qabul qiladigan yetakchi davlatlardan biriga aylandi. Quyidagi 6.3.2-jadvalga e'tibor qaratamiz.

6.3.2-jadval

Xitoyga jalb qilingan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar va uni jahon ulushidagi ko'rinishi⁹

Yillar	To'g'ridan to'g'ri xorij investitsiya 100 mln.dol.	Jahondagi ulushi (%)	Investitsiya jalb qiluvchi mamlakatlar orasida
1990	34,9	1,80	13
1991	43,7	2,97	12
1992	110,1	6,92	5
1993	275,2	13,30	2
1994	337,7	14,54	2

⁹ Manba: Ван Мэнкуй, Экономика Китая, 2005, asoslangan holda muallif tomonidan tuzilgan.

1995	375,2	12,11	2
1996	417,3	11,95	2
1997	452,6	10,24	2
1998	454,6	7,34	3
1999	403,2	4,66	3
2000	407,7	4,10	6
2001	468,8	6,38	6
2002	527,1	8,10	3
2003	535,1	8,19	3
2006	609,8	9,2	2
2007	710,0	10,02	2
2010	1011,0	12,7	2

Demak, 6.3.2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Xitoyga xorijiy investitsiyalar o‘qimi juda tez sur‘atlarda kirib kela boshlagan. 1990-yilda to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni qabul qilish bo‘yicha dunyoda 13-o‘rinda turishiga qaramasdan 1993-yildayoq bu ko‘rsatkich bo‘yicha dunyoning ikkinchi davlatiga aylanishga ulgurgan. 1998-yilda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida kuzatilgan moliyaviy inqiroz holati Xitoy uchun ham salbiy oqibatlariga olib keldi. Mazkur yillarda xorij investitsiyasini mamlakatga kirib kelishi sekinlashdi. Lekin, bu inqirozdan tez fursatlarda chiqib ketildi va 2002-yildayoq Xitoy to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni qabul qiluvchi birinchi davlatga aylandi. Mana shu to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning eng katta ulushi sanoatga to‘g‘ri keldi (73% dan ortiqrog‘i).

20-asrning 90-yillarida Xitoyga o‘z kapitalini qo‘ygan xorij investorlari tarkibiy tuzilishida yangi tendensiyalar kuzatila boshladi. Investorlar orasida Xalqaro korporatsiyalar, Transmilliy kompaniyalar soni ortib bordi. Statistika qaraydigan bo‘lsak, jahoning eng yirik 500 ta nomoliyaviy kompaniyalarining 400 tasining investitsiyalash loyihalari Xitoyda amalga oshirila boshladi.

Trans Milliy Korporatsiyalar o‘zlarining 400 dan ortiq turli ixtisoslikda markazlarini ochdi. Xitoyda TNK lar investitsiyalarining oshishi va bu bilan kapital talab qiluvchi va texnika talab qiluvchi loyihalarning texnik tarkibi o‘sishi oqibatida mazkur davlatning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o‘rnini anchayin yaxshilashga xizmat qildi. Xorijiy investitsiyalarning ayniqsa, Yansza va Chjusyan delta-lariga yo‘naltirilishi mazkur hududlarda informatsion texnikalar ishlab

chiqarish korxonalari vujudga kelishiga asos bo'ldi. Ayni paytda Xitoy informatsion texnikalar ishlab chiqarishda jahonda AQSh dan keyin ikkinchi o'rinda turibdi.

Demak, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, chuqur islohotlar olib borish, mamlakatni tashqi dunyoga ochilishi xorijiy investitsiyalarni Xitoyga kirib kelishiga asosiy sabablardan bo'lib xizmat qildi. Xorijiy investitsiyalar esa, iqtisod tarmoqlarida modernizatsiyalash jarayonini avj olishiga asosiy dastak bo'lib xizmat qilmoqda. Hozirgi kunga kelib, asosiy sanoat tarmoqlari joylashgan Xitoyning katta-katta shaharlari rivojlanish bo'yicha dunyoning eng rivojlangan davlatlari bilan raqobatlasha oladi.

Ko'rinib turibdiki, modernizatsiyalash darajasi Xitoyda o'rtacha daromadli mamlakatlar darajasidan ancha yuqori. Shunday bo'lsa-da, bu jarayon davom etmoqda va yangi asrda u rivojlangan davlatlar darajasiga chiqilishi kutilmoqda.

2002-yil noyabrda XKP XII syezdida mamlakatda modernizatsiyalash jarayoni yangi asrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmasligi jadal rivojlantirilishi yana bir bor ta'kidlandi. Mazkur syezd Xitoyda YaIM hajmini 2020-yilda 2000-yilga nisbatan to'rt barobarga oshirilishi va mamlakatda "mo'tadil farovon jamiyat" qurish masalalarini ham muhokama qildi. Shuningdek, YaIMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ulushini 3000 AQSh dollariga yetkazish ta'kidlandi. Ushbu syezddan so'ng, "farovonlik darajasini"ni belgilovchi parametrlar bo'yicha 2020-yil uchun dastlabki bashoratlash amalga oshirildi. Xususan, shahar va qishloqlarda kutilayotgan daromad darajasini mos ravishda shaharlarda kishi boshiga 18 ming yuan, qishloqlarda esa 8 ming yuanga (2000-yil narxlarida) chiqarish mazkur bashoratning bir qismi bo'ldi. Shuningdek, Engel koeffitsientini (Fuqorolar xarajatlari-ning oziq-ovqatga ketadigan ulushi) hozirgi 46 %dan 35 % ga pasaytirish, hozirda jami o'rta maktablar bitiruvchilarini atigi 11% oliy o'quv yurtlariga kirishmoqda, ular ulushini 25 %ga ko'tarish, aholini shaxsiy kompyuterlar bilan ta'minlashni hozirgi 9,7 %dan 20%ga yetkazish, urbanizatsiya darajasini hozirgi 36,2 %dan 56 %ga kengaytirish kabi bishoratlarni ham olimlar tomonidan bashoratlanmoqda. "Mo'tadil farovon jamiyat qurish" metodologiyasi Xitoy Fanlar Akademiyasi tomonidan "Xitoyni barqaror rivojlantirish strategiyasi – 2004 hisoboti"da taklif qilindi. Mazkur hisobot 2004-yil martda ommaviy axborot vositalarida nashr qilindi. Xitoy olimlari fikricha, agar

“mo‘tadil farovon jamiyat” qurish jarayoni turli sohalarda, xususan, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada, madaniyatda va siyosatda o‘zgarishni aks ettirsa, bu jarayon natijalarini baholashda rivojlanishning haqqoniyligi, sifati hamda dinamikligini ifodalovchi kompleks ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish zarurligini ta’kidlashdi. Shu maqsadda ular guruhlarga bo‘lingan 40 ta ko‘rsatkichlar tizimini taklif qilishdi. Rivojlanishning dinamikligi sanoatlashtirish, informatizatsiyalash, marketizatsiyalash, jamiyatni urbanizatsiyalash, shuningdek, fan va texnikaning innovatsion salohiyati kabi muhim jarayonlar ko‘rsatkichlarini ifodalovchi omil sanaladi.

Quyida xulosa qilib, Xitoy regionlarida 2010-yildagi modernizatsiyalash darajasi ko‘rsatkichlarini keltiramiz.

6.3.3-jadval

Xitoyning turli regionlarida modernizatsiya darajasi, 2010-yil¹⁰

Regionlar, davlatlar	Birinchi modernizatsiya (amalga oshish % da)	Ikkinchi modernizatsiya (indéks)	Kompleks modernizatsiya (daraja ko‘rsatkichlari)
Gonkong	100	98	97
Tayvan	100	98	96
Aomen	100	96	85
Pekin	94	86	87
Shanxay	97	96	83
Tyanszin	93	84	76
Lyaonin	89	61	60
Sneseyan	86	66	57
Seyansu	86	66	56
Guandun	83	65	59
Xeylunshyan	83	55	44
Shensi	81	58	48
Szilin	81	42	38
Xubey	81	61	54
Fuseyan	80	60	54
Shandun	79	42	43
Shansi	79	42	42

¹⁰ Manba: Xitoyni modernizatsiyalash hisoboti – 2011.

Chunsin	79	50	49
Xitoyda jami	78	71	62
Jahonda o'rtacha	90	49	54
Yuqori daromadli davlatlar	100	100	100
O'rta daromadli davlatlar	93	48	45
Past daromadli davlatlar	59	29	27

Har bir yo'nalish bo'yicha bittadan yettitagacha aniq baholashning mezonlari tanlandi. Xususan, informatizatsiyalash darajasini to'rtta mezon bilan baholash mumkin. Bular: aloqa xizmatining o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan hajmi; har yuz kishiga to'g'ri keladigan kompyuterlar soni; internetga kirish (har ming kishiga); har yuz kishiga telefonlar soni. Marketizatsiya darajasi esa, YaIM da xorijiy investitsiyalar hajmi; tashqi savdo ulushi, asosiy fondlarda va yalpi umumiy investitsiyalarda nodavlat sektorining ulushi kabi mezonlar bilan baholanadi.

Rivojlanishning sifat omili tannarx rentabelligi, aylanma mablag'larning tez aylanishi, jamiyatda kuzatilayotgan jarayonlar (ishsizlik, Engel koeffitsienti, o'rtacha umr ko'rish), shuningdek, iqtisodiyotning intensivligi va ekologikligi kabi qator ko'rsatkichlarni ifodalashga xizmat qiladi.

Rivojlanishning haqqoniyligi omilini baholashda shahar va qishloq aholisining daromadlari o'rtasidagi tafovut hamda mamlakatda ayol va erkaklar teng ravishda ta'lim olishi va ishlashi ko'rsatkichlarini aks ettiradi. 2020-yilda Xitoy 12 ta asosiy yo'nalishda yuqori o'sish sur'atiga erishishni mo'ljallamoqda. Mazkur yo'nalishlar quyidagilar:

1. Kompleks salohiyat bo'yicha uchta davlatdan biri bo'lishi;
2. Urbanizatsiya darajasini 55-56%ga chiqarish, aholini kichik, o'rta va katta shaharlarda taqsimlanishini ratsional tizimini takomillashtirish;
3. Dengizoldi hududlarda aholi o'sishini 2010-yilda "0" ga tenglashtirishga, 2015-yilda resurslar xarajatini "0" ga keltirishga va 2020-yilda ekologik yomonlashuvini "0" ga olib kelishga erishish;
4. Informatizatsiyalash va raqobatbardoshlikda yetakchi 15 ta davlatlar qatoriga kirish;

5. Iqtisodiy o'sishga fan-texnika omili hissasini 65 %ga yetkazish;

6. Mamlakatni barqaror rivojlantirishda don, energiya va resurslar bilan to'liq ta'minlashga erishish;

7. Milliy xavfsizlikning bazaviy parametrlari oziq-ovqat, ekologik transport va sanitarlar bilan ta'minlash va shu kabilar.

Qo'yilgan maqsadlar ijrosi uch bosqichda amalga oshiriladi. Bular 2010, 2015, 2020-yillar. Misol keltiradigan bo'lsak, Xitoy olimlarining ta'kidlashlaricha, ITTKI ga ajratiladigan xarajat YaIM ning mos ravishda 2010-yilda 2 % ga, 2015- yilda 2,5 % ga va 2020-yilda 2,8 % ga yetkazish mo'ljallanmoqda.

Rivojlanishning yangi konsepsiyasi. Yangilangan Xitoy hukumati mamlakatda o'rtacha farovon jamiyatni barpo qilish maqsadini nazarda tutgan holda Xitoy rivojlanish modeli va "Syaokan" jamiyat qurish metodlariga qayta o'zgartirishlar va tuzatishlar kirita boshladi. 2003-yil oktabrda Xitoy kommunistik partiyasi markaziy kengashi III plenumida me'yoriy hujjatlarga rivojlanishning yangicha yondashuvi kiritildi. Birinchi bor boshqaruv partiya hujjatlarida rivojlanishni kompleks, ko'p qirrali jarayon sifatida talqin etila boshlashdi. Ya'ni, rivojlanish faqatgina ma'lum ko'rsatkichlarda aks etmay, balki, xalq xo'jiligidan barcha sohalarini qamrab olishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, Xitoy hukumati rahbari Xu Szintao rivojlanishning ilmiy konsepsiyasiga ko'proq urg'u berdi. Modernizatsiyalash jarayonida rivojlanishning ilmiy konsepsiyasidan kelib chiqqan holda, barcha sohalar o'zaro uzviy bog'liq rivojlanishini ta'minlash lozim.

Xitoy davlat kengashi bosh vaziri ham mazkur yondashuvni qo'llab-quvvatlab, 2003-yil noyabr oyida "Vashington Post" gazetasi-ga bergan intervyusida Xitoydagi iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining o'zaro teng emasligini, shahar va qishloqlar orasidagi tafovut kattaligini va bular natijasida yuzaga kelayotgan muammolar haqida ko'p mulohazalarni bildirib o'tdi. Mazkur disbalanslik holatlarini bartaraf etish kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lmoqda. Shu bilan birga, boshlangan islohotlarni ratsional tarzda davom ettirish, xususan, ochiq siyosat islohotlari, mulkchilikda davlat sektorini kamaytirish, xususiy mulkchilikni ko'paytirish borasida qator chora-tadbirlarni davom ettirish lozim. Bundan tashqari, rivojlanishning yangi yo'nalishlarida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, urbanizatsiyalashni jadallashtirish, xizmat sohasida bandlikni oshirish, sha-

har va qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirish, boylar va kambag'allar o'rtasidagi tafovutni qisqartirish, o'rta qatlamni ko'paytirish va boshqa qator tadbirlar ko'zda tutilgan. Mazkur tadbirlar Xitoyning istiqbolda yanada rivojlanishiga sabab bo'luvchi omillardan bo'ladi.

XXRning ilmiy g'oyasi 20-asr 90-yillar o'rtalariga kelib mamlakatni rivojlanishida istiqboldagi bashoratlarni 2020-yildan ham uzoq muddatlarga uzaytirishga qaratildi. Bashaoratlash nafaqat iqtisodiy o'sishni qamrab oladi, balki, tarmoqlararo sifat ko'rsatkichlarini ham nazarda tutadi. Shu bilan birga, yangi asrda mamlakat modernizatsiya darajasini jahonning yetakchi davlatlariga tenglashtirish ko'zdan qochirilmadi. Mamlakatni istiqbolda bashoratlash bo'yicha qator olimlar faoliyat olib borishmoqda. Shulardan biri taniqli Xitoy iqtisodchisi Li Szinvendir. U 1996–1997-yillarda istiqbolni bashoratlash dasturini yaratdi. Uning bashoratida keltirilgan asosiy holatlar quyidagicha:

1. Xitoy 2050-yilda ilmiy-texnik jarayonda mamlakatni sanoatlashtirish, informatizatsiyalash, tayanch tarmoqlarni rivojlanishi va bular natijasida rivojlangan davlatlarni quvib o'tishi kuzatiladi;

2. Mazkur vazifa uch bosqichda amalga oshiriladi. 2010-yilda mamlakat YaIM ni 20 trln. yuanga to'g'ri kelishini ta'minlash, 2011–2030-yillar oralig'ida o'rtacha yillik 5,9 %da saqlab qolgan holda, 2030-yilda YaIM ni 62 trln. yuanga ko'tarish birinchi bosqichni o'z ichiga oladi. 2031–2040-yillarda 4,3 % ga yetkazgan holda, yangi asr o'rtalarida YaIM hajmini 153 trln. yuanga va o'rtacha jon boshiga 100000 yuanga yetkazishni ta'minlash, o'z navbatida, ikkinchi va uchinchi bosqichlarni qamrab oladi.

3. Xalq xo'jaligi tarkibida iqtisodiy o'sish yuqori sur'atlar bilan olib boriladi.

Umuman olganda, Li Szinvenning mazkur bashorati yuqori optimistik ruhga ega. Bashorat 1998-yilda bo'lib o'tgan moliyaviy inqirozga yaratilib bo'lingan edi. Bundan tashqari, u yuqori o'sish sur'atini ta'minlovchi resurslar, tashqi bosimlar kabi muhim iqtisodiy omillarni hisobga olmagan. Albatta, bu kabi omillar har qanday iqtisodiy o'sishga katta ta'sir ko'rsata oladi.

Yana bir diqqatga sazovor bashoratga nazar tashlasak, bu bashorat XXR Davlat Statistika Qo'mitasi xodimi Syuy Syanchun tomonidan 2002-yilda ishlab chiqildi. Uning mazkur bashoratida quyidagi holatlarni ko'rishimiz mumkin.

Syuy Syanchun Xitoy YaIM ni yillar sayin o'sish sur'ati pasayib borishini ta'kidlaydi. Uning bashorati Li Szinvenning bashoratiga qaraganda soddaroq va YaIM ning mutlaq hajmi bo'yicha Xitoy va AQSh o'rtasidagi kim o'zarga o'ynash musobaqasi istiqbollarini baholaydi. 2050-yilda Xitoy iqtisodiy rivojlanish bo'yicha Yaponiyani ortda qoldirishligi chamlanadi. Shuningdek, Syuy Syanchun 2011–2050-yillar oralig'ida yuanni dollarga nisbatan rasmiy kurs bahosi ikki marotabaga oshishini ta'kidlaydi. Asr oxiriga kelib esa, Xitoy iqtisodiyoti AQSh darajasida bo'lishi mumkin. Mazkur bashorat ham kamchiliklardan xoli emas. Xususan, u iqtisodiy o'sishning miqdoriy tomonlarini ko'proq qamrab oladi. Sifat omiliga e'tibor bermagan, bundan tashqari uzoq muddatli istiqbolda saqlanib turuvchi mamlakat iqtisodiyotining davriyligini muvofiqlashtirgan.

XXR iqtisodiyoti rivojlanishini bashoratlashning keyingi ko'rinishlarini shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi taraf olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bashorat alohida optimistik ko'rinishga ega bo'lib, uzoq muddatli istiqbolda Xitoy salohiyatiga asoslanadi. Mazkur bashorat tarafdorlaridan biri Pekin universitetining Iqtisodiy Tadqiqotlar Markazi direktori Lin Ifudir. Uning fikricha, Xitoy 2030-yildayoq AQSh bilan YaIMning mutlaq holati bo'yicha tenglashib oladi va YaIM ning o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan ulushi AQSh ning beshdan biri darajasiga chiqadi. Ikkinchi taraf olimlari esa, avvalo, Xitoy modernizatsiyalash to'g'risidagi yillik hisobotini tayyorlovchilar bashoratlashda ko'proq ehtiyotkorona yondashadilar. Uzoq muddatli istiqbolda Xitoyni modernizatsiyalashning sifat omiliga ko'proq e'tibor berishadi. Ular fikricha, XXI asr o'rtalariga kelib Xitoy o'rtacha jahon modernizatsiya darajasiga ko'tarilishi mumkin. Mamlakatda modernizatsiya darajasi bo'yicha jahonda oldingi 40 davlatdan biri bo'lishi mumkin. 2080-yilga kelib esa, Xitoy iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishi mumkin, asr so'ngida esa, iqtisodiy modernizatsiyalashuv bo'yicha birinchi o'nlik davlatlari qatoridan joy olishi mumkin. Quyida "Xitoyni barqaror rivojlantirish – 2004 hisoboti"dan olingan Xitoy YaIMning oshish dinamikasini ko'rib chiqamiz. Eslatib o'tish joiz, jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar 2000-yil narxlarida ko'rsatilgan. Mazkur bashorat 2001-yilda qilingan bo'lib, YaIM o'sishining 2000-yildan 2100-yilgacha bo'lgan dinamikasini o'z ichiga oladi.

Xitoyning 2000–2100-yillargacha mo'ljallangan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha bashorati¹¹

Yillar	YaIM, mlrd.doll.	Yillik o'sish, %
2000	1080,0	7,5
2005	1550,5	7,5
2010	2226,0	7,5
2020	4178,3	6,5
2025	5460,9	5,5
2030	7137,2	5,5
2040	11083,9	4,5
2050	15634,9	3,5
2060	21012,0	3,0
2100	68542,0	3,0

Mazkur bashorat ham kamchiliklardan xoli emas. Ko'pchilik bashoratlarda bo'lgani kabi, bunda ham iqtisodiy o'sish davriyligi hisobga olinmagan, shuningdek, tashqi omillarni ham nazarda tutmagan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. XXRda "To'rtlik modernizatsiyasi" dasturi qachon ishlab chiqilgan?
2. Dasturda qanday yonalishlar asosiy deb qabul qilingan?
3. Xitoyda iqtisodiyotni modernizatsiyalash amalga oshirish bosqichlari.
4. Modernizatsiya dasturining ilk natijalari qanday boldi?
5. Xitoy modernizatsiya dasturining asosiy yonalishlarini sanab o'ting.
6. Modernizatsiya dasturining kelajagi haqida nima deya olasiz?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. XXR ning "To'rtlik modernizatsiyasi" dasturidagi qaysi yonalishga kam e'tibor berilganligini aniqlang.
2. Xitoyda diversifikatsiya jarayoni natijalarini tahlil qiling.

¹¹ Manba: Xitoyni modernizatsiyalash hisoboti – 2004.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. *Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.* /I.A.Karimov. –T.: O'zbekiston, 2010. 80-b.
2. Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari», –T.: "O'zbekiston", 2009.
3. *O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot, O'z.R FA Iqtisodiyot instituti, –Toshkent, 2006.*
4. Баев И.А., Кожин С.В. *Новый подход к реструктуризации компании.* //Финансы.-2001.-№12. –С.11-16.
5. Гинзбург А.И. *Экономический анализ.* –СПб.: Питер, 2007. –С.208.
6. *Конкурентоспособность и модернизация экономики: В 2-х кн. /Отв.ред. Е.Г.Ясин. Кн.1. –М.: Издательский дом ГУ ВШЭ, 2004, –С.456.*
7. *Нуреев Р. Модернизация экономики: концепции и средства.* –М., 2005.
8. [http://www.soob.ru/n/2005/10/c/6.](http://www.soob.ru/n/2005/10/c/6)

7-BOB. JANUBIY OSIYO MINTAQASI MAMLAKATLARIDA MODERNIZATSIYALASH VA DIVERSIFIKATSIYALASH JARAYONLARI

Darsning maqsadi: Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlari bosqichlari va xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Kalit soʻzlar: *modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, Hindiston, Pokiston, Nepal, Shri-Lanka, Butan, Maldiv, Bangladesh, qishloq xoʻjaligi, oʻrmonchilik, baliqchilik, xorijiy kapital, farmatsevtika, kimyo, elektrotexnika, elektronika, donor, xomashyo, import, eksport, tashqi qarzarlar, xususiy sarmoya, xususiy pul joʻnatmalari.*

7.1. Mintaqa mamlakatlarida modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish bosqichlari va xususiyatlari

1980-yillarning oʻrtalaridan boshlab mintaqa mamlakatlaridagi iqtisodiy siyosatda eksportga yonaltirishni tashkil etish kursi asta-sekin amalga oshirila boshlandi. Butun iqtisodiyotda esa (ayniqsa, ichki xoʻjalik va tashqi iqtisodiy faoliyatda), erkinlashtirish jarayoni boshlandi.

Bangladesh iqtisodiyotining asosini uning qishloq xoʻjaligi tashkil etadi. Mamlakat YaIM tarkibining 60% xizmat koʻrsatishga, 20% qishloq xoʻjaligi, oʻrmonchilik va baliqchilikka hamda 20% sanoatga toʻgʻri keladi Uning qayta ishlash sanoatidan jut, choy, shakar, toʻqimachilik, yogʻochni qayta ishlash, tamaki, teri va oyoq-kiyim, oziq-ovqat sanoatlaridan iborat. 1970-yillarda tikuvchilik sanoatining gurkirab rivojlanishi natijasida mamlakatda xomashyo importiga, uskuna va lekalolariga hamda xorijiy firmalar buyurtmasiga asoslanib ishlaydigan tayyor kiyimlar yetkazib beruvchi fabrikalar paydo boʻldi. Undan tashqari, mamlakatda bir qator metallurgiya va mashinasozlik zavodlari ham mavjuddir. Hozirgi kunda xorijiy kapitalga asoslangan zamonaviy farmatsevtika, kimyo, elektrotexnika, elektronika tarmoqlari rivojlanmoqda.

Uning eksport hamkorlari: AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya; import hamkorlari: Hindiston, XXR, Quvayt, Singapur va Yaponiya hisoblanadi. U xorijiy iqtisodiy yordamni qabul qiluvchi eng yirik davlat boʻlib, oʻzining 20% budjetini mana shu yordam orqali amalga oshiradi.

Bangladesh sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda xorijiy sarmoyalardan, ayniqsa to'g'ridan to'g'ri xorijiy sarmoyalardan keng foydalanadi. Mamlakatda modernizatsiya va diversifikatsiya larayonlari ham xorijiy sarmoyalar evaziga amalga oshirilmogda.

Butan qirolligi iqtisodiyoti tarkibi 20% ni qishloq xo'jaligi va o'rmonchilik; 45% sanoat; 35% xizmat ko'rsatish sohaslaridan iborat bo'lib, unda ish bilan band bo'lganlarning 44% agrar sektorda; 17,2% sanoatda; 38,8% xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi. Mamlakat 1974-yildan boshlab chet el sarmoyasini qabul qilish uchun ochildi va asosan, xorijiy investitsiya hamda xorijiy iqtisodiy yordamga muhtojlik bilan bog'liqdir. Uning iqtisodiyoti Hindiston bilan bevosita bog'langan bo'lib, u mamlakat budjetining 60% va import tovarlarini sotib olishning 75% ni ta'minlab beradi. Bytan yiliga o'rtacha 50–100 mln. AQSh doll.lik moliyaviy yordamni qabul qiladi.

Maldiv Respublikasining ustuvor tarmoqlari xizmat ko'rsatish bo'lib, uning mamlakat YaIM dagi ulushi 74% ni tashkil etadi. 1980-yillardan boshlab mamlakatdagi iqtisodiy o'sish sur'ati yiliga 8–10% dan iborat bo'ldi. Mana shu davrdan boshlab mamlakatdagi tayanch hisoblangan baliqchilik sohasini rivojlantirishdan turizmni rivojlantirishga yonaltirilgan tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Mamlakat iqtisodiyotining tarkibi diversifikatsiyalana boshlandi, ya'ni, ustuvor yonalishlarni rivojlantirish bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi, baliqchilik va dengiz marjonlarini qazib olish (12%); sanoat va qurilish (15%) sohalari ham rivojlanmogda. Mazkur mamlakat ham xorijiy iqtisodiy yordamga muhtoj hisoblanib, u yiliga o'rtacha 50 mln. AQSH doll.ni tashkil etadi.

Nepal – eng kam rivojlanlangan mamlakatlar qatoriga kirib, aholining 38% kuniga 1 AQSh doll.gacha bo'lgan qiymatga istiqomat qilishadi. Mazkur mamlakatda ham turizm, gidroenergetika sohaslarini va xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali o'z iqtisodiy o'sishini tezlashtirmogda.

Undagi tarmoqlar tarkibiga kelsak, mamlakat YaIM ni 38% qishloq xo'jaligida (undagi bandlar 76% ni tashkil etadi); sanoatda 21% (bandlar 6%) va xizmat ko'rsatishda 41% yaratiladi. Iqtisodiyotda modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlari juda sust amalga oshirilmogda.

Nepal ham boshqa Janubiy Osiyoning rivojlangan mamlakatlari singari chet el yordamiga muhtoj bo'lib, uning davlat budjetini 30% xorijiy sarmoyadorlar tomonidan ta'minlanadi. Mamlakatdagi asosiy xorijiy kapital Hindistondan kirgan.

Pokiston iqtisodiyotidagi tarmoqlar tarkibida qishloq xo'jaligi va baliqchilikning mamlakat YaIM dagi ulushi 22%ni, sanoatda 26%ni va xizmat ko'rsatishdagi ulushi 52%ni tashkil etmoqda. Uning sanoat tarmoqlari tarkibi ham nisbatan diversifikatsiyalangan bo'lib, qayta ishlash sanoatining mamlakat YaIM dagi ulushi 10% ni tashkil etadi. Mazkur sanoat tarmoqlari orasida uning to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatlari muhim o'rinlarni egallamoqda. Undan tashqari, kimyo va metallurgiya sanoatlari ham rivojlanmoqda. Mamlakat eksportining asosiy bandlarini oziq-ovqatlar, teri xomashyosi, to'qimachilik, tikuvchilik va metallni qayta ishlash sanoatlari hamda hunarmandchilik mahsulotlari egallaydi.

Pokiston kapitalni import qiluvchi yirik davlat hisoblanib, u kapitalni mamlakatga jalb qilishda xorijiy kreditlar va qarzarlar, bevosita xususiy sarmoya, xususiy pul jo'natmalari shakllarida jalb etmoqda.

Xullas, Pokiston iqtisodiyotida modernizatsiya jarayoni ancha sekin amalga oshirilmoqda, lekin uning sanoat tarmoqlari nisbatan, diversifikatsiyalangandir.

Shri-Lankaning iqtisodiy siyosatida 1970-yillar oxirida tub buri-lish yuz berib, unda mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi-ning asosi – uning tashqi imkoniyatlari va sharoitlari qilib belgilandi. Bundan maqsad jahon bozoriga o'z mahsulotlarini va ishchi kuchini olib chiqishdan hamda iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish-dan iboratdir. Shular qatorida, 1983-yilda tamil separatistlari tomonidan shimol va shimoli-sharqda boshlangan qurollangan etnik kelish-movchiliklarga qarshi kurash ham mamlakatning asosiy maqsadlaridan. Uning iqtisodiyoti tarmoqlari tarkibida qishloq xo'jaligi va baliq-chilik (17%), sanoat va qurilish (26%), xizmat ko'rsatish (58%) soha-lari asosiy o'rinni egallaydi.

Uning sanoat tarmoqlaridan qayta ishlah tarmog'ida choy, kauchukni qayta ishlash va qimmatbaho toshlarga ishlov berish korxonalari ko'pchilikni tashkil etadi. Shu bilan birga, Shri-Lankaning sanoat tarmoqlari yetarlicha diversifikatsiyalangan bo'lib, ularda to'qimachilik sanoati mahsulotlaridan boshlab, hattoki neftni qayta ishlash va metallurgiya, mashinasozlik (avtomobillarni yig'ish, qish-loq xo'jalik mashinasozligi va yengil hamda og'ir sanoatlar uchun uskunalar) sanoatlari rivojlanmoqda.

Mamlakat tomonidan iqtisodiyotga bevosita xorijiy sarmoyalarni jalb qilish miqdori 4 mlrd. AQSh doll.ni tashkil etib, u yiliga 200 mln.

doll.dan iborat. Uning asosiy donorlari Yaponiya, AQSh, Hindiston hisoblanadi.

Mintaqa mamlakatlarida modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlari asosan, 1960-yillardan boshlanib, uning 2- va 3-bosqichlari mos holda 1980 va 2000-yillarga to'g'ri keladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlaridagi iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlari, agarda Hindistondagi jadal sur'atlarni va Pokistonning harbiy sohadagi diversifikatsiyasini hisobga olmaganda, juda sust ketmoqda. Uning sabablaridan asosiysi bu kerakli mablag'larning yetishmasligidir.

7.2. Modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi

Mintaqa mamlakatlarining barchasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlari turli dastaklar orqali (me'yoriy-huquqiy hujjatlar) davlat tomonidan qollab-quvvatlanadi.

Mintaqa mamlakatlari orasida Hindiston davlati iqtisodiy salohiyati nuqtayi nazaridan eng katta mamlakat bo'lib, undan keyingi pog'onalarni Pokiston, Shri-Lanka, Maldiv Respublikasi, Butan Qirolligi va rivojlanayotgan mamlakatlarning eng qoloq hamda qashshoq qismini tashkil etuvchi Bangladesh, Nepal egallaydi.

Bangladeshning pul-kredit sohasi nisbatan rivojlangan va diversifikatsiyalangan bo'lib, uning bank sektori 38 ta bankni tashkil etadi. Ulardan: Markaziy bank vazifasini Bangladesh banki bajaradi, 3 ta milliy tijorat banklari (Sonal Bank, Janata Bank va Agrani Bank), 7 ta maxsus va 28 ta xususiy hamda 14 ta xorijiy banklar faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatda 2 ta fond birjasi (Dakka va Chittagon) faoliyat yuritib, unda milliy valyuta kursi talab va taklif asosida shakllantiriladi. 1993-yilning oktabr oyidan boshlab, uning milliy valyutasi – taka to'lov balansining joriy hisoblarini yurgizish uchun konvertatsiyalangan. 2006-yilda mamlakatdagi o'rtacha yillik inflatsiya darajasi 7,2% ni tashkil etdi. Mamlakat budjetining 80% ni soliqlar tashkil etadi. Soliqlar hajmi mamlakat YaIM ning 8% ga to'g'ri keladi.

Pokiston iqtisodiy siyosatiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri – bu nafaqat davlatning xo'jalik faoliyatini, balki xususiy tadbirkorlikni ham qollab-quvvatlashdir. 1960-yillardanoq mamlakatda xususiy oila-

viy (Adamji, Daudlar, Saygollar, Xabiblar, Xarunlar) asosda moliya-sanoat guruhlari shakllana boshladi. Ular, o'z navbatida, iqtisodiyotdagi yetakchi o'rinlarini davlatning yordamida egalladilar. Bir qator tarmoqlarda hali ham mayda ishlab chiqarish va hunardmanchilik saqlanib qolmoqda. Ulardagi bandlar soni yirik korxonalaridagi bandlar sonidan ko'pdir.

1970-yillarda mamlakatning bir qator sanoat tarmoqlarida, savdo-da, bank va sug'urta sohasida amalga oshirilgan iqtisodiyotni milliy-lashtirish choralari natijasida davlatning roli yanada ortdi.

Pokiston hukumati zamonaviy iqtisodiy siyosati xususiy sektorni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, unda mamlakatdagi investitsion faollikni rag'batlantirish maqsadida xususiy sektorga muhim imtiyozlar berilmoqda. Shu munosabat bilan mamlakatda oxirgi yillarda davlat korxonalarini xususiylashtirish ishlari amalga oshirilmogda. Uning maqsadi esa, davlat daromadlarini ko'paytirish, tovar va xizmatlar miqdori va sifatini yaxshilash, korrupsiya uchun imkoniyatlarni kamaytirish va mamlakat moliyaviy bozorlarining barqaror bo'lishini ta'minlashdan iboratdir. Mamlakat iqtisodiy siyosatining boshqa muhim yonalishi – bu eksportga yonaltirilgan sanoat zonalarini tashkil etish bilan bog'liq bo'ldi.

Mamlakatning pul-kredit sohasi yetarlicha rivojlangan va diversifikatsiyalangan. Pokistondagi 25 ta milliy banklardan 15 nafari xususiy hisoblanadi va ulardan tashqari 21 ta xorijiy bank faoliyat ko'rsatadi.

Uning tarmoqlar tarkibidagi davlat xarajatlarida harbiy sohadagi (25%) va davlat qarzi bo'yicha (40%) xarajatlar ustunlik qiladi.

Mintaqa mamlakatlarining iqtisodiyotlarida modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlari davlat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanishi uchun ularga faqat qo'shimcha moliyaviy mablag'lar yetishmaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, har bir mamlakat o'z iqtisodiy rivojlanishida mazkur jarayonlarni amalga oshirmasdan iloji yoqdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Mintaqa mamlakatlarida modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish bosqichlari qaysi davrlarni o'z ichiga oldi?*
2. *Mintaqa mamlakatlarida mazkur jarayonlarning asosiy xususiyatlari nimalardan idorat?*

3. *Shri-Lankaning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi qanday maqsadni ko'zlaydi?*
4. *Pokiston hukumatining zamonaviy iqtisodiy siyosati nimalardan iborat?*
5. *Modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi nimalarda o'z aksini topgan?*
6. *Pokistonda nechta eksportga yonaltirilgan sanoat zonalari tashkil etilgan va ularning vazifalari nimalardan iborat?*

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Mintaqa mamlakatlaridan Pokiston va Hindistondagi modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarini bir-biriga qiyoslang.
2. Ko'pchiligida xizmat ko'rsatish sohasi (ayniqsa, bank sektori) diversifikatsiyalanganligini tahlil qiling va uning sabablarini aniqlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. –T.: O'zbekiston, 2010. 80-b.*
2. *Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari», –T.: "O'zbekiston", 2009.*
3. *Bangladesh Economic Review 2006, Ministry of Finance, Government of the People's Republic of Bangladesh, January 2007.*
4. *Nepal and the World, A Statistical Profile 2006. Economic Survey, Fiscal Year 2005/06, Ministry of Finance, Government of Nepal.*
5. *Pakistan Economic Survey. <http://www.state.gov/p/sa/ci/pk/>*
6. *<http://www.state.gov/p/sa/ci/bg/>*
7. *<http://www.unescap.org/stat/data/apif/index.asp>
<http://www.worldbank.org/>*
8. *<http://www.unescap.org> <http://www.worldbank.org>*
9. *<http://www.worldbank.org/>*
10. *<http://www.maldives-info.com/>*

8-BOB. HINDISTONDA IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH VA DIVERSIFIKATSIYALASH

Darsning maqsadi: Hindistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash xususiyatlarini o'rganib chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: *xorijiy sarmoyalar, milliy sanoat, zamonaviy og'ir sanoat tarmoqlari, oziq-ovqat sanoati, texnologik qoloqlik, neftni qayta ishlash, kompyuter dastgohlari, hisoblash uskunalari, avtonomiya.*

8.1. Hindistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlari xususiyatlari

Postkolonial Hindiston industrial ishlab chiqarishi o'zining mamlakat YalM dagi ulushining ancha past darajasi (6,6%) bilan tavsiflanadi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan industrialashtirish jarayoni mamlakat sanoat tarkibida sifat jihatdan o'zgarishlarga olib keldi. Mana shu jarayon sanoat ishlab chiqarish sektorini mamlakat iqtisodiyotidagi eng tez rivojlanayotgan yonalishlardan biriga aylantirdi va hozirda bu soha zamonaviy yuqori texnika hamda texnologiyalar, uskuna va jihozlar bilan ta'minlanmoqda.

Hindistonda jami ishda band bo'lgan aholining atigi 1/5 qismi sanoatda ishlaydi. Hindiston an'anaviy yengil va oziq-ovqat sanoati mamlakatidan tobora zamonaviy og'ir sanoat tarmoqlari mamlakatiga aylanib bormoqda. Hindistonning g'arbida asosiy yetibor yengil sanoatga qaratiladi, uning asosi – shaxsiy biznes. G'arbda 1950-yildan boshlab og'ir va ishlab chiqaruvchi sanoat rivojlana boshlagan (matallurgiya va ko'mir qazish). Bu soha keyinchalik raqobatni ko'tara olmay o'z rivojlanishida to'xtab qolgan. Milliy sanoatning bunday holatga tushib qolganligining sababi 1950-yildan boshlab sanoatda izolatsion va faqat o'z kuchiga ishonadigan siyosatdur. Bu siyosatning oqibati Hindistonning umumiy va texnologik qoloqlikdadir.

Hindistonning yengil sanoati kasbchilikda idish-tovoq, kiyimlarni ishlab chiqarish bilan ko'rsatilgan. Mustamlakachilik davridayoq Hindistonda to'qimachilik sanoati yuqori darajada rivojlangan edi.

Hozirgi kunda Hindistonda yengil, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, kimyo, oziq-ovqat, neftni qayta ishlash, rangli metallurgiya, qora metallurgiya sanoatlari rivojlangan. Iqtisodiyotning asosini esa metallurgiya, mashinasozlik va kimyo sanoatlari egallamoqda.

Hindistonda Rixand Singrauli yoqilg'i energetika majmuasi, Bixilai, Bokaro, Visakxapatnam qora metallurgiya kombinatlari, Chittaranjan, Ranchi, Xardvar og'ir mashinasozlik zavodlari, Barauni va Sindr neftni qayta ishlash zavodlari joylashgan. Bunday yirik korxonalar, ayniqsa, "Hindiston Ruri" deb ataladigan Damodlar vodiysi bo'ylab keng tarqalgan.

Hindistonda yengil sanoat Amritsar, Dehli, Jaypur, Kanpur, Lanxnau, Agra, Kalkutta, Visakxapatnam, Ollohobod, Ahmadobod, Trombey, Haydarobod, Xaura, Kayamputtur, Maduray, Tuttukuddi, Solapur, Indaur, Vadodara shaharlarida rivojlangan.

Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati – Amritsar, Dehli, Jaypur, Kanpur, Lanxnau, Agra, Ahmadobod, Kalkutta, Xaura, Ollohobod, Ahmadobod, Trombey, Xardvar, Bombay, Puna, Haydarobod, Chittaranjar, Ranchi, Jamshedpur, Varanasi, Baxopal, Indaur, Vadodara shaharlarida rivojlangan.

Oziq-ovqat sanoati Darjiling, Gorakxpur, Kalkutta, Mangaluru shaharlarida taraqqiy etgan.

Rangli metallurgiya Sangraul, Korba, Xirakud, Alvae, Udaypur, Xauro shaharlarida rivojlangan.

Kimyo sanoati Nangal, Dehli, Kanpur, Varanasi, Sindri, Xauro, Kalkutta, Visakxapatnam, Vidjayavada, Haydarobod, Neyveli, Kayamputtur, Bangalor, Tuttujuddi, Kochin, Alvae, Mangaluru, Bombay, Trombey, Mitxapur, Vadadara, Koma, Ahmadobod shaharlarida rivojlangan.

Neftni qayta ishlash Trombey, Mathura, Digboy, Guvaxati, Kochin, Visakxapatnam shaharlarida rivojlangan.

Sanoat ishlab chiqarishi oxirgi 10 yillikda 2,1 martaga o'sdi. lekin uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 30 % dan 20 % gacha qisqardi. Sanoat ishlab chiqarish darajasi juda past ahvolda, ya'ni bir kishiga 90 doll. hisobida. Yoki jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan 10 marta kam.

Sanoat ishlab chiqarishning bunday qisqarishi uning tuzilmasidagi ahamiyatli o'zgarishlar bilan kuzatildi. Sanoatning jadal o'sib borgan tarmoqlari bu elektronika, elektrotexnika va transport vositalarini ishlab chiqarish.

Hindistonda avtomobillarni markalar bo'yicha ishlab chiqarish tarkibi, dona¹²				
Avtoishlab chiqaruvchi	Yanvar-avgust, 2004	Yanvar-avgust, 2003	Dinamika, %	Bozor ulushi
DaimlerChrysler India Pvt Ltd	1 151	999	15,22	0,13
Fiat India Pvt Ltd	4997	8306	-39,84	0,57
Ford India Ltd	17258	11 265	53,20	1,97
General Motors India Ltd	15310	8986	70,38	1,75
Hindustan Motors Ltd	11 124	11284	-1,42	1,27
Honda Sael Cars India Ltd	22388	10065	122,43	2,56
Hyundai Motor India Ltd	86449	80625	7,22	9,89
Maruti Udyog Ltd	317187	256 939	23,45	36,30
Skoda Auto India Pvt Ltd	4857	—	—	0,56
Tata Motors Ltd	227 220	173287	31,12	26,00
Bajaj Tempo Ltd	9657	7890	22,40	1,11
Mahindra & Mahindra Ltd	73 829	58282	26,68	8,45
Toyota Kirloskar Motor Pvt Ltd	31 633	25860	22,32	3,62
Ashok Leyland Ltd	30617	26896	13,83	3,50
Volvo India Pvt Ltd	373	227	64,32	0,04
Tatra Trucks India Ltd	85	82	3,66	0,01
Eicher Motors Ltd	11 722	8193	43,07	1,34
Swaraj Mazda Ltd	8038	5787	38,90	0,92
Jami	873 895	694 973	25,75	100,00

Umuman, transport vositalarining mashinalari va dastgohlari ulushi sanoat mahsulotlarining 20 % dan oshdi.

Kompyuter dastgohlari, hisoblash uskunalari ishlab chiqarish asosiy o'rinni egallaydi. Sanoat tarmog'i ichidagi eng yuqori ulushni 25 % kimyo tovarlarini ishlab chiqarish egallaydi. Shu jumladan, farmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqarish darajasi ham ortib bormoqda.

¹² А.М.Медовой, Н.Л. Галишева. Экономика Индии. —М., 2009.

Tarkibiy o'zgarishlar natijasida sanoat sohasida zamonaviy sohalar-ning ulushi ortdi.

Hindiston sanoatini modernizatsiyalash jarayonida uning an'anaviy tarkibi buzilmadi, balki, ular sekin-asta iqtisodiy jihatdan qayta tarkib topdi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ukladida sifatida saqlanib qoldi. Mazkur siyosat mamlakatda ko'pukladli iqtisodiyotni barpo etishga asos bo'ldi va sanoatda xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun beriladigan majburiy litsenziyalashni bekor qildi. Natijada, mamlakatning iqtisodiy salohiyati o'sib bordi va sanoatda raqobatni kuchaytirdi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan industrilashtirish jarayoni oqibatida aholi savodxonligi, uning farovonlik darajasi, tadbirkorlik faolligi o'sib bormoqda.

Shu bilan birga, mamlakatda sanoatning zamonaviy tuzilmasini rivojlantirishda erishilgan yutuqlarga qaramasdan, investision-innovatsion siyosatni amalga oshirishda ayrim kamchiliklar ham yo'q emas. Ulardan asosiylari: milliy bozor sig'imining chegaralanganligi va aksariyat mahsulotlar turlarining raqobatbardosh emasligi.

Globalashuv jarayonining O'zbekiston uchun foydali tomonlari uning xalqaro savdoda faol qatnashishi, xalqaro kapitalni jalb qilish bilan bog'liq yangi imkoniyatlar bilan belgilanadi.

Bu imkoniyatlarni ishga solish uchun esa, O'zbekiston tashqi savdoni yanada erkinlashtirishi, bevosita investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilishni faollashtirish yo'llarini aniqlab, uning natijasida raqobatbardoshlikni kuchaytirishi lozimdir. Bu ishlarni amalga oshirish uchun esa, Hindistonning import o'rni qoplash strategiyasi asosidagi iqtisodiyotni eksportga yo'naltirish siyosati juda ham asqotadi, deb o'ylaymiz.

8.2. Hindistonda sanoat korxonalarini modernizatsiyalashda xorijiy sarmoyalarning o'rni va roli

Hindiston hozirgi kunda o'z liberalligi va transparentligi bilan tavsiflanib, mamlakatning ba'zi sektorlaridagi 100% BXI lari avtomatik tartibda qo'llab-quvvatlash va litsenziya talab qiluvchi sohalaridan tashqari, hukumatning maxsus boshqa ruxsati talab etilmaydi. Hindistondagi BXI larni joylashtirish va jalb etish jarayonlarini muvofiq- lashtiruvchi davlat maxsus agentligini tuzish tajribasi alohida e'tiborga sazovordir. Xususan, 1991-yilda mamlakatda tashkil etilgan xorijiy investitsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi byuroga BXI lar qatnashuvidagi

loyihalarni tasdiqlash va qo‘rib chiqish majburiyatlari yuklandi. Undan tashqari, ustuvor tarmoqlarni aniqlashda u hukumatning konsultantiga aylandi. Avval boshdan, mazkur byuro davlat boshchisi qo‘li ostida bo‘lib, unga muayyan loyihalarni ko‘rib chiqish yuklatilar edi.

Hozirgi kunda umumiy investitsiya oqimining 90% ushbu byuro orqali o‘zlashtiriladi. Alohida ta’kidlash joizki, Hindiston hukumati BXI oqimlarini nafaqat, ustuvor va yuqori rentabelli tarmoqlarga qo‘yilishini, balki, mamlakatning qoloq rayonlariga ham, ularning geografik tomondan teng taqsimlanishini e’tiborga olgan holda sarmoyalash lozimligini qayd etmoqda. Mana shu siyosat chegarasida Hindistonning shtatlari iqtisodiy masalalarni hal etishda va xorijiy investorlar bilan hamkorlik ishlarini olib borishda katta avtonomiyani qo‘lga kiritdilar.

Hindistonda amalga oshirilayotgan investision siyosatni e’tiborga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi ham o‘zining iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgiladi. Ular quyidagilar-dan iborat bo‘lib:

- 1) mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash;
- 2) tashqi iqtisodiy faoliyatni, valyuta bozorini erkinlashtirish;
- 3) milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo‘yicha konvertatsiyalanishini ta’minlash hisoblandi.

Hindistonning asosiy yer osti qazilma boyliklarini qazib olishga kelsak, uni navbatdagi 8.2.1-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

8.2.1-jadval

Hindistondagi asosiy yer osti qazilma boyliklarini qazib olish 1950/07 – 2006/07 m.y. (mln.t.)¹³

	Ko‘mir	Neft	Temir rudasi
1950/51 m.y.	32,3	0,3	3,0
1960/61 m.y.	55,2	0,5	10,9
1970/71 m.y.	76,3	6,8	32,5
1980/81 m.y.	119,0	10,5	42,2
1990/91 m.y.	225,5	33,0	53,7
2000/01 m.y.	322,1	31,9	77,6
2006/07 m.y.	462,0	34,0	172,3

¹³ А.М.Медовой, Н.Л. Галишева. Экономика Индии. –М., 2009. asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Hindiston og'ir sanoatining asosiy qismlaridan biri – bu uning kimyo sanoati bo'lib, undagi asosiy ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar quyidagilardan iborat: nitrat o'g'itlar, fosfat o'g'itlari, kaustik soda, sement mahsulotlari.

Belgilangan ustuvorliklarga muvofiq, mamlakatda quyidagi yo'l bilan investitsiya faoliyatini amalga oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi:

- O'zbekiston iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan o'zgartirishga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish (zamonaviy jihozlar va ilg'or texnologiyalar ko'rinishida);
- Xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish va jalb qilish uchun yanada qulay investitsion muhitni yaratish;
- Mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan barcha turdagi xorijiy sarmoyalarga davlat kafolatini kuchaytirish;
- Hindistonning chet el investitsiyalarini qabul qilish tajribasidan kelib chiqib, qisqa muddatli import o'rnini qoplash siyosatini amalga oshirish;
- Yaqin kelajakda O'zbekistonning eksport salohiyatini yangi texnika va texnologiyalarga hamda innovatsion dasturlarga asoslanib rivojlantirish, uning natijasida esa, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish.

Hindistonning og'ir sanoatining tarkibiga kiruvchi yana bir tarmog'i, uning mashinasozlik tarmog'i bo'lib, undagi ishlab chiqarilgan mahsulotlar va soha rivojlanishining dinamikasini 8.2.2-jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

8.2.2-jadval

Hindiston kimyo sanoatining asosiy mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi, 1950/51 – 2009/10 m.y.¹⁴

	Nitrat o'g'itlar (ming t.)	Fosfat o'g'itlari (ming t.)	Kaustik soda (ming t.)	Sement (mln. t.)
1950/m.y.	9	9	12	2,7
1960/61 m.y.	99	54	99	8,0
1970/71 m.y.	830	229	371	14,3

¹⁴ А.М.Медовой, Н.Л. Галищева. Экономика Индии. –М., 2009. asosida muallif tomonidan tuzilgan, 334 b.

1980/81 m.y.	2164	842	578	18,6
1990/91 m.y.	6993	2052	992	48,8
2000/01 m.y.	11025	3745	1642	99,2
2006/07 m.y.	11607	4546	1929	154,7
2009/2010 m.y.	14500	5870	2100	156,0

Hindistonda aholi sonining ko'pligi va uning hududining kengligiga qarab, mamlakat siyosiy va iqtisodiy hayotdagi asosiy o'rinni, nafaqat janubiy Osiyo mintaqasida, balki Yevrosiyo materigida ham egallaydi. Aynan shuning uchun ham, u bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi asosiy davlatlardan biridir. Xorijiy investorlar uchun Hindistonning asosiy ustunliklari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ichki bozorning kengligi (aholisi 1150 mln. kishi bo'lsa, undan 300 mln. o'rtahol sinfga qaraydi);
- tabiiy resurlarning mavjudligi, boy mineral o'g'itlar bazasi, qishloq xo'jaligida o'zini o'zi ta'minlashi;
- makroiqtisodiy barqarorlikning mavjudligi;
- rivojlangan sanoat ishlab chiqarish bazasining mavjudligi;
- arzon yuqori malakali kadrlarning ko'pligi;
- rivojlangan kapital bozori va keng bank tarmoqlari bilan yuqori rivojlangan moliyaviy sektorning mavjudligi;
- yaqin joylashgan mamlakatlar bozorlariga chiqish imkoniyatining mavjudligi (Bangladesh, Butan, Myanma (Birma), XXR, Nepal va Pokiston bilan chegaradoshligi).

Shular qatorida, Hindistonda og'ir sanoatga qarashli bo'lgan metallurgiya sanoatining asosiy mahsulotlaridan po'lat, cho'yan, aluminiy, mislarni sanab o'tish joizdir.

8.2.3-jadval

Hindiston metallurgiya sanoatining asosiy mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi, 1950/51 – 2009/10 m.y.¹⁵

	Cho'yan (mln.t.)	Po'lat (mln.t.)	Aluminiy (ming t)	Mis (ming t)
1950/51 m.y.	1,7	1,5	4,0	...
1960/61 m.y.	4,3	3,5	18,5	...
1970/71 m.y.	7,0	6,1	168,8	...

¹⁵ Экономика Индии. А.М.Медовой, Н.Л. Галишева, М., 2009 г. asosida muallif tomonidan tuzilgan, 334 b.

1980/81 m.y.	9,6	10,3	199,0	...
1990/91 m.y.	12,2	...	451,1	...
2000/01 m.y.	22,0	30,6	497,6	43,3
2006/07 m.y.	39,7	50,8	719,1	38,5
2009/2010 m.y.	42,0	52,9	725,0	37,2

“2010-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlar konsepsiyasi”ning ishlab chiqilishi asosida tarkibiy islohotlarning eksportga yo‘naltirilgan modeli yotadi. Unga binonan, mamlakat tashqi va ichki bozorlaridagi mavjud talabga moslashish uchun iqtisodiy faoliyatning raqobatbardosh turlarini yaratish va rivojlantirish orqali jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va globallashuv jarayonlarida foydaning eng yuqori va tavakkalchilikning eng past darajasini ta‘minlash mumkindir.

2006/07-moliyaviy yillarda mamlakatda 680 mlrd. Kvt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi yoki mustaqillikga erishganidan so‘ng rivojlanishining 100 baravari miqdorida ishlab chiqarildi. Lekin ushbu 100 baravar o‘shishiga qaramay Hindiston sanoati rivojlangan mamlakatlardan ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha qariyb 10 baravar ortda qolardi. Elektr energiyasi asosiy qismining 80% issiqlik elektr stansiyalari yoqilg‘i shaklida foydalanuvchi toshko‘mir, neft, gaz va lignitlar, 15% elektr energiyasi gidrostansiyalarda ishlab chiqarildi, qolgan qismi atom elektrostansiyalarida ishlab chiqarilardi.

Mamlakat sanoatlashuvi elektr stansiyalarining barcha turlari va shtatlar hukumatining 83% asosiy kuchi va u markaziy hukumatga bo‘y-sunardi. Hukumatning so‘nggi besh yillik davri (2006/07 va 2011\12-moliyaviy yillar)da “ultramega” deyiluvchi ko‘mir, 4000 va undan ko‘p MVt kuchga ega issiqlik va energetik loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutildi. Mamlakatda elektrlashtirishni kuchaytirish yo‘lida hukumat ko‘p miqdorda ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb qilmoqda. 2005-yil aprelda Hindistonda qishloqlarni elektrlashtirish dasturi qabul qilinib, unda barcha dehqon xo‘jaliklari 4 yil davomida o‘z ehtiyojlari yo‘lida elektr energiyasidan foydalana olishi ko‘zda tutildi.

Oziq-ovqat tayyorlash uchun qariyb 2\3 dehqon xo‘jaliklari o‘tin va boshqa notijorat yoqilg‘i turlaridan foydalanadilar. Mustaqillik davrida notijorat energiya manbalarining yoqilg‘i energetika balansda 2.5 baravarga kamaygan bo‘lsa-da, u haliyam juda katta miqdor hisoblanadi va umumiy birinchi darajali energiya manbalarining 30%ni tashkil qila-

di. Mamlakatni elektrlashtirish muammosi, birinchi galda qishloqlarni elektrlashtirish mamlakat 11-besh yillik rejalarining iqtisodiy va ijtimoiy sohasida asosiy vazifalardan biri bo'lib turibdi. 11-besh yillik reja nafaqat yangi GES va IEMni qurish, balki atom elektrostansiyalari, shamol energiyasini keng ravishda rivojlantirishni o'z ichiga oladi. 11-rejada elektrogeneratorlarni o'rnatish orqali energiya hajmi 60 ming MVt dan oshishi ko'zda tutildi va u ushbu besh yillik davomida uning yillik o'sishi 8 va 9% dan oshmasligi ko'zda tutildi.

Tashrif asnosida iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik doirasida yoqilg'i energetikasi, axborot texnologiyalari, to'qimachilik, farmasevtika, bank sohasi va savdo-sotiqni rivojlantirish borasida aloqalarni tubdan kengaytirishga qaratilgan qator hujjatlar imzolandi. O'ttizdan ziyod, jumladan, Hindistonning yetakchi "Oyl end nachural gez korporeyshn" neft-gaz kompaniyasi bilan hamkorlikda uglevodorod zaxiralarini izlash, razvedka qilish va o'zlashtirishga, "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasida optik tolali kabel ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalarni, substansiyalar va turli tibbiy dori vositalari ishlab chiqarish bo'yicha qator loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Yetakchi yirik to'qimachilik kompaniyalari bilan paxta, ipak va teri xomashyosini chuqur qayta ishlash hamda tayyor mahsulotlar savdosi bo'yicha hujjatlar imzolandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida smartfonlar, planshetli kompyuterlar va internet-pristavkalar, shuningdek, quyosh-gibrid texnologiyalari asosida elektr ta'minoti manbalari ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi. Imzolangan hujjatlar kimyo sohasida ham qator loyihalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan Hindistonning Eksport-import banki o'rtasida uzoq muddatli imtiyozli shartlar bilan kredit liniyasi taqdim etish to'g'risidagi bitim imzolandi. Ushbu bitimga muvofiq mineral o'g'it va boshqa strategik tovarlarni yirik miqdorda va uzoq muddatli asosda yetkazib berish hujjatlari rasmiylashtirildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1. Hindiston sanoatini modernizatsiyalash jarayoni xususiyatlari nimalarni o'z ichiga oladi?*
- 2. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan industriallashtirish jarayoni mamlakat sanoatida qanday tarkibiy o'zgarishlarga olib keldi?*

3. *Hindiston metallurgiya sanoatining asosiy mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi qanday holatda?*
4. *Hindiston sanoat ishlab chiqarishi nima uchun diversifikatsiyaga yuz tutdi?*
5. *Mamlakat investitsion-innovatsion siyosatni amalga oshirishdagi kamchiliklar nimalardan iborat?*
6. *O'zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar konsepsiyasi qachon ishlab chiqilgan va uning mohiyati nimadan iborat?*

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Hindistonda sanoat korxonalarini modernizatsiyalashda xorijiy sarmoyalarning o'rni va rolini aniqlashtiring
2. Hindiston va Xitoyning industrilashtirish hamda modernizatsiyalash jarayonlarini o'zhash tomonlarini aniqlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari», –T., "O'zbekiston", 2009.*
2. *O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot, O'z.R FA Iqtisodiyot instituti, –Toshkent, 2006.*
3. *Баев И.А., Кожин С.В. Новый подход к реструктуризации компании. //Финанси.-2001.-№12. –С.11-16.*
4. *Гинзбург А.И. Экономический анализ. –СПб: Питер, 2007.– С.208.*
5. *Конкурентоспособность и модернизация экономики: 2-х кн. /Отв.ред. Е.Г.Ясин. Кн.1. – М.: Издательский дом ГУ ВШЭ, 2004, –С.456.*
6. *А.И.Медовой, Н.В.Галищева. Экономика Индии, Изд.-во «МГИМО-Университет», –М., 2009, –С.350.*
7. *Н.В.Галищева. Экономика стран Южной Азии, Изд.-во «МГИМО-Университет», –М., 2009.*
8. *<http://www.hindionnet.com>*
9. *<http://www.hindustantimes.com>*

9-BOB. JANUBI-SHARQIY OSIYO MINTAQASI MAMLAKATLARIDA INDUSTRILASHTIRISH, MODERNIZATSIYALASH VA DIVERSIFIKATSIYALASH JARAYONLARI

Darsning maqsadi: Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlariida industrilashtirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarining asosiy bosqichlarini va xususiyatlarini o'rganish.

Kalit so'zlar: *evolutsiya, iqtisodiy yuksalish, texnologiyalarni yangilash, tashqi savdo siyosati, globalizatsiya talablari, xalqaro bozor, raqobat, Jahon Savdo Tashkiloti, transmilliy korporatsiyalar, kapital oqimi, kichik biznes, xususiy sektor, "rivojlanishga yetib olish", industrilashtirish, konsepsiya.*

9.1. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida industrilashtirish siyosatini amalga oshirish mexanizmining evolutsiyasi

1960–1995-yillarda iqtisodiy taraqqiyotning dunyoda eng yuqori sur'atlari kuzatilib, bunday o'sish natijasida Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi ko'pgina davlatlar o'zining iqtisodiyotini tiklab oldi va ulardagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ya'ni YaIMning aholi jon boshiga to'g'ri kelish darajasi jadal sur'atlarda oshib bordi. Bu mamlakatlar asosiy e'tiborini jahon bozoridan foydalanishni kengaytirishga va bevosita xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etishga qaratdilar. Bular esa, o'z navbatida, sarmoya tushumining kengayishiga, texnologiyalarni yangilashga va tashqi savdoning rivojlanishiga olib keldi.

Hozirgi kunda globalizatsiya jarayoni dunyo mamlakatlarida sanoatlashtirish siyosatini amalga oshirishda juda ham qattiq cheklovlar qo'yimoqda. Globalizatsiyaning talablariga javob berish uchun esa, xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli raqobatni amalga oshira oladigan va xorijiy kapitalni jalb qila oladigan, tez va mos holda, xalqaro maydonda uning o'zgarishlariga javob bera oladigan, Jahon Savdo Tashkilotining mutasaddi bo'limlarida o'z huquqlarini himoya qila oladigan iqtisodiyotni shakllantirish lozimdir.

Iqtisodiyotni yangi global savdo sharoitlariga mos kelishi borasidagi muhim rolni xususiy sektor o'ynaydi, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalar hamda xususiy tadbirkorlar. Uning sababi shundan iboratki, zamonaviy globalizatsiya nafaqat, yirik transmilliy korporatsiyalar ta'sirining o'sishi bilan, balki xalqaro savdoga va kapital oqimiga kichik va o'rta korxonalarni jalb etish orqali tavsiflanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun sanoatlashtirish siyosatini muhokama qilishda, "Osiyo yo'lbarlari" deb atalmish Yangi Industrial Mamlakatlarga murojaat qilish lozimdir. Ayniqsa, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya va Tayvan, Malayziya, Tailand va Indoneziyalardagi jadal sur'atlarda amalga oshirilgan industrilashtirish jarayonlari e'tiborga loyiqdir. Ushbu davlatlarning yuqori yutuqlarga erishishlari quyidagilar bilan belgilanadi:

a) o'z vaqtida va chuqur agrar islohotlarni amalga oshirilganligi;

b) faol eksportga yo'naltirilgan siyosat olib borilishi;

d) iqtisodiyotning sezilarli erkinlashtirilganligi, uning natijasida yuz bergan iqtisodiy o'sishni davlat emas, balki xususiy mayda va o'rta korxonalar tomonidan ta'minlanishi (Sharqiy Osiyo mamlakatlari kichik biznes va xususiy sektorning YaIM dagi ulushi 70–80% ni tashkil etmoqda);

e) iqtisodiy dasturlar va davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish holatlari ma'muriy-buyruqbozlik orqali emas, balki kuchli iqtisodiy rag'batlar orqali amalga oshirilganligi. }

Sharqiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy o'sishida davlat juda katta rol o'ynadi. Aynan hukumat, ushbu mamlakatlarda sanoatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqdi va amaliyotga faol tatbiq eta oldi. Bunda Sharqiy Osiyo mamlakatlari hukumatlari qulay makroiqtisodiy iqlimni tashkish etish bilan birga, "g'oliblarni tanlab olish" siyosati dastaklaridan bo'lgan yuqori import tariflari, eksport subsidiyalarini va tekis tarzda xorijiy texnologiyalardan nusxa olish dastaklaridan foydalandilar.

Garchi, iqtisodiyotning va ishlab chiqarishning hamma tarmoqlari ham davlatning sanoatlashtirish siyosatiga kirmagan va ularning barchasida ham, iqtisodiy yutuqlarga erishmagan bo'lsa-da, baribir, ushbu siyosatning o'rni va roli nihoyatda katta bo'ldi.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari taraqqiyotining muhim tendensiyasi – bu mintqa mamlakatlari iqtisodiyotining shiddatli yuksalishini bir jihatdan belgilab bergan ASEAN tashkiloti doirasidagi keng qamrovli iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashtirilishi natijasi bo'ldi.

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, mintqa davlatlarining iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha tanlagan modellari natijasida ular hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida ustuvor o'rinlarni egallab kelmoqdalar. Ular orasida eng yaxshi natijalarga erishgan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan Singapur, Malayziya, Indoneziya, Filippin, Tailandlarni atab o'tish joizdir. Xususan, ushbu mamlakatlar tomonidan tanlangan iqtisodiyotni eksportga yo'naltirish siyosati (Osiyochoha model) 1970-yillar oxiri va 80-yillar boshiga keliboq, o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi.

Garchi, 1950–60-yillarda iqtisodiy adabiyotlarda paydo boʻlgan birdan bir yagona qoloqlikni yengish boʻyicha “rivojlanishga yetib olish” (mamlakat iqtisodiyotini industrilashtirish) konsepsiyasi jahonda juda katta qiziqish uygʻotgan boʻlsa-da, amalda koʻpchilik rivojlanayotgan davlatlar ushbu konsepsiyadan yetarlicha foydalana olmadilar.

9.2. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlari xususiyatlari

Janubi-Sharqiy Osiyoda tez rivojlanish oqibatida (inlusrtrializatsiya va urbanizatsiya) yuzaga kelayotgan muammolardan – atrof-muhitni ifloslanishi va degradatsiya (xususan, inson yashaydigan muhit va inson intellektining) jarayonlaridir (Indoneziya, Malayziya, Tailand).

Mintaqa aholisining soni oxirgi 25 yil ichida 1,6 marotabaga oʻsdi va u hozirda 580 mln. kishini tashkil etmoqda. Mintaqa mamlakatlari orasida Tailand, Indoneziya, Vyetnam, Myanma, Singapur aholisining oʻrtacha yillik oʻsish surʼatlari 0,8 dan 2% gachani tashkil etadi; qolgan Malayziya, Laos, Bruney, Sharqiy Timor, Kambodja va Filippin aholisining oʻrtacha yillik oʻsish surʼatlari 2% dan ortiqni tashkil etmoqda. Aholining etnik tarkibi juda rang-barangdir, ularning katta qismi Janubiy Osiyo irqiga mansub boʻlib, ularda mongoloid va avstroloid belgilari mavjud. Ular, asosan, xitoy-tibet, tay, avstrtoaziat, avstroneziy tillariga mansubdir.

Koʻpchilik mintaqa mamlakatlari oz sanoatini va xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirish kursini amalga oshirmoqda.)

Mintaqa mamlakatlarining industrilashtirilishi oxirgi 20 yildagi asosiy iqtisodiy yutuqlardan boʻlib, ulardagi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat hududlardagi ishlab chiqarish munosabatlarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mintaqada joylashgan mamlakatlarning koʻpgina belgilari va xususiyatlarida oʻxshash jihatlari mavjud boʻlib, ularning barchasi oʻz milliy suverenitetlarini mustahkamlashga, qoloqlikni yengishga, dunyoning boshqa iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlariga tenglashishga qaratilgandir.

Ushbu mamlakatlar hukumatlari jahon xoʻjaligiga integratsiyalashmasdan turib, oʻz iqtisodiyotlari va texnik darajasini tez yuksaltira olmasliklarini tushunib yetdilar. Soʻngra esa, mashina, uskunalar va texnologiyalardan tortib, koʻpgina xomashyo va yoqilgʻi turlari boʻyicha importga muhtoj boʻlib, mazkur import oʻrnini qoplash siyosatini yurgiza boshladilar. Oradan biroz vaqt oʻtgach, ular asta-sekin oʻzlarida eksportga yonaltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirishning raqobatbardoshlik strategik siyosatiga oʻtdilar.

(Mazkur mamlakatlardagi importning o'rnini qoplash siyosatining dinamik fazasi o'rtacha 12 yilni tashkil etdi. Chunki, bu mamlakatlarda qishloq xo'jalik mahsulotlari va xomashyo eksportiga bog'liqlik darajasi juda yoqori bo'lgan. Ichki va tashqi bozorlarni sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish ishlari esa, mashina va uskunalar importiga bog'lanib qolgan edi. Bu esa, sanoatdagi o'sishni chegaralab qo'ydi.

Eksportga yonaltirish strategiyasi 1960–70-yillarga to'g'ri kelib, unda Singapur bevosita ushbu jarayonga qo'shilib ketdi va ilmiy-texnik inqilob natijasida uning sanoat tarkibi o'zgarib boshladi.)

1990-yillar 2-yarmida mintaqa mamlakatlarining deyarli barchasi Osiyo moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga yuz tutdi va mazkur mintaqa mamlakatlarining real YaIM hajmida jiddiy pasayish kuzatildi. Bunga qarshi mintaqa mamlakatlari hukumatlari, xususan, nafaqat, xorijiy sarmoyalarni, balki, xususiy sarmoyalarni mamlakat iqtisodiyotini tiklashga jalb qilish, ichki iste'molni kengaytirish, davlat korxonalarini isloh qilish kabi qator chora-tadbirlarni ishlab chiqdilar.)

Mintaqa mamlakatlari 1999-yilga kelib, inqirozdan asta-sekin chiqib boshladilar. Ularning raqobatbardosh eksportga yonaltirish strategiyalari davlatdan ishlab chiqarishni modernizatsiyalashni va sanoat tarmoqlarini hamda ularning mahsulotlari nomenklaturasini diversifikatsiyalashni talab etar edi.

Ushbu jarayon mintaqa mamlakatlariga kirib kelgan yangi texnika va texnologiyalar, mashina va uskunalar importi bilan boshlandi (elektronika, tekstil, qayta ishlash).

9.3. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy yuksalish omillari

! Mintaqaning YaIM 2800 mlrd. doll.ni tashkil etib, unda YaMM ning aholi jon boshiga to'g'ri kelishiga qarab, ularni 3 guruh mamlakatlariga ajratish mumkin: eng kam 1000–5300 doll. – Kambodja, Vyetnam, Laos, Myanma, Indoneziya, Filippin, Sharqiy Timor; o'rtacha 8400–10 300 doll. – Tailand, Malayziya va yoqori 15000–37000 doll. – Singapur va Bruney.)

! Mintaqa YaIM ning o'rtacha o'sish sur'ati yiliga 4,9%–5,1%ni tashkil etmoqda.)

Ko'pgina mintaqa mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish kursi sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslarining ustuvor yonalishlariga va ularning ustunliklariga qaratilgan bo'lib, u xalqaro mehnat taqsimoti bilan chambarchas bog'liqdir. Unda ustuvorlik xususiy va xorijiy sektorlarga berilib, ammo, unda davlat yetarlicha kuchli mavqega ega.

XXI asr boshlariga kelib, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarini ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Eng kam rivojlangan, rivojlanayotgan mamlakatlar (Kambodja, Sharqiy Timor, Laos, Myanma);

2. O'rtacha darajadagi rivojlanayotgan mamlakatlar (Vyetnam, Indoneziya, Filippin);

3. Yangi industrial mamlakatlar (Malayziya, Tailand).

4. Alohida maqomga ega mamlakatlar (Singapur – ko'pgina mezonlarga ko'ra rivojlangan industrial mamlakat hisoblanadi va Bruney – daromadlar darajasining aholi jon boshiga to'g'ri kelishi bo'yicha dunyo mamlakatlarining birinchi o'ntaligiga kiradi.)

Mintaqa mamlakatlarining tarmoqlari tarkibi 1980–1990-yillarda ahamiyatli tarzda ijobiy o'zgarishlarga yuz tutdi. Ular YaIM da sanoat ishlab chiqarish, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalari ulushining o'sishi evaziga qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilikning ulushi sezilarli qisqarib bordi. Ayniqsa, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Vyetnam va Tailandda sanoat ishlab chiqarishi yiliga 10%ni, qishloq xo'jaligi esa 3–4%ni tashkil etdi.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy yuksalish omillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Qazib olish sanoatining (Singapur va Kambodjadan tashqari) rivojlanganligi;

- Qayta ishlash sanoatida turli mulk shaklidagi yirik, o'rtacha va kichik korxonalarining mavjudligi;

- Barcha mamlakatlar sanoati eksportga yonaltirilganligi;

- Sanoat ishlab chiqarish sohasining diversifikatsiyalanganligi (neftni qayta ishlash, neft kimyosi, kimyo, elektroika, elektrtexnika, qora va rangli metallurgiya, kemasozlik, mashinasozlik va avtomobil qismlarini yig'ish sanoatlari.)

Undan tashqari mintaqada mamlakatlarining deyarli barchasida qishloq xo'jaligi rivojlangan bo'lib, unda nafaqat ichki, balki tashqi iste'mol ham to'liq qondirilishiga imkoniyatlar mavjud. Mintaqaning asosiy qishloq xo'jaligi mahsuloti sholi bo'lib, undan yiliga 2–3 marotaba hosil olinadi. Shu bilan birga makkajo'xori, batat, shakerqamish, tamaki, qahva, choy, ziravorlar va mevalar.

Mintaqa mamlakatlarining asosiy ichki aloqalari ASEAN tashkiloti miqyosida amalga oshiriladi va mazkur aloqalar bugun ham muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Mintaqa mamlakatlaridagi modernizatsiyalash jarayoni xususiyatlari nimalarni o'z ichiga oladi?*
2. *Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida industrlashtirish siyosatini amalga oshirish mexanizmining evolutsiyasi deganda nimalarni tushunasiz?*
3. *Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida diversifikatsiyalash jarayoni xususiyatlarini sanab oting.*
4. *Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy yuksalish omillari nimalardan idorat?*
5. *ASEAN tashkilotining maqsad va vazifalarini aytib bering.*

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. *Singapur va Brunei mamlakatlari sanoat va xizmat ko'rsatish sohalaridagi o'zgarishlarni tahlil qiling.*
2. *Mintaqa mamlakatlaridagi import o'rnini qoplash va eksportga yonaltirish siyosatlarini bosqichma-bosqich tahlil qilib, uning qaysi ijobiy jihatlarni O'zbekiston uchun qo'llash mumkinligini aniqlang.*

Adabiyotlar:

1. *Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari», –T., "O'zbekiston", 2009.*
2. *O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot, O'z.R FA Iqtisodiyot instituti, –Toshkent, 2006.*
3. *ASEAN Annual Report 2006-2007. –Jakarta, 2007.*
4. *ASEAN Statistical Yearbook 2006. –Jakarta, 2006.*
5. *Asian Development Bank. Key Indicators. 2007. –Manila, 2007.*
6. *Asian Development Outlook 2007 Update. –Manila, 2007.*
7. *ЮБА в 2006. актуальные проблемы развития. –М., 2007 (ежегодник Института востоковедения РАН, издается с 2000.)*
8. *Severino R.C. Southeast Asia in Search of an ASEAN Community. Sing., 2006. ASEAN and East Asian International Relations: Regional Delusion. Cheltenham, 2006. Handbook on the Northeast and Southeast Asian Economies. Cheltenham, 2007.*
9. *<http://www.aseansec.org>*
10. *<http://www.asean.or.id>*
11. *<http://www.aseanenergy.org>*
12. *<http://www.asean-tourism.com>*

10-BOB. O'RGANILAYOTGAN MINTAQA MAMLAKATLARINI IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIIYALASH VA DIVERSIFIKATSIIYALASH TAJRIBASINI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH

Darsning maqsadi: o'rganilayotgan mintaqamamlakatlari iqtisodiyotini modernizatsiiyalash va diversifikatsiiyalash tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini o'rganib chiqish.

Kalit so'zlar: tarkibiy qayta qurishlar, bozor mexanizmi, ishlab chiqarish, eksport ko'rsatkichlari, xorijiy investitsiiyalar, budjet, moliya-bank va kredit tizimlari, ichki va tashqi bozorlar, mahsulot raqobatbardoshligi, texnika va texnologiiyalar.

10.1. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiiyalash va diversifikatsiiyalashning asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" deb nomlangan, jahonning yetakchi iqtisodchilari tomonidan e'tirof etilgan kitobida bayon qilingan 2009–2012-yillar uchun mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini chuqur tadrijiy islohotlar siyosatining mantiqiy davomi sifatida tavsiflash mumkin.

O'zbekistonning Inqirozga qarshi choralar dasturining ustuvor yo'nalishlari budjet, moliya-bank va kredit tizimlarini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, ichki va tashqi bozorlarda mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilashdan iborat. Ishlab chiqarishni modernizatsiiya qilish, innovatsion texnologiiyalarni joriy etish, resurslarni tejash va mahsulot tannarxini pasaytirish hisobidan real sektor korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun soliq yukini maksimal darajada kamaytirish bo'yicha tadbirlar qabul qilindi. Mahalliy eksportchikorxonalarga mislsiz darajada yordam ko'rsatildi, ularning barqaror faoliyati natijasida eksport mahsulotlari hajmi 2009-yilda sezilarli o'sdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratildi – bugungi kunda mazkur tarmoq mamlakat YalMning 50%ni yetkazib beradi. 2008-yildan boshlab Inqirozga qarshi choralar dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi jahon inqirozining salbiy oqibatlarini kamaytirdi va kam sonli mamlakatlar qatorida O'zbekistonga iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'at-

larini ta'minlashga va aholining real daromadini oshirishga imkon berdi. Jumladan, YaIM ning o'sishi 2010-yilda 8,5%ni tashkil etdi

Jahon iqtisodiyotining innovatsion yo'nalganligi chiqarilayotgan mahsulotning sifati va raqobatbardoshligiga yuqori talablarni ilgari suradi, innovatsion rivojlanish resurslariga egalik qilishning cheklanganligi esa kombinator-o'rinbosar boshqaruvni, ya'ni iqtisodiyot tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish mexanizmlarini amalga oshirish hisobiga tashkiliy kapitaldan samarali foydalanishni birinchi darajali ahamiyatga ega qilib qo'yadi.

10.1.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi 2010-yilda iqtisodiy rivojlanishining maqsadli ko'rsatkichlari¹⁶

Ko'rsatkichlar	Qo'shimcha o'sish, oldingi yilga nisbatan, foizda
Yalpi ichki mahsulot	8,3
Sanoat mahsuloti	8,3
Qishloq xo'jaligi	5,0
Asosiy kapitalga investitsiyalar	22,1
Investitsiya kiritish hajmi YaIMga nisbatan	30,0
Ekspart hajmi	8,5
Inflatsiya darajasi	7-9
Mahaliylashtirilgan mahsulot hajmi	40,0
Ish haqi darajasining o'sishi	30,0
Xizmatlarning YaIMdagi ulushi	49,0
Kichik biznesning YaIMdagi ulushi	52,5

O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish samaradorligi muayyan bir sanoat tarmog'ining innovatsion rivojlanish imkoniyatlari va quyidagi omillar ta'siri ostida shakllanuvchi modelini hisobga olgan holda belgilanadi.

Ta'kidlangan omillarning o'zaro ta'siri O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlari innovatsion rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini va innovatsion salohiyatdan foydalanishning eng samarali modelini belgilab beradi. Milliy iqtisodiyotning zamonaviy bosqichlarida tarmoq-

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Statistika ma'lumotlari 2010-yil uchun, -T., 2011. 19-b.

larni innovatsion rivojlantirish jarayonlari bo'yicha to'plangan mahalliy va xorijiy tajribalardan kelib chiqib, quyidagi asosiy modellarni ajratish mumkin. Yangiliklar bozorining davlat sektori faol rivojlanayotgan holatda, shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda ustuvor yo'naltirilgan model eng istiqbolli hisoblanadi.


1 Innovatsion mahsulotlar bozori davlat segmentining ustuvor yo'naltirilgan modeli davlatning ustuvorliklari va dasturlari tizimi vositasida ITTKning davlat tomonidan moliyalashtirilishini nazarda tutadi. Bu model ikki ko'rinishga ega:

– budjet ustuvor yo'naltirilgan modeli, unga ITTKning davlat ilmiy-texnik ustuvor yo'nalishlari va dasturlari bo'yicha yuz foiz davlat budjeti hisobidan moliyalashtirilishi xos. Bunda mulk egaligi turlicha bo'lgan ilmiy tadqiqot va ilmiy-texnik tashkilotlar faoliyat ishtirokchilari hisoblanadi;

– aralash-ulushli ustuvor yo'nalishlarga qaratilgan model. Bu modelning o'ziga xos tomoni shundaki, ITTKni moliyalashtirish davlat hamda xususiy (tijorat va notijorat) tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Innovatsion mahsulot egalari aralash davlat-xususiy tuzilmalar hisoblanadi. Ular shuningdek, ham iste'molchi, ham sotuvchi bo'la oladilar.)

10.1.1-rasm

O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish modellarini shakllantiruvchi omillar



Davlat va bozor tuzilmalarining o‘zaro bog‘liqlik mexanizmi modelining kamchiligi ular innovatsion mahsulot bozori sig‘imini hisobga olmasligidadir. Innovatsiya bozori sig‘imi o‘zgarishlarini hisobga olish uchun biz bu modellarni quyidagi tartibda o‘zgartirishni taklif etamiz (10.1.2-jadval).

10.1.2.-jadval

O‘zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish modellari

ITTKIda davlat sektori ulushi	Innovatsion mahsulot bozori sig‘imi	
	yuqori	past
Yuqori	I. Yangiliklar bozori davlat segmentining kvazibozor modeli	II. Davlat ITTKI markazdan qochuvchi modeli
Past	III. Yangiliklar bozorining markazga intiluvchi modeli	IV. Yangiliklar bozorining rivojlanmagan davlat segmenti modeli

O‘zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishda bunday modeldan foydalanish motivatsiya va rag‘batlantirish mexanizmlarini faollashtirmaydi, bu esa innovatsiya salohiyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi va iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining pasayib ketishiga olib keladi.


Ushbu modellardan iqtisodiyot tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish amaliyotida foydalanishga innovatsion yo‘nalishdagi rivojlanish omillarining yetarli darajada hisobga olinmaganligi to‘siq bo‘lmoqda. Shuning uchun ham biz O‘zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishning aralash modelini shakllantirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, u esa kengayib borayotgan model asosida innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirish va turli omillarning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olish, innovatsion jarayonlarni rivojlantirishda davlatning ishtirokini cheklash va iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish shartlarini belgilash kabi-larni e‘tiborga olishi zarur.

Modelning eng muhim elementlaridan biri innovatsion jarayonlarni boshqarishda davlatning ishtirok etish ulushi hisoblanadi. Innovatsion rivojlanishning yakuniy maqsadi iqtisodiy o‘sish ekanini e‘ti-

borga oladigan bo'lsak, iqtisodiyot tarmoqlaridagi innovatsion jarayonlarni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektorning ishtirok etish ulushiga bog'liq holda iqtisodiy o'sish modeli quyidagicha tashkil topishi lozim.

10.1.2-rasm

O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishning aralash modeli



Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida innovatsion jarayonlar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari innovatsion rivojlanish jarayonini amalga oshirishga tabaqalashgan yondashuvni talab etadi, sababi tarmoqlar resurs-xomashyo bazasining turli-tumanligi bilan, shuningdek, qo'llaniladigan texnika va texnologiyalar xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

**Iqtisodiyot tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish
mexanizmlari**

Ilmiy-tadqiqot sohasi va innovatsion faoliyat yo'nalishlarini davlat tomonidan tartibga solish	Texnologiyalar transferti	Ilmiy g'oyalarni shakllantirish va amalga oshirish	Innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash
bosqichli taqsimlash, bosqichli rag'batlantirish, bosqichli egallab olish, majburiy jo'rlik, tashabbusni topshirish, selektiv rag'batlar, bozor opportunizmi, markazdan qochma o'zgarishlar, maqsadli homiylik, yakuniy homiylik, bosqichli generatsiya, inqirozni bartaraf etish, selektiv tuzatishlar, ogohlantiruvchi muhofaza,	tadrijiy innovatsiyalar, bosqichma-bosqich tashabbuslar, yangiliklarni o'zlashtirish, texnologik ko'tarilish, hujumkor o'zlashtirish mexanizmlari	ekspluatatsion o'zlashtirish, texnologik o'zlashtirish mexanizmlari, mahsulot importi, mahsulot eksporti o'rini bosish, texnologik import o'rini bosish, mahsulot-texnologik eksport, texnologik komponentlar importi o'rini bosish mexanizmlari	fundamental moliyalashtirish, amaliy moliyalashtirish, yakuniy moliyalashtirish, fundamental rag'batlantirish, tugallashning afzalligi, shaxsiy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, tadqiqot importini, ichki tugallashni, joriy etishni ko'chirishni, intellektual egallab olish, tugallovchi jalb etishni, yakuniy qulaylik yaratishni qo'llab-quvvatlash

xayrixohlik, yuzaga kelish mexanizmlari			mexanizmlari
---	--	--	--------------

O'zbekistonda bozor islohotlarining barcha bosqichlarida respublika milliy iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar muammosi muhim o'rinni egallaydi. Prezident I.A.Karimov bir necha bor ta'kidlaganidek, mamlakat raqobatdoshligini oshirishni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish siyosati davlat iqtisodiy dasturini amalga oshirishning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lishi lozim. /

Milliy xo'jalik tarkibini takomillashtirish ishlari uning barcha sohalari va tarmoqlari bo'yicha, alohida mintaqalar bo'yicha milliy mahsulot, milliy daromad, investitsiyalar, mehnat resurslarining taqsimlanishini tartibga solish, shuningdek, muvofiq texnik, tashqi iqtisodiy siyosat olib borish va h.k. yo'llar bilan amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, respublikada tovar ishlab chiqaruvchi barcha sohalarning YaIM hajmidagi ulushi 1990-y.dagi 66,7%dan 2009-yilda 46,1%ga kamaygan. Bu esa iqtisodiyotni rivojlanishining qonuniyatini, ya'ni ishlab chiqarish sohalari ulushi nisbati xizmatlar ko'rsatish sohasining o'sib borishi tomon o'zgarishini ifoda etadi. 1990-yildan 2010-yilgacha bo'lgan davrda xizmat ko'rsatish sohasining hisyasi 34,4% dan 49%gacha ko'paygan.

10.1.4-jadval

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti sohalari bo'yicha YaIM tarkibining o'zgarishi (%da)¹⁷

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	1990	2000	2007	2008	2009
YaIM, jami	100	100	100	100	100
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	101,1	87,5	90,5	90,7	93,3
Tovar ishlab chiqarish sohalari	66,7	50,5	51,2	45,4	46,1
jumladan: Sanoat	22,8	13,8	24,0		24,0

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Statistika ma'lumotnomasi 2009-yil uchun, -T., 2010. 16-6.

Qishloq xo'jaligi	33,3	30,4	21,7	...	18,0
Xizmat ko'rsatish sohalari	34,4	37	39,3	45,3	47,2
Sof soliqlar, import uchun soliq bilan birga	-1,1	12,5	9,5	9,3	6,7

Milliy iqtisodiyotning eng dinamik ravishda o'sayotgan sectorlaridan biri mashinasozlik kompleksidir. 2009-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2008-yilga nisbatan 9%ga o'sgan bo'lsa, mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarish esa 17,4%ga oshdi¹⁸.

10.1.5-jadval

Mashinasozlik mahsulotlarining eng muhim turlarini ishlab chiqarish¹⁹

	2008-y.da 2007-y.ga nisbatan %da	2009-y.da 2008-y.ga nisbatan %da
Yengil avtomobillar	113,5	105,1
Yuk avtomashinalari	115,6	162,6
Avtobuslar	139,4	84,6
Avtomobillar uchun ehtiyot qismlar	123,3	103,6
Traktorlar	101,1	112,3
Kultivatsiya traktorlari	113,4	104,5
Kuchli tok kabellari	167,9	101,8
Sovutkich va muzlatkichlar	57,7	2,8r.

Mashinasozlik mahsulotlari ulushi sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida 2000-yildagi 9,9% dan 2009-y.da 16,2%ga o'sdi²⁰.

Elektrotexnika mahsulotlar ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari 2009-yilda 2008-yilga nisbatan 20,9%ga oshdi²¹. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmida kabel-o'tkazgich mahsulotlar, transfor-

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Statistika ma'lumotnomasi 2009 yil uchun, -T., 2010. 17-6.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Statistika ma'lumotnomasi 2009 yil uchun, -T., 2010. 19-b.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Statistika ma'lumotnomasi 2009 yil uchun, -T., 2010. 18-6.

²¹ Экономика Узбекистана. Информационно-аналитический бюллетень за 2009 г. Центр экономических исследований. -Ташкент, 2010, -С.43.

matorlar, ayniqsa, ko'proq ishlab chiqarildi, lift ishlab chiqarish qayta yo'lga qo'yildi.

Sovutkich va muzlatkichlar ishlab chiqarish 2009-yilda 2008-yilga nisbatan 2,8 barobar ko'paydi²².


Ta'kidlash joizki, avtomobilsozlikning tutgan o'rni va rivojlanishi mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligi indikatorlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Avtomobilsozlik mahsulotlarining o'sish sur'atlari 2008-yilga nisbatan 2009-yilda 16,9%ga oshdi²³.

Yengil avtomobillar ishlab chiqarish 2008-yilga nisbatan 2009-yilda 5,1%ga, yuk mashinalari – 62,6%ga ko'paydi²⁴.

Uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan muhim ustuvor yo'nalish "asosiy yetakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iborat..."²⁵.

2009-y.da O'zbekistonda sanoat sohasidagi yangi asosiy vositalarni investitsiyalash 2008-yilga nisbatan 1,23 barobar, mashinasozlikda esa 2 marotaba oshdi²⁶.

Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari



²² O'zbekiston Respublikasi Statistika ma'lumotnomasi 2009 yil uchun, –T., 2010. 19-6.

²³ Экономика Узбекистана. Информационно-аналитический бюллетень за 2009г. Центр экономических исследований. –Ташкент, 2010, –С.43.

²⁴ Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2009г. –Т., 2010. –С.19.

²⁵ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. –Т.: O'zbekiston. 2010. 65-b.

²⁶ Использование инвестиций в нефинансовые активы за 2009г. – Статистический бюллетень. Госкомстат. Ч. II. –Ташкент, 2010. –С.108.

2010-yilda iqtisodiyotimizning yetakchi o'rinlarga chiqishi uchun Toshkent, Navoiy va Tollimarjon issiqlik elektr stansiyalarida bug'-gaz moslamalarini qurish, Surgil koni bazasida polietilen va propilen ishlab chiqaradigan Ustyurt gaz-kimy o majmuasini barpo etish, polivinilxlorid va kaustik soda ishlab chiqaradigan yangi kompleks tashkil etishga qaratilgan yirik loyihalarni amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Boshqa mamlakatlar misolida, inqiroz vaqtida davlat u yoki bu muammoli kompaniyalar, banklarning aktivlarini sotib olishini, so'ngi ularning sog'lomlashtirilishi, qayta tashkil etilishi va kelgusida xususiyashtirilishini ko'rish mumkin. Aynan davlat inqiroz boshqaruvchisi vazifasini o'z zimmasiga oladi. Biroq, shu vaqtgacha, qator mamlakatlar o'rtada to'xtab qolmaslikni, aktivlarni sog'lomlashtirish, ularni davlat mulki sifatida olib qolmagan holda, balki bozorga qaytarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Tartibga solishning monetar vositalarini diversifikatsiya qilish va pul-kredit sohasidagi nazorat funksiyalarini jiddiy ravishda kuchaytirish zarurligini anglab yetish global inqirozning muhim sabog'idir. Inqirozning yana bir muhim sabog'i budjet-soliq siyosatining inqirozga qarshi salohiyati samaradorligining isboti bo'ldi.

Bular qatorida Muborak gazni qayta ishlash zavodi va Sho'rtan-neftgaz majmuasida suyultirilgan gaz ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun propan-butan aralashmasi moslamalarini qurish, Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi energiya bloklarini ko'mir yoqilg'isi bilan ishlash tizimiga o'tkazish, avtomobil kuchlanish agregatlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va boshqa bir qator muhim strategik loyihalarni amalga oshirish alohida istiqbolli ahamiyatga ega ekanini ta'kidlash zarur.

Quyida keltirilgan loyihalarning barchasi, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qaramasdan, 2009-2014-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha muhim loyihalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar dasturiga kiritilganligini qayd etish lozim. Ushbu dasturga umumiy qiymati 42,5 milliard dollardan ziyod 327 ta loyiha kiritilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi bo'yicha moliyalash manbalari aniq belgilangan va investorlar konsorsiumlari shakllantirilgan.

Sanoatda ishlab chiqarish apparatini yangilash bo'yicha maqsadli siyosatning o'tkazilishi asosiy kapitalni investitsiyalash tuzilmasining ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'ldi. Misol uchun, mashinalar va uskunalarni xarid qilish uchun ajratilgan investitsiyalar ulushi 2009-

yilda 2006-yilga nisbatan 22 punktga oshdi va 51,2% ni tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari uchun esa 23,4 punktga, ya'ni 34,7% ga kamaydi. Bu esa yangi quvvatlar uchun mablag'lar yuqori unumdorlik bilan o'sib borayotganini ko'rsatmoqda (10.1.7-jadval).

2009–2014-yillarda elektr energetikani modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi²⁷

Energetik sektor nomi	Amalga oshiriladigan loyihalar, dona	Ishga kiritiladigan quvvat	Narxi, mln.doll
Issiqlik elektr stansiyalari	8	2255 MVt	2309,6
Gidravlik elektrostansiyalar	15	440 MVt	512,9
Noan'anaviy energetika	1	0,5MVt	0,5
Elektr tarmoqlari	12	1418,2 km, 1754 MVA	681,4
Boshqalar	2	ASKUE (1 etap), ZShO-2 Yangi-Angren IES – 7,5 mln. kub.m	70,7
Jami	38	2695,6 MVt ishlab chiqaruvchi quvvatlar 1418,2 km elektr uzatish liniyalari 1754 MVA transformatorlar	3575,1

²⁷ www.lex.uz

10.1.7-jadval

Asosiy kapitalni investitsiyalashning texnologik tarkibi, (%)²⁸

	2006	2007	2008	2009
Jami	100	100	100	100
Qurilish-montaj ishlari	58,1	55,1	42,2	34,7
Mashinalar, uskunalar, jihozlar	29,2	33,4	43,9	51,2
Boshqa xarajatlar	12,7	11,5	13,9	14,1

2010–2015-yillarda iqtisodiyotimizning qontomiri bo‘lgan O‘zbekiston milliy avtomagistrali yo‘nalishi bo‘ylab infratuzilma va servis tarmoqlarini rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan dasturning amalga oshirilishini qat‘iy nazoratga olinadi. Shuning bilan birga temiryo‘l kommunikatsiyalarini rivojlantirishga ham alohida e‘tibor qaratilib, 2010-yilda aynan shu maqsadlar uchun 105 million dollardan ko‘proq mablag‘ yo‘naltiriladi.

Ekspart diversifikatsiyasi, ya‘ni xorijga sotilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasining kengayishi, jami eksportda alohida tovar yoki xizmat turi (ayniqsa, xomashyo) ulushining katta bo‘lishiga barham berilishi, mahsulotlarimiz eksport qilinayotgan mamlakatlar geografiasini kengaytirish eksport hajmining barqaror bo‘lishini ta‘minlaydi, milliy iqtisodiyotning tashqi bozordagi salbiy o‘zarishlarga ta‘sirchanligi darajasini pasaytiradi.

Ekspart tarkibida bir yoki bir necha tovarlar ulushining sezilarli darajada ortib ketishi bu tovarlar narxi pasaygan yoki ularga tashqi talab qisqargan holatlarda eksportchi korxonalarini og‘ir ahvolga solib qo‘yishi mumkin. Buning natijasida eksport hajmining qisqarishi valyuta tushumlarining kamayishi, tashqi savdo balansining yomonlashuvi va korxonalar moliyaviy ahvolining tanglikka yuz tutishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, eksport umumiy hajmining kam sonli davlatlarga bog‘lanib qolishi ham qaltis holat hisoblanadi. Prezidentimiz tomonidan ma‘ruzada ilgari surilgan tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar yetkazib beriladigan mamlakatlar geografiasini yanada kengaytirish vazifasini amalga oshirish eksport hajmini barqaror o‘stirish, tashqi bozordagi o‘zgarishlar ta‘sirida uning hajmi keskin kamayishi xavfini bartaraf etish imkonini beradi.

²⁸ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi, 2010

Eksport qilinayotgan tovarlarni diversifikatsiya qilish, ularni import qiluvchi mamlakatlar geografiyasini kengaytirish bu mamlakatlardan biri yoki bir guruhining iqtisodiyotida muammolar ro'y berganda ham eksport hajmining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'y-maslik imkonini beradi. Ayni chog'da, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'sirida ko'pchilik mamlakatlarda eksport hajmining keskin qisqarishi kuzatilmoqda. Jumladan, 2009-yilda eksport hajmlarining qisqarishi Rossiya Federatsiyasida 44,2 foizni, Ukrainada 48,7 foizni, Qozog'istonda 47,7 foizni tashkil etdi.

2000–2009-yillar davomida ekport va importni diversifikatsiya qilish, uning tarkibini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz eksportining tovar tarkibida ijobiy siljishlar ro'y berdi (10.1.8-jadval).

10.1.8-jadval

O'zbekiston eksportining tovar tarkibi²⁹

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2008	2009
Eksport jami (mln. AQSh doll.)	3267,6	4853,0	11493,3	11771,3
Eksport jami, foizda	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan (jamiga nisbatan foizda):				
Paxta tolasi	27,5	19,1	9,3	8,6
Kimyo mahsulotlari, plastmassa va plastmassa mahsulotlari	2,9	5,3	5,6	5,0
Qora va rangli metallar	6,6	9,2	7,0	5,0
Mashina va uskunarlar	3,4	8,4	7,6	2,9
Oziq-ovqat mahsulotlari	5,4	3,8	4,5	6,0
Energiya resurslari	10,3	11,1	24,7	34,2
Xizmatlar	13,7	12,2	10,4	8,8
Boshqalar	30,2	30,5	30,9	29,5

2000–2009-yillarda respublikamiz importi tarkibida ijobiy siljishlar ro'y berdi. Mamlakatni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish tadbirlarining keng miyosda amalga oshirilishini ta'minlash jami import hajmida mashina va uskunarlar importi ulushining jadal o'sishiga olib keldi (10.1.9-jadval).

²⁹ O'zbekiston: Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, innovatsion taraqqiyot va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish. –Toshkent, 2011. O'R FA Iqtisodiyot instituti Monografiya. Iqtisot fanlari doktori A.Rasulev tahriri ostida

O'zbekiston importining tovar tarkibi ³⁰


Ko'rsatkichlar	2000	2005	2008	2009
Import jami (mln. AQSh doll.)	2944.5	4091,3	9704,0	9438,3
Import jami, foizda	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan (jamiga nisbatan foizda):				
Kimyo mahsulotlari, plastmassa va plastmassa mahsulotlari	13,6	13,6	11,6	11,1
Qora va rangli metallar	8,6	10,3	7,7	6,3
Mashina va uskunalar	35,4	43,3	52,4	56,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	12,3	7,0	8,3	9,0
Energiya resurslari	3,8	2,5	4,6	5,3
Xizmatlar	8,5	10,4	4,4	4,4
Boshqalar	17,8	12,9	11,0	9,2

Uzoq xorij davlatlariga qilingan eksportning jami eksportdagi ulushi 2008- yilda 65,8 foizni, 2009-yilda esa 66,7 foizni tashkil etdi. Bu mamlakatlar bo'yicha mamlakatimiz eksportining diversifikatsiyalashuv darajasi nisbatan chuqurroq bo'lib, 2009-yil ma'lumotlariga ko'ra, faqat Xitoy (9,7%), Shveysariya (7,9%), Afg'oniston (3,3%), Turkiya (3,2%), Eron (2,7%), Germaniya (2,2%), AQSh (1,7%) ning mamlakatimiz eksportidagi ulushi 1 foizdan yuqoridir.)

10.2. O'rganilayotgan mintaqa mamlakatlari tajribasining ijobiy jihatlari O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari

Hozirgi zamon jahon xo'jaligi, uning rivojlanishi va iqtisodiy o'sish milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini belgilab beruvchi innovatsion rivojlanish va asosiy ishlab chiqarish omillarining o'sib borayotgan intellektuallashuvi bilan tavsiflanadi. Rivojlangan mamlakatlarda yangi texnologiyalar, uskunalar va ishlab chiqarishni tashkil etishda mujassam bo'ladigan yangi bilimlar ulushi yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish ko'rsatkichlarining 70%dan 85%gachasini tashkil etadi.

³⁰ Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi, 2010.



Rivojlangan mamlakatlar YaIMning ortib borishida innovatsion tarkibning qo'shayotgan hissi jadal o'smoqda, masalan, u AQShda 1999-yildagi 31% dan 2009-yilga kelib 34,6% ga oshdi; Yaponiyada ushbu yillar davomida 30,6%dan 42,3% ga; Yevropada 45,5% dan 50% gacha oshdi. Rivojlangan mamlakatlarda jahon ilmiy salohiyatining 90% dan ziyodi to'plangan va hajmi 2,5–3 trln. dollar deb baholanayotgan yuqori texnologiyalar global bozorining 80% ni aynan mana shu davlatlar nazorat qiladilar.

2015–2020-yillarga kelib uning 4 trln. dollarga yetishi kutilmoqda. Fan sig'imi yuqori bo'lgan texnologik mahsulotlarni sotishdan katta daromad olinadi. Masalan, mazkur mahsulotni eksport qilishdan har yili AQSh taxminan 700 mlrd. doll., Germaniya – 530 mlrd., Yaponiya – 400 mlrd. dollar daromad oladi. Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda fan sig'imi yuqori salohiyatga “katta yettilik” mamlakatlari egadirlar, ular keyingi 10–15 yil davomida to'rtinchi texnologik ukkladni tugatib, ayni vaqtda yangi texnologik ukkladni yaratish va joriy etishga kirishdilar.

Sharqiy va Janubiy Osiyodagi bir qator industrial mamlakatlar eksportga yo'naltirilgan industrilashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirmoqdalar. Hozirgi vaqtda fan sig'imi yuqori mahsulotlar bo'yicha jahon eksportida ularning ulushi 15%ni tashkil etadi. So'nggi o'n yillikda Xitoy yuqori texnologiyalarni rivojlantirish va joriy etish hisobiga sezilarli iqtisodiy o'sishga erishdi. Bu davrda ularning yalpi sanoat mahsulotidagi hissasi 8,1% dan 35,4% ga o'sdi. Xitoy har yili yuqori texnologik mahsulotlar eksportini 20% dan ziyodga oshirib bormoqda. Misol uchun, Xitoyda eng zamonaviy texnologiyalar tarmoqlari mahsulotlari hajmi oxirgi o'n yilda 27 barobar o'sdi, yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi esa 35,4%ga oshdi. |

Ekspertlarning bergan baholariga ko'ra, asosiy kapitalni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish rejimiga o'tishda ishlab chiqarish investitsiyalarini uch barobar, ITTKI ni esa – besh marotaba oshirish kerak³¹.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, fan sig'imi yuqori bo'lgan yuqori texnologik tarmoqlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi taxminan 1% ni tashkil etadi. Real sektorda hanz jimonan va ma'naviy jihatdan eskirgan asosiy fondlardan foydalanish yuqori darajada, yangi yuqori samaradorlikka ega quvvatlarni yaratish ishlari sust kechmoqda.

Yuqori bo'lmagan texnik-texnologik salohiyat ishlab chiqarish apparati sifatining pastligi, sanoat uskunalari parkining eskirgani bilan tavsiflanadi. Mashina va uskunalarining o'rtacha yoshi 30 yildan ham ortiq. Qishloq xo'jaligi mashinasozligi, metallurgiya, kimyo va neft kimyosi sanoati, qurilish materiallari sanoati, yengil sanoat, xususan, to'qimachilik va oziq-ovqat tarmoqlarida bu ko'rsatkich yanada katta. Sanoatdagi asosiy fondlarni yangilash koeffitsienti pasayib bormoqda. U ayniqsa, yengil sanoatda – 0,5% gacha, kimyo va neft kimyosida – 0,9% gacha va ilmiy texnik taraqqiyot uchun ayniqsa muhim hisoblangan – mashinasozlik va metallsozlikda – 0,9% gacha pasaydi³².

Texnik jihatdan eskirgan uskunalar, texnologiyalarning past darajasi va yuqori xarajatlar ko'pchilik korxonalariga to'liq darajada raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga yo'l bermaydi. Shunday ekan, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, qayta qurish va texnologik qayta qurollantirish, shuningdek, ITTKI o'tkazishni jadallashti-

³¹ Усиление потенциала для МЧР в Узбекистане. Материалы II-республиканской ярмарки инновационных идей и проектов. –Т., 29 апр., 2009.

³² O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi, 2010.

rish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bular esa bugungi kunda mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish darajalarini har taraflama belgilab beradi, sababi iqtisodiyotning raqobatbardoshligi ilmiy tadqiqotlar va innovatsiya faoliyati taraqqiyoti bilan ko'p jihatdan bog'liqdir.

Bunda asosiy fondlarni, birinchi navbatda, qayta ishlash sanoatida tiklash va yangilash, fan sig'imi yuqori bo'lgan va yuqori texnologik ishlab chiqarishlarning hissasini oshirish, shuningdek, asosiy kapitalga investitsiyalar kiritish tuzilmasini, xususan, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalar foydasiga o'zgartirish muhim ahamiyatga ega.

Asosiy fondlarni tiklash va yangilash an'anasi, birinchi navbatda, qayta ishlash sanoatida fan sig'imi yuqori bo'lgan va yuqori texnologik ishlab chiqarishlar hissasining ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibidagi, xususan, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalar foydasiga o'zgarishlar investitsiya majmualari va umuman iqtisodiyotdagi narxlar mutanosibligini faol tartibga solish bo'yicha olib borilgan izchil davlat siyosati natijasida yuz bermoqda.

YaIM hajmini oshirish va barqarorlashtirish asosida kapital qo'yilmalar hajmida investitsiyalarning sezilarli o'sishi yuz berdi, bu esa iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida rivojlanish dinamikasini belgilab berdi (10.2.1-jadval).

10.2.1-jadval

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha asosiy kapitalni investitsiyalash tarkibi (%)³³

	2006	2007	2008	2009
Jami	100	100	100	100
Ishlab chiqarish sohasiga shu jumladan:				
- sanoat	57,8	67,3	66,9	68,2
- qishloq xo'jaligi	26,9	37,7	34,5	28,4
- qurilish	4,7	3,4	2,7	3,1
- transport va aloqa	1,4	2,4	1,9	2,8
- savdo va umumiy ovqatlanish	23,3	21,6	25,1	31,4
- savdo va umumiy ovqatlanish	1,5	2,2	2,7	2,5
Boshqa sohalar	5,6	5,4	6,1	7,5
Noishlab chiqarish sohasiga	36,6	27,3	27,0	24,3

³³ Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi. 2010.

Investitsiyalar oqimini qayta taqsimlash transport va aloqa sohasini rivojlantirishga jalb etilgan kapitallar ulushini bir qadar oshirilishini (2006-yildagi 23,3%dan 2009-yilda 31,4%gacha) ta'minlab berdi. Ushbu mablag'larning katta qismi Navoiy – Uchquduq – Sultonuwaystog' – Nukus va G'uzor – Boysun – Qumqo'rg'on temir yo'llarining yangi uchastkalarini qurish va mavjud qismini rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilayotgan mintaqalar uchun ajratildi, ularning ishga tushirilishi bilan mamlakatning barcha viloyatlari faqat mamlakat hududidan o'tadigan yagona temiryo'l tarmog'i bilan boglanadi. Pekinni Istanbul bilan bog'lovchi Transosiyo magistralining bir qismi bo'lgan Tajan–Saraxs–Mashhad temiryo'lining qurilishi to'g'risida Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasida hukumatlararo shartnoma imzolandi. Markaziy Osiyo mamlakatlarini Qora dengiz portlariga olib chiquvchi va Yevropani Osiyo bilan bog'lovchi Transkavkaz magistrali qurilishini ko'zda tutgan «TRASEKA» loyahasining amalga oshirilishi respublika uchun ulkan istiqbolli ahamiyat kasb etadi. Yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish va iqtisodiy jihatdan past rentabelli korxonalarni innovatsion yo'lga o'tkazish uchun moliyaviy resurslar va ichki mablag'lar yetishmayotgan sharoitlarda samarali ishlab chiqarishlarni yaratish va yangi quvvatlarni joriy etishga to'g'ridan to'g'ri yo'naltirilayotgan bevosita xorijiy investitsiyalar katta qiziqish uyg'otadi. O'z navbatida, bu narsa xorijiy kapitalarga ega korxonalar sonining, ularning YalMdagi, tashqi savdo aylamasi va aholi bandligidagi ulushining oshishida o'z ifodasini topdi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish ishlab chiqarish va menejmentning zamonaviy usullaridan foydalanish sohasida hamkorlikni kuchaytiradi, jahon standartlari darajasidagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi, mahalliy korxonalarda butlovchi materiallar, uzellar va detallar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun imkoniyatlar yaratadi, bular esa asta-sekin o'zaro bog'liq ishlab chiqarishlar komplekslari – klasterlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Xorijiy kompaniyalarning ishtiroki xalqaro texnologik va savdo "zanjirlari"ga kirib borish hisobiga tayyor mahsulotlarni tashqi bozorlarda sotishni yengillashtiradi. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibi tahlili davlat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 2005-yildagi 6,8%dan 2009-yilga kelib 4,6%gacha pasayganini ko'rsatmoqda (10.2.2-jadval)

**Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibi,
2005–2009-y.lar, (%)³⁴**

Ko'rsatkichlar	2005	2006	2007	2008	2009
Jami:	100	100	100	100	100
Davlat budjeti	12,2	10,4	9,0	9,0	8,1
Korxonalar mablag'lari	46,1	48,4	47,6	44,1	36,7
Aholi mablag'lari	11,4	11,8	11,4	9,8	10,2
Xorijiy investitsiya va kreditlar*	6,8	5,1	5,0	4,9	4,6
Bevosita xorijiy investitsiyalar	14,9	13,4	17,8	20,9	27,8
Banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	3,8	4,1	3,1	5,0	5,2
Nobudjet fondlar	4,8	6,8	6,1	6,3	7,4

* hukumat kafolati ostidagi.

Qabul qilingan qonunchilik hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatlar bo'yicha modernizatsiya qilish doirasida ilmiy tadqiqot muassasalari va tashkilotlarini qayta ta'minlash va to'liq uskunalash maqsadida keltiriladigan asbob-uskunalar bo'xona to'lovlaridan (bo'xona rasmiylashtirilishi uchun to'lovlardan tashqari) ozod qilinadi. 2009–2010-yillar davomida davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlarning ilmiy, texnologik va laboratoriya uskunalarini modernizatsiya qilish uchun mablag'lar ajratilishi ko'zlangan.

[2009–2012-yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi soliq tizimini yanada takomillashtirishning asosiy chora-tadbirlari qatorida, xususan eksportga qaratilgan korxonalarni qo'llab-quvvatlash, tashqi bozorlarda ularning raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadlarida, ularga aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 12 oygacha bo'lgan muddatga Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasining 70% foizidan ortiq bo'lmagan stavka bo'yicha imtiyozli kredit-

³⁴ Manba: 2006-yil uchun axborot-tahliliy ma'lumotlar, O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar loyihasi /USAID, Toshkent, 2006-y. va 2006–2010-y.lar uchun O'zbekiston statistika ma'lumotlari /O'zR Davlat statistika qo'mitasi to'plami –T., 2006–2010-yillar.

lar ajratishni; tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiyalar kiritilgan korxonalarining qo‘shilgan qiymat solig‘idan tashqari barcha turdagi soliq va to‘lovlardan ozod qilinishi muddatini 2012-yilgacha uzaytirish; bank kreditlari bo‘yicha kechiktirilgan va joriy qarzlarni summasini restrukturizatsiya qilish va budjet to‘lovlari bo‘yicha penyalarni bekor qilish va boshqa shunga o‘xshash muhim imtiyoz va preferensiyalar taqdim etish; qat‘iy tejamkorlik rejimini joriy etish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va sohalarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini 20% foizdan kam bo‘lmagan miqdordalarda pasaytirilishini rag‘batlantirishni ko‘zda tutadi. ʻ

Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsion faoliyatini yanada jonlantirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish o‘rinlarini shakllantirish va bular asosida milliy iqtisodiyotimizni barqaror va dinamik rivojlanishini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1213-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2010-yilga investitsion dasturi haqida»gi Qarori³⁵ tasdiqlangan bo‘lib, ushbu dastur asosidagi kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida bank tizimi investitsion kreditlarning ahamiyati yuqori bo‘lmoqda. Buni quyidagi jadval ma‘lumotlari orqali ko‘rishimiz mumkin.

10.2.3-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2010-yilgi investitsion dasturi kapital qo‘yilmalarining asosiy parametrlari³⁶

№	Moliyalashtirish manbalarining nomlari	2010-yilgi prognoz, mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan foizda
	Kapital qo‘yilmalar, jami	18220,3	100
1.	Markazlashtirilgan investitsiyalar	3819,8	20,9
2.	Nomarkazlashtirilgan investitsiyalar	14400,5	79,1
2.1.	Korxonalar mablag‘lari	7777,7	42,7
2.2.	Tijorat banklari kreditlari	1530,0	8,4

³⁵ www.lex.uz

³⁶ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1213-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2010-yilga investitsion dasturi haqida»gi Qarori.

2.2.1	Shu jumladan, ATB «Qishloq qurilish bank»ining imtiyozli kreditlari	256,3	1,4
2.3.	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	3876,8	21,2
2.4.	Aholi mablag'lari	1216,0	6,6

U O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 19-noyabrdagi 4010-sonli «Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish to'g'risidagi tartibni tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoyishi bilan iqtisodiy nochor korxonalarining moliyaviy qobiliyatini tiklash bo'yicha bir qator imtiyozlar (ko'maklar) berilgan.

Yuqorida qayd etilgan me'yoriy hujjat orqali tijorat banklariga ham muayyan imkoniyatlar berilgan. Jumladan:

- bankrot korxonaga negizida ustav jamg'armasi 100 foizgacha bo'lgan yangi korxonaga tashkil etish;

- bankrot korxonaning tugatilishi munosabati bilan unga avval berilgan, qoplanmagan kreditini, shu jumladan Hukumat kafolati bilan berilgan kredit summasini bank kengashining qarori bilan hisobdan chiqarish;

- bankrot korxonaga uchun malakali boshqaruv kompaniyasini tuzish va jalb qilish;

- bankrot korxonani tugatish bahosida sotib olib, uning faoliyatini tiklab, qaytadan bozor bahosida sotish va h.k.

Ayni paytda mazkur jarayonning samaradorligini va ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida tijorat banklari balansiga o'tkazilgan bankrot korxonalarini tiklash, texnik va texnologik modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, zarur bo'lganda korxonani to'liq rekonstruksiya qilish orqali faoliyat yo'nalishini o'zgartirish, strategik hamkorlik va investorlarni jalb qilishni nazarda tutuvchi biznes-rejalarni ishlab chiqish belgilangan.

E'tiborlisi shundaki, tijorat banklari aksiyalari birjada doimiy kotirovka qilinmoqda va uning natijalari tegishli nashrlarda muntazam e'lon qilib borilmoqda. 2010-yilda tijorat banklarining jami kapitalini kamida 20 foizga oshirish va yaqin 2 yilda banklar jami banklar kapitali darajasini YaIMga nisbatan 10 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda.

2010-yilda tijorat banklari tomonidan yana 250 mlrd. so'mlik qo'shimcha aksiyalar muomalaga chiqarilib, banklar ustav kapitallari-

ning oshirilishi kutilmoqda. Masalan, Xalq banki keyingi 4 yil davomida o'zining ustav kapitalini 10 mlrd. so'mdan avval 100 mlrd. so'mga, keyin 200 mlrd. so'mgacha oshirishni mo'ljallamoqda.

2009-yildagi bank sohasidagi islohotlardan yana biri shuki, endilikda barcha mulkchilik shaklidagi tijorat banklari korporativ obligatsiyalar chiqarish huquqiga ega bo'lishdi. Bu o'z navbatida, respublika obligatsiyalar bozorining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, tijorat banklarining «Toshkent» Respublika Fond birjasidagi ishtirokini ham jadallashtiradi. 2009-yilda «Toshkent» Respublika Fond birjasidagi savdolarning deyarli 44 foizini respublika tijorat banklarining aksiyalari tashkil qildi va 39,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ushbu summaning 37,1 mlrd. so'mi nodavlat banklar va ustav kapitalida davlatning ulushi «nazorat paketi»ga teng bo'lmagan banklar hisobiga to'g'ri keladi.

) O'tgan yillar ichida mamlakatda iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarini shakllantirishga qapatilgan samarali iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi, barqaror iqtisodiy o'sishga, valyuta mablag'larining doimiy tushumi manbalari va yetarli darajada valyuta zaxiralarini shakllantirish orqali milliy valyutaning xarid quvvatini chetdan olinadigan qarz mablag'larisiz saqlab turishga zamin yaratildi. Hozirda 20 ta tijorat banklari tomonidan 37 ta turdagi ipoteka krediti joriy qilingan bo'lib, ular 3 yildan 15 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi. Ipoteka krediti uy-joy sotib olish, qurish va oldindan sotib olingan uy-joylarni ta'mirlash uchun ajratiladi.

2010-yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2009-yildagiga nisbatan 1,4 barobar ko'proq kredit resurslarini ajratish ustuvor yo'nalish qilib belgilandi. Shu bilan birga, mikrokreditlarning darajasi esa 1,3 barobarga o'sishi kutilmoqda.

Bugungi kunda bank faoliyati barqarorligining asosi bo'lgan Markaziy bank nochor banklarni aniqlash va ularga iqtisodiy madad berish, ularning sinishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'rmoqda. Bu o'z navbatida, tijorat banklari moliyaviy barqarorligining oshirilishi hamda aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlanishiga imkon yaratmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi shakllanishida uning tabiiy resurs salohiyati, geografik joylashuvi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi kabi omillar muhim ahamiyatga ega

bo'lsa-da, uni o'zgartirish va takomillashtirishda davlatning tarkibiy siyosati hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida tarkibiy o'zgarishlar siyosati:

- mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuv darajasini ko'tarish, ya'ni ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasini kengaytirish, YaIM, eksport kabi ko'rsatkichlarda alohida tarmoq mahsuloti yoki mahsulot guruhining ustunlik qilishiga barham berish;

- tashqi bozorlardagi konyunktura o'zgarishlariga kam ta'sirchan bo'lgan tarmoqlar va sohalarining YaIM va bandlikdagi ulushining yuqori bo'lishini ta'minlash;

- tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi, shuningdek eksport qiluvchi korxonalar va tarmoqlarning xomashyo va butlovchi qismlar bilan ta'minlanishida mahalliy korxonalar ulushining ustunligiga erishish;

- yuqori texnologiyalar va zamonaviy texnika bilan bilan qurollangan, arzon va sifatli, tashqi bozorda bemalol raqobatga kirisha oladigan sanoat tarmoqlarining sanoat ishlab chiqarishi ko'rsatkichlaridagi ulushini oshirish;

- konyunktura o'zgarishlariga tez moslashuvchan, kapital sig'imi past bo'lgan soha va tarmoqlarning yalpi iqtisodiy ko'rsatkichlardagi salmog'ini oshirishga erishish yo'nalishlarida olib borilmoqda.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirib borish, chuqur qayta ishlangan, tayyor, qo'shilgan qiymat hissasi yuqori bo'lgan mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni jadal rivojlantirish va ularning YaIM hamda mamlakat eksportidagi ulushini ko'paytirish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, transport va aloqa tarmoqlarining YaIMdagi ulushi shu davrda 8 foizdan 12 foizgacha ko'tarildi. Sanoat, transport va aloqa tarmoqlarining YaIMdagi ulushi ortishi soliq yukining kamaytirilishi, bu tarmoqlarga investitsiyalar ustuvor tarzda jalb qilinishi, yirik investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasida ro'y berdi.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmlari shu yillarda muttasil yuqori sur'atlarda o'sdi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'siriga qaramasdan tarmoqda o'sish sur'ati 2008-yilda 12,7 foizni, 2009-yilda esa 9 foizni tashkil etdi

Taqqoslash uchun qayd etish mumkinki, 2009-yilda sanoat ishlab chiqarishi hajmi oldingi yilga nisbatan Qozog'iston Respublikasida

atigi 1,7 foizga o'sgan bo'lsa, Rossiya Federatsiyasida 10,8 foizga, Ukrainada 21,9 foizga qisqardi.

2009-yilda yuqori o'sish sur'atlari mashinasozlik va metallni qayta ishlash (117,4%), kimyo va neft-kimyo, yoqilg'i (110,3%), qurilish materiallari (108,7%), qora metallurgiya (108,4%) va oziq-ovqat (108,2%) sanoatida qayd etildi.

Ma'lumki, mehnat taqsimoti va unga bog'liq ravishda mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashish mehnat unumdorligini o'stirish, tayyorlanayotgan mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini kamaytirish uchun imkoniyat yaratadi. Ayni paytda, u yoki bu mahsulot turiga ixtisoslashish ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun xomashyo, butlovchi qismlarni boshqa ixtisoslashgan korxonalaridan sotib olish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Shu tariqa korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini o'rnatishga zarurat yuzaga keladi. Bugungi kunda kooperatsiya aloqalarining xomashyo yetkazib berishdan iborat oddiy ko'rinishidan tortib to franchayzing tizimini qo'llash kabi murakkab turlarigacha mavjud.

Korxonalarining bozorlarda qaysi mahsulot yoki xomashyoga ehtiyoj borligini bilishlari, uni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishlari uchun zarur bo'lgan materiallar va xomashyoni qaysi korxonalaridan olishlari mumkinligi to'g'risida axborotga ega bo'lishlari ularning rivojlanishi, umuman mamlakat iqtisodiyotining yuksalishida muhim omil hisoblanadi.

Bunday axborotlarning yetarli emasligi va ularni olishdagi qiyinchiliklar mavjudligi sababli mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yoki ishlab chiqarish imkoniyati mavjud bo'lgan xomashyo, butlovchi qismlar, materiallar yoki tayyor mahsulotlarni valyuta evaziga, ko'pincha qimmat narxlarda xorijdan olib kelish hollari mavjud. Bunga barham berish maqsadida mamlakatimizda tarmoq, tarmoq ichidagi va xalqaro sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish o'zaro chambarchas bog'langan jarayonlardir. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasining kengayishi tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish uchun shart-sharoit yaratadi.

Mahalliyashtirish – import qilinadigan tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallarni mamlakatda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali unga bo'lgan ichki talabni qondirish va eksportini yo'l-

ga qo'yish. 2010-yilda iqtisodiyotimizni rivojlantirishning prognoz parametrlariga erishish, uning raqobatbardoshligini ta'minlash, tarkibiy tuzilishini takomillashtirish kabi o'zaro bog'langan vazifalarni hal etishda mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ko'lamini kengaytirish muhim rol o'ynaydi.

Hozirda yangi loyihalarni Mahalliyashtirish dasturiga kiritish, o'zini oqlamagan, istiqbolsiz loyihalarni dasturdan chiqarish, 2010-yilda mahalliyashtirish asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi o'tgan yilga nisbatan 40 foizga o'sishi, shu borada eksport qilinadigan mahsulotlarning ulushi esa kamida 12 foizni tashkil qilishi lozim.

Shaxsiy avtomobillar, maishiy uskunalar sonining ortishi ularga servis xizmati ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning keskin oshishiga olib keldi. Aloqa (ayniqsa, uyali aloqa) va axborotlashtirish xizmatlarini ko'rsatish hajmi keskin o'smoqda. Moliya xizmatlari, transport xizmatlarining o'sishida barqarorlik kuzatilmoqda. Ammo, aholiga xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish borasida foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudki, bu hol ularni ishga solish, ayniqsa, qishloq joylarida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish zaruriyatini yanada kuchaytiradi.

Masalan, respublikamiz bo'yicha o'rtacha har 100 ming kishiga deyarli 40 ta yirik maishiy xizmat korxonasi to'g'ri kelsa, bu ko'rsatkich shahar joylarida 64 tani, qishloq joylarida esa 26 tani tashkil etadi. 2008-yil natijalariga ko'ra qishloq aholisiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi jami aholiga ko'rsatilgan xizmatlarning bor-yo'g'i 26,8 foizini tashkil etgan.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasining YaIMdagi ulushini 49 foizga yetkazish, sohada band xodimlar sonini 2010-yil oxirigacha 2006-yilga nisbatan 2 marta oshirish vazifasi yangi xizmat turlarini ko'rsatish bo'yicha faoliyatni qo'llab-quvvatlash, sohada kichik biznesni yanada rivojlantirish, axborot-telekommunikatsiya xizmatlari, transport, moliya, turizm xizmatlarini ustuvor rivojlantirish orqali ta'minlanadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi iqtisodiy faoliyat jaryonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo'lishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir.

Kichik biznesni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning natijasi quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

- kichik biznesning mamlakatimiz YaIMdagi ulushi 2009-yilda 50,1 foizga yetganligi;

- ish bilan band xodimlar pul daromadlarining 70 foizi aynan kichik biznes sohasida shakllanayotganligi;

- kichik biznes korxonalarining mamlakat eksportidagi ulushi 2009-yilda 14,3 foizga yetganligi va h.k.

Kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning 462 mlrd. so'mi «Mikrokreditbank» hissasiga to'g'ri keldi. Soha rivoji uchun shu yili Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Germaniya taraqqiyot banki, XXR hukumati va boshqa xorijiy investorlar mablag'lari hisobidan jami 121,8 mln. doll. yoki 2008-yilga nisbatan 1,5 barobarga ortiq kredit resurslari jalb qilindi.

2010-yilda kichik biznesni jadal rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash borasida chora-tadbirlar izchil davom ettirilmoqda. Masalan, 2009-yilda sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes korxonalarini uchun yagona soliq stavkasi 7 foizga tushirilgan bo'lsa, 2010-yildan e'tiboran 7 foizli soliq stavkasi barcha kichik biznes korxonalarini uchun joriy etildi.

Qaysi tarmoqda faoliyat yuritishlariga bog'liq ravishda kichik biznes subyektlari quyidagi soliq imtiyozlaridan foydalanishlari mumkin:

- 2014-yil 1-yanvargacha yangidan tashkil etilayotgan ta'mirlash-qurilish tashkilotlari soliqlarning barcha turlaridan va ayrim majburiy ajratmalarni to'lashdan ozod qilingan;

- 2012-yilning 1-yanvarigacha go'sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan mikrofirmalar va kichik korxonalarining yagona soliq to'lovi stavkasi 50 foizga kamaytirildi va ularning chetdan olib kelinadigan texnologiya uskunalari bojxona to'lovlaridan ozod qilingan;

- 2012-yil 1-yanvargacha 15 xildagi nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mikrofirmalar va kichik korxonalar foyda solig'i va mulk solig'i, yagona soliq to'lovlari va Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan, shuningdek, ishlab chiqarishda foydalaniladigan uskunalarini import qilishda bojxona to'lovlaridan ozod qilingan.

Kichik biznesni rivojlantirish borasida yaratilgan qulay shart-sharoitlar sohaning iqtisodiy rivojlanishdagi, aholini ish bilan bandligi va daromadlarining o'sishidagi roli yanada kuchayishi hamda YaIM, eksport va tarmoqlar hamda sohalarning ishlab chiqarish ko'rsatkichlaridagi ulushi ortib borishiga xizmat qiladi.

Eksport diversifikatsiyasi, ya'ni xorijga sotilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasining kengayishi, jami eksportda alohida

tovar yoki xizmat turi (ayniqsa, xomashyo) ulushining katta bo'lishiga barham berilishi, mahsulotlarimiz eksport qilinayotgan mamlakatlar geografiyasini kengaytirish eksport hajmining barqaror bo'lishini ta'minlaydi, milliy iqtisodiyotning tashqi bozordagi salbiy o'zarishlarga ta'sirchanligi darajasini pasaytiradi.

Prezidentimiz tomonidan ma'ruzada ilgari surilgan tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar yetkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirish vazifasini amalga oshirish eksport hajmini barqaror o'stirish, tashqi bozordagi o'zgarishlar ta'sirida uning hajmi keskin kamayishi xavfini bartaraf etish imkonini beradi.

Xorijiy davlatlarda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yoki ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin bo'lgan mahsulotlarga bo'lgan talabni o'rganish, bunday tovarlar bozorlariga kirib borish va raqobat qilish strategiyasini ishlab chiqish eksport qilinayotgan tovarlar sonini va mamlakatlar geografiyasini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.


2010–2012-yillarga mo'ljallangan tayyor mahsulotni yangi tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha maxsus dasturlarda eksport hajmini oshirish, eksport qilinadigan yuklarni tashish tizimini takomillashtirish, eksportchi korxonalarini marketing, moliya va tashkiliy-huquqiy qo'llab-quvvatlash masalalari o'z aksini topadi.

Iqtisodiy islohotlarni qonuniy jihatdan ta'minlashga yo'naltirilgan bunday va boshqa bir qator tadbirlar 2009–2012-yillarga mo'ljallangan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini imkon qadar kamaytirishga qaratilgan Inqirozga qarshi choralar dasturini samarali amalga oshirishni huquqiy ta'minlash, dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida O'zbekistonga iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolish va aholining real daromadlarini oshirish imkonini berdi³⁷.

Shuningdek, 2009-yilga nisbatan budjet-moliya va pul-kredit siyosatini, birinchi navbatda, resurslar va energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hisobidan tejamkorlik rejimini yanada qat'iylashtirish mo'ljallanmoqda. Inflatsiya darajasi 7–9 foiz atrofi-da bo'lishi kutilmoqda.


³⁷ Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. - Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 29 yanvar.

10.2.2-rasm



10.2.3-rasm

2005–2009-yillarda moliyalashtirish manbalari bo'yicha investitsiyalarning o'sish sur'atlari³⁸



³⁸ Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari. 2010

Xulosa qilib aytilish mumkinki, eksport hajmini oshirish, uning tarkibini takomillashtirish, umuman tashqi savdo aylanmasini diversifikatsiya qilish iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishida sifat o'zgarishlariga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy yuksalish va aholi turmush farovonligini yanada ko'tarish maqsadlariga xizmat qiladi.

Venchor korxonalarini yaratish ham fan sig'imi yuqori bo'lgan yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, venchor moliyalashtirishni rivojlantirish masalasi, ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitlarida dolzarb hisoblanadi.

Moliyalashtirishning ushbu turi imkoniyatlari, haqiqatan ham, ulkan, masalan, keyingi o'n yil ichida Yevropa venchor biznesida 102,8 mlrd. yevro uzoq muddatli kapital jamg'arildi. G'arbiy Yevropaning 20 mamlakatida 500 venchor jamg'armasi bo'lib, yillik investitsiya hajmi 14,5 mlrd. yevroni tashkil etadi¹.

O'zbekistonda venchor investitsiyalashning joriy etilishi bank sektoriga kredit yukini kamaytirish bilan bir vaqtning o'zida moliyalashtirish manbayini sezilarli ravishda kengaytiradi. Xatarli innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning ushbu turidan foydalanish korxonalariga yangi texnologiyalarni jadal ishlab chiqish va joriy etish, "nou-xau"ni tijoratlashtirish yo'li bilan ishlab chiqarish-moliyaviy vaziyatni o'zgartirishga va yillik daromad miqdorini oshirishga yordam beradi.

Umuman olganda, ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi va iqtisodiy o'sish iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida asosiy kapitalni tuzilmaviy-innovatsion modernizatsiya qilishga maqsadli investitsiya mablag'larini yo'naltirish, yangi texnologik bazaga asoslangan milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning qudratli omili bo'lgan kapital qo'yilmalarni samarali boshqarish orqali ta'minlanadi.

Xorijiy davlatlarda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yoki ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin bo'lgan mahsulotlarga bo'lgan talabni o'rganish, bunday tovarlar bozorlariga kirib borish va raqobat qilish strategiyasini ishlab chiqish eksport qilinayotgan tovarlar sonini va mamlakatlar geografiyasini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu borada har bir tarmoq uchun ishlab chiqilishi ko'zda tutilayotgan 2010–2012-yilga mo'ljallangan tayyor mahsulotni yangi tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha maxsus dasturlarda eksport hajmini oshirish, eksport qilinadigan yuklarni tashish tizimini takomil-

¹ Андреев В. Вопросы перехода России на инновационный путь развития в условиях глобализации В сб. научных трудов ИПР РАН. Вып.3. –М.: Центр "Транспорт", 2009.

lashtirish, eksportchi korxonalarni marketing, moliya va tashkiliy-huquqiy qo‘llab-quvvatlash masalalari o‘z aksini topadi.

2010-yilda «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasiga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmini yanada oshirish investitsiya sohasidagi dolzarb yo‘nalish hisoblanadi. Avvalo, bu yerda boshlangan 17 ta loyihani amalga oshirish, ayni paytda Koreya Respublikasi, Yaponiya, Germaniya, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va boshqa texnologik jihatdan yuksak rivojlangan mamlakatlardan investitsiyalar jalb qilishga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, eksport hajmini oshirish, uning tarkibini takomillashtirish, umuman tashqi savdo aylanmasini divesifikatsiya qilish iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishida sifat o‘zgarishlariga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy yuksalish va aholi turmush farovonligini yanada ko‘tarish maqsadlariga xizmat qiladi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. *Mamlakatning raqobatbardoshligini ta‘minlovchi omillarni sharhlab bering.*
2. *Tarkibiy o‘zgarishlar siyosatining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?*
3. *Tarmoq ichidagi, tarmoqlararo va xalqaro sanoat kooperatsiyasining ahamiyati va iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishdagi rolini izohlang.*
4. *Mamlakatimizda loyihalarni mahalliyashtirish dasturiga kiritish va monitoringini olib borish mexanizmi qanday joriy etilgan?*
5. *Respublikamizda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish omillari va yo‘nalishlari nimalardan iborat?*
6. *Kichik biznesni rivojlantirishda bozor infratuzilmalarining rolini tushuntiring.*
7. *Eksportni diversifikatsiya qilish yo‘nalishlari va imkoniyatlari nimalardan iborat?*
8. *Tarkibiy o‘zgarishlar siyosatini davom ettirish bo‘yicha belgilangan vazifalarning o‘zaro bog‘liqligini izohlab bering.*
9. *Iqtisodiyotning yetakchi sohalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashdan ko‘zlangan asosiy maqsad nimadand iborat?*
10. *To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari uchun hukumat tomonidan qanday imtiyozlar berilgan?*

11. *Mamlakatimizda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash borasida qanday choralar ko'rildi?*

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlarini izohlab bering.
2. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning mazmuni va ahamiyatini tushuntiring.
3. Investitsiyalarning ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish bilan bog'liqligini izohlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida»gi Qarori, 28.10.2009.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni, 11.04.2005-y.*
3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1213-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2010-yilga investision dasturi haqida»gi Qarori.*
4. *O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar loyihasi /USAID, Toshkent, 2006-y. va 2006–2010-y.lar uchun O'zbekiston statistika ma'lumotlari /O'zR Davlat statistika qo'mitasi to'plami – T., 2006–2010-y.lar.*
5. *Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. –T.: O'zbekiston, 2010.*
6. *O'zbekiston Respublikasi Statistika ma'lumotnomasi, 2009-y. uchun, –T., 2010. 19-b.*
7. *Экономика Узбекистана. Информационно-аналитический бюллетень за 2009 г. Центр экономических исследований. –Ташкент, 2010, –С.43.*
8. *www.lex.uz*

XULOSA

O'zbekistonda bozor islohotlarining barcha bosqichlarida respublika milliy iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar muammosi muhim o'rinni egallaydi. Prezident I.A.Karimov bir necha bor ta'kidlaganidek, mamlakat raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish siyosati davlat iqtisodiy dasturini amalga oshirishning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lishi lozim.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, modernizatsiya – an'anaviy jamiyatning ilg'or, industrial jihatdan taraqqiy etgan jamiyatga aylanishini ta'minlovchi ijtimoiy-tarixiy jarayon bo'lib, neoklassiklar tomonidan modernizatsiyaga xususiy mulkchilik va demokratiyani mustahkamlash sifatida yondashilsa, keynschilar tomonidan, eng avvalo, xo'jalikning asosiy tarmoqlarini qamrab oluvchi tarkibiy o'zgarishlar sifatida tushuniladi. Dastlabki o'ringa texnik-iqtisodiy muammolar qo'yiladi. Xo'jalikning zamonaviy tarmoqlarining mavjud bo'lmasligi taraqqiyotning asosiy to'sqinlik kuchi sifatida qabul qilinadi³⁹.

Umuman olganda, modernizatsiya an'anaviy jamiyatdan industrialashgan, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga hamda ijtimoiy jarayonlarni qonunlarga tayangan holda oqilona boshqarishga asoslangan jamiyatga o'tish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bundan ko'rinadiki, modernizatsiya juda keng tushuncha bo'lib, bugungi kunda uni jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o'zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg'or andozalar tomon yo'naltirish va takomillashtirish jarayonlarining majmuyi sifatida ifodalash lozim.

Ushbu fan Sharqshunoslik institutining XMI va M fakulteti talabarlari uchun yangidan kiritilgan fan bo'lib, u bakalavr bosqichining 4-kurs talabalariga maxsus kurs sifatida o'qitilmoqda va uning yordamida talabalar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida bugungi kunda dolzarb bo'lib kelayotgan jarayonlarni, ya'ni iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni batafsil o'rganib chiqish niyatida kiritilgandir.

Mazkur fikrlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash lozimki, ushbu o'quv qo'llanma talabalar uchun chet el tajribasiga tayangan holda respublikamizda kechayotgan modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarini qanday amalga oshirilayotganligini misollar va tahlillar yordamida tushuntirishga yordam beruvchi yo'riqnoma deb qarash mumkin.

³⁹ Нуреев Р. Модернизация экономики: концепции и средства. - <http://www.soob.ru/n/2005/10/c/6>.

GLOSSARIY

Diversifikatsiya jarayoni esa – (lotinchadan *diversus*- har xil va *facere*-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohaslarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko‘paytirish demakdir.

Diversifikatsiya strategiyasi – korxonalar faoliyatini mavjud mahsulotlar va bozorlar turini kengaytirish orqali rivojlanish strategiyasidir. Diversifikatsiya strategiyasi korxonalarning ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini rivojlantirishning eng yetakchi zamonaviy tendensiyalardan biri hisoblanib, u orqali korxonalarni bozor sharoitida vujudga keladigan turli qaltisliklarga bo‘lgan raqobatbardoshligini oshiradi.

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi – mamlakatning o‘rta va uzoq muddatga iqtisodiy o‘sishning yuqori sur‘atlarini ta‘minlab turish qobiliyati.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi – iqtisodiyotning to‘lovga qodir talabga mos keluvchi, iqtisodiy o‘sish va turmush sifatini oshirishni ta‘minlaydigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va ichki hamda tashqi bozorlarda sotish qobiliyati.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi – iqtisodiyotning turli qism va bo‘laklari o‘rtasidagi proporsiyalar va o‘zaro nisbatlar.

Tarkibiy o‘zgarishlar siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyi.

Kooperatsiya aloqalari – mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha bir yoki bir necha korxonaning hamkorligi.

Modernizatsiya – bu obyektning takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me‘yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko‘rsatkichlariga moslashtirish demakdir. Mahalliyashtirish – import qilinadigan tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallarni mamlakatda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali unga bo‘lgan ichki talabni qondirish va eksportini yo‘lga qo‘yish.

Industriyalashtirish – mamlakat iqtisodiyotini sanoatlashgan asosga o‘tkazish, iqtisodiyotda sanoat ishlab chiqarishi ulushini ahamiyatli darajada ko‘paytirish, butun iqtisodiyot yoki uning alohida tarmoqlarida yirik mashinalashgan ishlab chiqarishni barpo etish jarayoni.

Innovatsiya jarayoni – yangilik g'oyasini rivojlantirishdan uning pirovard iste'molchi tomonidan iste'mol qilinishigacha bo'lgan mantiqiy izchillikda harakatlanuvchi jarayon. Bu yangilikning ilmiy-texnik, ishlab chiqarish-iqtisodiy va ijtimoiy-tashkiliy salohiyatini yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish jarayonidir. Innovatsiya jarayonining quyidagi bosqichlari mavjud – yangilikni yaratish, uni o'zlashtirish, tarqatish va takomillashtirish demakdir.

Intellektual mulk – intellektual faoliyatning keyinchalik qandaydir biror-bir obyektiv (moddiy) shaklda ifodalana oladigan natijalari.

Intellektual mulk huquqi – yoki intellektual mulk fuqarolik xuquqining kichik sohasidir. Patent huquqi va fuqaro munosabatlari ishtirokchiliklarini individuallashtirish vositalarini muhofazalash, shuningdek noan'anaviy obyektlarni muhofazalashdan iborat bo'lgan mualliflik huquqi va sanoat mulki shu kichik sohaning institutlaridir.

Intellektual faoliyat – insoniyat jamiyati rivojlanishining asosiy sababi. Intellektual faoliyatning eng muxim turlari fan, san'at va texnik ijodiyot, xalqlar va millatlar, davlat va sivilizatsiyalar rivojining doimiy yo'ldoshi.

Iste'mol bozori – aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarning ayirboshlanishi.

Iqtisodiy samaradorlik – cheklangan resurslardan unumli foydalanib, tovar va xizmatlarga bo'lgan jamiyatning cheksiz talabini maksimal qondirishdir.

Ixtiroga patent – ixtironing ustuvorlik sanasidan boshlab yigirma yil mobaynida amal qiladi mohiyati bo'yicha ekspertiza o'tkazilgandan so'ng beriladi.

Ishlab chiqarish jarayoni – jamiyat ixtiyoridagi barcha resurslardan foydalanib, jamiyat a'zolari uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni yaratish.

Ishlab chiqarish xarajatlari – tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishda qilinadigan barcha sarflardan iborat.

Mulk – turli-tuman obyektlarning muayyan subyektga taalluqli ekanligini anglatadi.

Mulkchilik – kishilar o'rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat natijalarini o'zlashtirish bo'yicha paydo bo'lgan va tarixan aniq bir shaklda namoyon bo'luvchi iqtisodiy munosabatlar. M.ning asosiy bo'g'ini ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilik. U uchta

iqtisodiy unsur ya'ni egalik qilish, foydalanish (ishlatish) va tasarruf etishni mujassamlashtiradi.

Mulkchilik shakllari – bu davlat, jamoa, xususiy va aralash mulklardir.

Mulk egasi – biror moddiy yoki intellektual mulkka egalik qiluvchi bir yoki bir necha shaxslar.

Patent – davlat nomidan sanoat mulki, obykti va beriladigan va muayyan hududda muayyan vaqt oralig'ida amal qiladigan muhofaza hujjatidir.

Patent huquqi – ishlab chiqarishning kapitalistik usuli ustun keliishi va hokimiyatning burjuaziya qo'liga o'tishi natijasida shakllandi.

Sanoat namunalari – qandaydir bir obyekt tashqi ko'rinishining badiiy-konstruktorlik (dizayn) yechimi.

Sanoat namunasiga dastlabki patent – dastlabki ekspertiza o'tkazilgandan so'ng beriladi va ustuvorlik sanasidan boshlab besh yil mobaynida amal qiladi, dastlabki patent egasi iltimosiga ko'ra patentga aylantirilishi mumkin.

Sanoat namunasiga patent – mohiyati bo'yicha ekspertiza o'tkazilgandan so'ng beriladi va ustuvorlik sanasidan boshlab 10 yil mobaynida amal qiladi, patent egasining iltimosi bilan amal qilish muddatini yana besh yilga uzaytirish imkoniyatini saqlab qoladi.

Tovar belgisi (yoki xizmat kursatish belgisi) – fuqarolik muomalasi ishtirokchilari va ular ishlab chiqaradigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni xususiy alomatlarini aks ettiruvchi (individuallashtirish) uchun xizmat qiladigan belgidir.

Tovar belgisiga guvoohnoma – ekspertiza o'tkazilgandan so'ng beriladi va ustuvorlik sanasidan boshlab 10 yil mobaynida amal qiladi va har safar 10 yilga uzaytirish imkoniyatini saqlab qoladi.

Tovar belgisidan foydalanish sharti – tovar belgisi qaysi tovar uchun ro'yhatga olingan bo'lsa, uning shu tovarlarda, ularni joylash buyumlarida, reklamada, bosma nashrlarda, rasmiy blanklarda, ko'rgazma va yarmarkalarda eksponatlarni namoyish qilishda qo'llanishi tovar belgisidan foydalanishga kiradi.

Franchayza – foydalanish uchun tayyor korxonalar, firma yoki mashhur firma mahsulotining savdo markasidan foydalanilgan holda amalga oshiriluvchi biznes yuritish usuli.

Fyuchers operatsiyalari – birjalarda amalga oshiriladigan savdotsotiq operatsiyalari. Bu operatsiyalar shartnoma tuzilganidan so'ng

ishlab chiqariladigan yoki yetishtirib beriladigan mahsulotlar bo'yicha amalga oshiriladi. Odatda, ushbu shartnoma tuzilgandan so'ng buyurtmachi bajaruvchiga avans tariqasida ma'lum summani o'tkazib beradi.

Xususiylashtirish – fuqarolarning va davlatga taalluqli bo'lgan yuridik shaxslarning davlat mulki obyektlarini yoki davlat aksionerlik jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishdir.

Xususiylar mulk – biror shaxs, oila, korxonalar, firma, tashkilot mulki – yer, uy-joy, bino, inshootlar va ishlab chiqarish vositalari, pul, qimmatbaho qog'ozlar. XM ishlab chiqarish yoki o'z qobiliyatini ishga solishdagi tadbirkorlik, o'z xo'jaligini yuritish, daromadni turli qimmatbaho qog'ozlarga joylashtirish natijasida, merosga qolgan mulk va boshqa qonun yo'l qo'yadigan sohalar asosida yuzaga keladi va ko'payib boradi.

O'simlik navi – nasldan naslga barqaror ravishda o'tadigan belgilari bilan ajralib turadigan o'simliklar guruhidir.

MUNDARIJA

Kirish	3
1-BO'LIM. Modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonining nazariy asoslari	
1-bob. Fanning predmeti va uning maqsad va vazifalari	
1.1. Modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonining mohiyati.....	6
1.2. Modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarining asosiy omillari, yonalishlari	8
1.3. Modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlariga xos bo'lgan umumiylik	9
2-bob. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash	
2.1. Ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish chora-tadbirlari	13
2.2. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalish va vositalari.....	20
3-bob. Korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik qayta jihozlash hamda restrukturizatsiyalash muammolari	
3.1. Korxonalarni restrukturizatsiyalashning ilmiy-uslubiy asoslari.....	22
3.2. Sanoat korxonalarini restrukturizatsiyalash muammolari	30
3.3. Iqtisodiyotning barqarorligi va jadal taraqqiy etishida iqtisodiyotga sarflanadigan investitsiyalarning o'rni.....	36
4-bob. O'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida iqtisodiy islohotlar jarayoni	
4.1. Iqtisodiy islohotlar mazmuni va asosiy yonalishlari	40

4.2. Iqtisodiy islohotlarning maqsad va vazifalari.....	41
4.3. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bosqichlari.....	45

2-BO‘LIM. O‘rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarining xususiyatlari

5-bob. Yaponiya iqtisodiyotida modernizatsiya va diversifikatsiya masalalari

5.1. Yaponiyada diversifikatsiya jarayoniga ta’sir etuvchi omillar ..	50
5.2. Yaponiya iqtisodiyotini diversifikatsiyalash sabablari.....	53
5.3. Yaponiyada diversifikatsiya jarayoning xususiyatlari.....	54

6-bob. Xitoy iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning asosiy xususiyatlari

6.1. XXRda “To‘rtlik modernizatsiyasi” dasturining ishlab chiqilishi va uni amalga oshirilishi.....	56
6.2. Xitoyda iqtisodiyotini modernizatsiyalashni amalga oshirish bosqichlari	59
6.3. Modernizatsiya dasturining asosiy yo‘nalishlari va ilk natijalari.....	70

7-bob. Janubiy osiyo mintaqasi mamlakatlarida modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlari

7.1. Mintaqa mamlakatlarida modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish bosqichlari va xususiyatlari.....	82
7.2. Modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi.....	85

8-bob. Hindistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash

8.1. Hindistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlari xususiyatlari 88

8.2. Hindistonda sanoat korxonalarini modernizatsiyalashda xorijiy sarmoyalarning o‘rni va roli..... 91

9-bob. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida industrilashtirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlari

9.1. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida industrilashtirish siyosatini amalga oshirish mexanizmining evolutsiyasi..... 98

9.2. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlari xususiyatlari 100

9.3. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy yuksalish omillari 101

10-bob. O‘rganilayotgan mintaq mamlakatlarini iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash tajribasini O‘zbekiston sharoitida qo‘llash

10.1. O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning asosiy yo‘nalishlari..... 104

10.2. O‘rganilayotgan mintaq mamlakatlari tajribasining ijobiy jihatlari O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari 117

Xulosa 135

Glossariy 136

Texnik muharrir:

M.M. Zarifov

Kompyuter verstkasi:

M.M. Zarifov

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik institutining
O'quv-uslubiy kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya
etilgan. (Bayonnoma №3. 21.12.2012.)

Bosishga ruxsat etildi 10.10.2013.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Shartli 9,0 b.t. 50 nusxada bosildi. Buyurtma № 46

Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi.
Toshkent, Shahrisabz ko'chasi, 25 uy.